To'rtinchidan, milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligi tizimidagi reytingi xalqaro mezonlar bilan belgilanuvchi raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Shu sabab milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi muhim hisoblanadi. Raqobatbardoshlikka intilish jarayonida ishlab chiqarish, boshqaruv texnologiyalarining muntazam yangilanishi tizimli ko'rinish oladi va milliy mahsulot yangilanadi hamda sifati oshib boradi.

Beshinchidan, respublikamizda eksportni rag'batlantirish va import o'rnini bosuvchi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish borasida amalga

¹ Manba: Muallif ishlanmasi

oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda jahon bozorida asosiy eksport tovarlar bo'yicha noqulay konyunktura saqlanib tursada to'lov balansi, xususan, tashqi savdo balansining barqarorligi ta'minlanmoqda.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda modernizatsiya jarayoni va eksportni diversifikatsiyalash bilan uyg'unlashtirish. Diversifikatsiyalashni esa tashqi bozor bilan muvofiqlashtirish;

milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalashda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni keng jalb etish va ulardan samarali foydalanish orqali milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish;

milliy iqtisodiyotning mamlakat va xalqaro darajadagi raqobatbardoshligi mezonlari asosida milliy raqobatbardoshlik mezonlarini ishlab chiqish va amalda qo'llash;

mamlakat real sektori sohalarini tizimli rivojlantirishni jahon xo'jaligi tizimiga integratsiya jarayonlariga moslashtirish.

Shunday qilib, milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiyoti bilan hamohang tarzda taraqqiy ettirish mamlakatimiz iqtisodiyoti kelgusida tashqi bozorda muhim o'rin tutishiga zamin yaratadi. Bu, o'z navbatida, raqobat kurashiga tayyor turishni doimo e'tiborda tutishni taqozo etadi.

Ye.P.Golubkov korxonalar raqobatdoshligini baholash uchun o'tkazilgan marketing tadqiqotlarida mahsulot raqobatdoshligi va marketing faoliyati samaradorligi omillari hisobiga to'lib boruvchi va sinchiklab (birma-bir) o'rganiluvchi korxonalar faoliyatini yuritish natijasida vujudga kelgan imij, mahsulot konsepsiyasi, mahsulot sifati, biznes turlarini diversifikatsiyalash jarayonlari, biznes asosiy turining bozordagi umumiy ulushi, ilmiy tadqiqot va qurilish bazalari quvvati hamda ishlab chiqarish bazalari quvvati va boshqa omillardan foydalanishni taklif qiladi[14]:

I.U.Zulkarnayev, L.R.Ilyasovning fikrlaricha, korxonalar raqobatdoshligiga ta'sir etuvchi barcha omillar majmuini 3 guruhga, ya'ni korxonalar o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, korxonalar ixtiyoridagi resurslar va tashqi muhit omillariga ajratish mumkin[15].


Korxonalar raqobatdoshligi mahsulot sifati, uning nisbiy tannarxi, bozordagi harakati, siljitish tarmog'ining quvvati bilan belgilanadi[16]. Bulardan tashqari N.K.Moiseeva korxonalar raqobatdoshligiga ta'sir etuvchi iste'molchini qanoatlantirish darajasi dinamikasini ifodalovchi mezon va korxonalar samaradorligining vaqt mezonini singari sifat mezonlarini ham hisobga olish kerak[17]”,- deb ta'kidlaydi.

Tadqiqotlarimizning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, qayta ishlash korxonalari raqobatdoshligini uning bozordagi raqobat muhitidagi o'rni orqali baholashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (5-rasm).

Bozordagi raqobat muhiti bozor ulushi dinamikasi va hajmidan kelib chiqqan holda quriladi. Bu korxonalarning mavqeyi va raqobatdoshlik imkoniyatidan

foydalanish darajasi hamda raqobat bosimiga chidamlilik salohiyati bilan o‘zaro farq qiluvchi 16 ta turga ajratish imkonini beradi. Bunda bozordagi ulushning dinamik ko‘rsatkichlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Eng kuchli mavqega 1-guruh korxonalar (bozor liderlari va o‘z raqobat pozitsiyasini darhol yaxshilay oluvchi korxonalar), eng kuchsiziga esa 16-guruh korxonalar (bozor autsayderlari va o‘z raqobat pozitsiyasini tez yo‘qotuvchi korxonalar) ega bo‘ladi.



5-rasm. Qayta ishlash korxonalari raqobatdoshligini uning bozordagi raqobat muhitidagi o‘rni orqali baholash¹

Bu yondashuvni korxonani tavsiflovchi boshqa sifat ko‘rsatkichlarini qo‘shish orqali biroz takomillashtirish talab etiladi. Amaliyotda olib borilgan tadqiqotlar ko‘rsatadiki, o‘rtacha mavqeni bozor liderining 1/3dan ko‘proq ulushiga ega

¹ Muallif ishlanmasi

korxonalar, undan past darajaga esa bozor liderining 1/3dan kamroq ulushiga ega korxonalar egallaydi[18].

Agar bozor yetakchining ulushini 40 % deb olsak, kuchli pozitsiyaga ega korxonalar 15-40 % ulushga, kuchsiz pozitsiyaga ega korxonalar 5-15 % ulushga, autsayderlar esa 5 %dan kam ulushga ega bo'lar ekan.

Tadqiqotlar yana shuni ko'rsatadiki, bozorning rivojlanish darajasi 10 %dan yuqoriroq bo'lsa kuchli, agar o'sish sur'ati 5 % dan kam bo'lsa, kuchsiz hisoblanadi. Demak raqobatdoshlik pozitsiyasi yirik korxonalar uchun bozor ulushining oshish sur'ati 10 % dan yuqori bo'ladi, o'z pozitsiyasini yaxshilayotganlar uchun 6-10 %, o'z raqobatdoshlik holatini yo'qotayotgan korxonalar 5-6 % o'sish suratiga, o'z pozitsiyasini tez sur'atda yo'qotayotgan korxonalarda esa o'sish 5 %dan past bo'ladi. Bu usul korxonalar raqobatdoshligini bir paytning o'zida 2 ko'rsatkich orqali baholash imkonini beradi.

2-jadval

Bozor raqobat xaritasining tuzilishi matritsasi¹

Bozor ulushining oshish sur'ati (T), %	Bozor ulushi, %			
	Bozor liderlari (bozordagi ulushi 40 % dan ortiq)	Kuchli raqobatchi mavqeyiga ega korxonalar (bozordagi ulushi 40 % dan 15 %gacha)	Kuchsiz raqobatchi mavqeyiga ega korxonalar (bozordagi ulushi 15 % dan 5 % gacha)	Bozor autsayderlari (bozordagi ulushi 5 % dan kam)
	1	2	3	4
O'z raqobat holatini tez o'zgartira oluvchi korxonalar (T 10 %dan yuqori)	1 3-raqamli raqobatchi	5 Korxonalar	9	13
O'z raqobat holatini o'zgartiruvchi korxonalar (T 10 dan 5 % gacha)	2	6	10	14
Yomon raqobat pozitsiyasiga ega korxonalar (T 5 dan – 3 % gacha)	3	7	11	15
Raqobat holati tez yomonlashuvchi korxonalar (T – 5 %dan kam)	4	8 1-raqamli raqobatchi	12	16 2-raqamli raqobatchi

Raqobatdoshlik ko'rsatkichlarining maksimal qiymati etalon ko'rsatkichlar vazifasini bajaradi. Shu yo'l bilan olingan raqobatdoshlikning kompleks baholanishi

¹ Muallif ishlanmasi

korxonaga nisbiy xususiyatlarini ifodalaydi. Kuchliroq raqobatdosh korxonaga ko'rsatkichlarini qo'llashdan olingan kompleks baholash korxonaning raqobat muhitidagi holatini ifodalaydi.

1. Raqobatdoshlikning jamlanma ko'rsatkichini aniqlash uslubi samarali uslub hisoblanadi. Uni aniqlashda indeksli usuldan foydalanish taklif qilinadi:

$$K = \frac{\sum_{i=1}^n C_i K_i}{\sum_{i=1}^n C_i} \quad (1)$$

bu yerda: K_i – korxonaga i-mahsulotining raqobatdoshlik ko'rsatkichi;

N – korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy soni;

C_i – ishlab chiqarilgan i- tur mahsulot hajmi;

2. Korxonaga va mahsulot raqobatdoshligining yakuniy ko'rsatkichi sifatida bozordagi ulush hamda uning o'zgarishining mutlaq va nisbiy qiymatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq. Amaliyotda bu yondashuv, ayniqsa, korxonaga va mahsulot raqobatdoshligini prognozlashda juda ham ko'p qo'llaniladi. Bundan tashqari bozor ulushi va uni o'zgarishining mutlaq va nisbiy qiymati yuqorida ko'rib chiqilgan korxonaga va mahsulot raqobatdoshligi kompleks ko'rsatkichlarini aniqlashning barcha usullari uchun o'lchov vositasi bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotda ko'rib o'tilgan korxonaga va uning mahsulotlari raqobatbardoshligini ta'minlashning uslubiy yo'nalishlarini qo'llash asosida raqobatdoshlikni ta'minlash jarayonini tizimlashtirish mumkin bo'lib, uning ko'p qirrali o'zaro bog'liq algoritmini ishlab chiqish mumkin. Shunday qilib, korxonaning eksport salohiyatiga raqobat salohiyatidan foydalanish darajasi sifatida qarash gipotezasi ilgari surildi.

Bundan kelib chiqadiki, sanoat korxonasi va ularning mahsulotlari raqobat salohiyati asosida shakllanib, tashqi bozorda raqobat ustunliklari hisobiga ularning joriy darajasi eng ko'pi bilan salohiyat darajasigacha yetadi. Agar muayyan raqobat muhitida salohiyatdan to'liq foydalangan holda korxonaga yoki uning mahsulotlari raqobatdoshligi talab darajasida bo'lmasa, avvalo, raqobat salohiyatini oshirish va uni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

Qayta ishlash korxonalari raqobatbardoshligining ko'zlangan darajasiga mahsulot sifati va nomenklaturasini oshirishni ta'minlay oluvchi boshqaruv tizimi orqali erishish mumkin. Unda eng maqbuli strategiyani tanlash ko'p jihatdan mahsulotlar bozorining ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Bunda moddiy resurslar sarfi qisqarishi ikki yo'nalish bo'yicha boshqaruv tizimini qayta tuzish bilan erishiladi.

Birinchi, nazoratni, avvalo, byudjet orqali moliyaviy nazoratni takomillashtirish talab etiladi.

Ikkinchi, boshqaruvni markazdan chiqarish, tashqi muhit bilan o'zaro aloqalar uchun mas'uliyatni quyi pog'onalariga o'tkazish lozim. Iste'molchiga qaratilgan guruhlarini shakllantirish va ularga o'zini-o'zi tashkil etish uchun sharoitlar

yaratish boshqaruvni markazdan chiqarishning keng tarqalgan shakli sifatida xizmat qiladi.

O'rganishlar ko'rsatadiki, texnologiyaning rivojlanishi yangicha boshqaruv hamda marketing siyosati bilan birga olib borilishi lozim. Bunda:

1) texnologik innovatsiyalarni yuritish shakllari va yangi bozorni egallash;

2) iste'molchilar faolligini rag'batlantirishning yangi usullarini ishlab chiqish;

3) kombinatsiyalashgan diversifikatsiyalashni qo'llash taqozo etiladi. Natijada diversifikatsiya siyosati marketing siyosati konsepsiyasi asosida korxonaning raqobatdoshlik strategiyasini izlash hisoblanadi. Diversifikatsiya siyosati, o'z navbatida, uning strategiyasini ishlab chiqish, bozorni tahlil qilish va marketingni o'z ichiga oluvchi bir necha bosqichlardan iborat.

Samarali diversifikatsiya siyosatini yuritish, omillarning korxonaga amaliy faoliyatida qanchalik samarali qo'llanilishiga bog'liq. Shundan kelib chiqib, mazkur omillar tizimli tasniflab chiqildi. Biroq bunday omillarning barchasini ham miqdoran baholab bo'lmaydi, bu ularning jamlanma bahosini hisoblashni murakkablashtiradi. Bu esa mavjud sharoitlarga mos ko'rsatkichlarni ishlab chiqishning zamonaviy uslublarini qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotimiz vazifalaridan kelib chiqib, raqobatdoshlikning kompleks baholash uslubiyoti taklif etildi. U korxonaning nisbiy xususiyatlarini ifodalaydi. Kuchliroq raqobatbardosh korxonaga ko'rsatkichlaridan foydalanishdan olingan kompleks baholash korxonaning raqobat muhitidagi holatini ifodalaydi. Bu yondashuv bozor ulushi va uning o'zgarishidagi mutlaq va nisbiy qiymati korxonaga hamda mahsulot raqobatdoshligi kompleks ko'rsatkichlarini aniqlashda asosiy o'lchov vositasi bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январь ПФ-60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”га Фармони//Халқ сўзи., 2022 й., 1 февраль, №23.

2. Портер М. Конкурентная стратегия. Методика анализа отраслей конкурентов. Пер. с англ. - 1-е изд. – М.: Альпина Паблишер, 2006. – 454 стр.

3. Галушко М.В. Внешнеторговая деятельность предприятий в рамках международной производственной кооперации // Вестник Оренбургского государственного университета. – 2007. № 8 (72). – С. 41-45.

4. Pervez Ghauri, Philip Cateora International Marketing. // Copyright, Designs and Patents Act 1988. p.54.

5. Хаксевер К., Рендер Б., Рассел Р. Управление и организация в сфере услуг, пер. с англ. – СПб.: Питер, 2002. – 752 с.

6. Shultz D.E., Kichen Ph.J. Commucating globally: An integrated marketing approach. Chicago, 2000. – p. 275/

7. Neelemegham R. and P.Chintagunta (1999) “A Bayesian Model to Forecast New Product Performance in Domestic and International Markets,” *Marketing Science*, 18, 115-136.

8. Лясников Н.В., Лясникова Ю.В. Международная маркетинговая деятельность многонациональных компаний в условиях нестабильности. // *МИР (Модернизация. Инновации. Развитие)*. 2016. Т. 7. № 4. С. 161–166.

9. Мингалева Ж.А., Оборина Е.Д. Разработка стратегии внешнеэкономической деятельности региона в программах структурной модернизации экономики // *Вестник ПГУ. Серия: Экономика*. 2010. - №1.

10. <https://sputniknews.uz/20240123/ozbekistonn-tashqi-savdo-aylanmasi-42169695.html>

11. Ахмедов И.А. Халқаро маркетинг тамойиллари ва маркетинг тадқиқотини амалга оширишнинг ўзига хос жиҳатлари. // *Жамият ва бошқарув*. - 2017, №4.

12. Ахмедов И.А. Ташқи иқтисодий фаолиятни ривожлантиришда халқаро маркетинг тамойилларидан фойдаланишнинг услубий жиҳатлари. // *Бизнес-Эксперт*. -2016, №1.

13. Бобожонов Б.Р., Мингишов Л.Ў. Ўзбекистон миллий иқтисодиёти рақобатбардошлигини оширишда импорт ўрнини босувчи рақобатбардош саноат маҳсулотларининг ўрни. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 6, ноябрь-декабрь, 2014 йил 3 www.iqtisodiyot.uz

14. Голубков Е.П. Основы маркетинга. – М.: Финпресс, 1999. – 688 с.

15. Зилькарнаев И.У., Ильясова Л.Р. Метод расчета интегральной конкурентоспособности промышленных, торговых и финансовых предприятий. – М.: Маркетинг в России и за рубежом. – 2001. – № 4(24).

16. Хасби Д. Стратегический менеджмент. – М.: Контур, 1998. – 200 с.

17. Моисеева Н.К. Стратегическое управление туристской фирмой. – М.: Финансы и статистика, 2000. – 230 с.

18. Фатхутдинов Р.А. Стратегический менеджмент. – М.: ЗАО «Бизнес-школа «Интел-Синтез», 1999. – 448 с.

TO‘QIMACHILIK TARMOG‘IDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHDA SANOAT TARMOG‘INING SIKLIK DINAMIKASI TAHLILI

Tursunov Bobir Ortikmirzayevich,
i.f.d., professor,
International School of
Finance Technology and Science

Annotatsiya. Ushbu maqolada amalga oshirilgan tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi to‘qimachilik sanoatida faoliyat yuritadigan kichik biznes korxonalarida sof foyda bo‘yicha rentabellik ko‘rsatkichi bilan o‘lchanadigan ishlab chiqarishning samaradorligi omillarini aniqlash va miqdor jihatdan baholashga bag‘ishlangan. Muallif tomonidan dastlabki tahlil o‘tkazish maqsadida faoliyat samaradorligining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlari va ishlab chiqarish samaradorligining omil ko‘rsatkichlari qiymatlarining viloyatlar bo‘yicha farqlanishi dinamik baholangan.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy xususiyatlar, to‘qimachilik tarmog‘i, mezofaktorlar, rentabellik, sof foyda, omillar, qonuniyat.

Аннотация. Исследование в данной статье посвящено выявлению и количественной оценке факторов эффективности производства, измеряемых нормой рентабельности чистой прибыли малых предприятий текстильной промышленности Республики Узбекистан. Для предварительного анализа автором проведена динамическая оценка региональных различий значений обобщающих показателей операционной эффективности и факторных показателей производственной эффективности.

Ключевые слова: региональная специфика, текстильная отрасль, мезофакторы, рентабельность, чистая прибыль, факторы, закономерность.

Abstract. The study in this article is devoted to the identification and quantitative assessment of factors of production efficiency, measured by the rate of return on net profit in small businesses operating in the textile industry of the Republic of Uzbekistan. For the purpose of preliminary analysis, the author dynamically assessed the regional differences in the values of generalization indicators of operational efficiency and factor indicators of production efficiency.

Keywords: regional specificity, textile industry, mesofactors, profitability, net profit, factors, patterns.

KIRISH

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda barcha sohalarda jadal modernizatsiyalash siyosati olib borildi. Biroq mamlakatimizdagi korxonalar moliyaviy xavfsizligini

ta'minlashning metodologik asoslari ishlab chiqilmaganligi sanoat korxonalarining raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir etmoqda. Korxonalar moliyaviy xavfsizligini ta'minlanmaslik korxonalarining shiddat bilan o'zgarayotgan raqobat muhitiga tez moslasha olmasligini keltirib chiqarmoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning ijrosi mamlakatimizdagi korxonalar moliyaviy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash moliyaviy menejmentini takomillashtirish yo'li bilan uni bosqichma-bosqich oshirish, korxonalar moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish va moliyaviy barqarorlikni baholashning metodologik asoslari xorijiy mualliflarning ilmiy asarlarida keng tadqiq etilgan. Moliyaviy xavfsizlik nazariyasi masalalari bilan A.Marshall, (A.Marshall, 1996), J.Mill, (J.Marshall,1980), D.Rikardo, (D.Rikardo, 1955), A.Smit (A.Smit, 2007) va boshqa ko'pgina klassik iqtisodiy nazariya maktabi vakillari shug'ullanganlar. Makroiqtisodiy munosabatlarning turli jihatlari, korxonalarini yaratilishi sabablari va faoliyati S.L. Bryu, P.M. Kachalov, R.G. Kouz, K.R. Makkonell, V.D. Nordxaus, S.P. Robbina, P.A. Samuelson, A. Striklend, V.L. Tambovsev, A. Tompson va boshqa iqtisodchilar ishlarida bayon qilingan.

Moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari, moliyaviy xavfsizlikka tahdidlar va ularni oldini olish strategiyalari Amade S.M. (Amadae, S.M.,2017)), Amirsele A. (Amicelle, A.,2017), Amore L.(Amooore L., 2011), Axmad S. (Ahmad S.,2014), de Deriyan (Der Derian J., 1995), V.Delas (Delas V.,2015), Goyede, Santyago Moral-Garsiya (Santiago M.,2013), Yang V. (Yang B.,2011), Zeng V. (Zeng W.,2019), Zxang V. (Zhang W.,2019) va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari iqtisodchi-olimlari tomonidan korxonalar iqtisodiy va moliyaviy xavfsizligini baholash va boshqarish muammolari bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan, jumladan, raqobatbardoshlik konsepsiyasiga asoslangan; kredit moliya tashkilotlarida moliyaviy risklarni boshqarishning zamonaviy tizimini yaratishga yo'naltirgan boshqaruv konsepsiyasini amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish; bankrotlik va boshqa korxonaga qo'shib ketishni oldini olish; moliyaviy risklarni uchun Monte-Karlo modelini tahlil qilish; korxonalarda moliyaviy va iqtisodiy risklarni baholashning konseptual jihatlari; aksiyadorlar bilan o'zaro hamkorlik asosida qo'shilish va yutib yuborish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy risklarni boshqarish; aksiyadorlik korxonalar moliyaviy

barqarorligini ta'minlash, korxonalar moliyaviy xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy usullari va modellarini ishlab chiqish va boshqalar.

Makro va mikro darajalarda iqtisodiy xavfsizlikni va moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, ularni baholash va boshqarish masalalari mamlakatimiz olimlari – A.Burxonov (A.Burxonov,2019), X.Abulqosimov (X.Abulqosimov,2012), Pardayev M.K. (Pardayev M.K.,2008), Karimov N.G., Xamidova F. (Karimov N. G., Xamidova F.,2019), Ortiqova D.(Ortiqova D., 2010), D.I.Istamov (D.I.Istamov,1995), A.E.Ishmuxammedov (A.E.Ishmuxammedov, 1995) va boshqalarning ishlarida ham o'z aksini topgan. Ko'rsatib o'tilgan mualliflarning ishlari, shubhasiz, korxonaning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash nazariyasiga katta ulush qo'shadi. Ammo korxonani moliyaviy xavfsizligini ta'minlash muammosining murakkabligi va ko'p qirraliligi tufayli mazkur tadqiqotlarda uning barcha jihatlari yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Korxonalar moliyaviy xavfsizligini ta'minlash va uni baholash, xorijiy malakatlar tajribasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, korxonalar moliyaviy xavfsizligini ta'minlash metodologiyasini mamlakatimiz korxonalariga moslab ishlab chiqish maqsadida boshqaruvning umumiy qabul qilingan usullarini qo'llashni ilmiy asoslash zaruriyati mavjud.

Ammo korxonani moliyaviy xavfsizligini ta'minlash muammosining murakkabligi va ko'p qirraliligi tufayli mazkur tadqiqotlarda uning barcha jihatlari yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Korxonalar moliyaviy xavfsizligini ta'minlash va uni baholash, xorijiy malakatlar tajribasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, korxonalar moliyaviy xavfsizligini ta'minlash metodologiyasini mamlakatimiz korxonalariga moslab ishlab chiqish maqsadida boshqaruvning umumiy qabul qilingan usullarini qo'llashni ilmiy asoslash zaruriyati mavjud. Bunda esa O'zbekiston to'qimachilik tarmog'ida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda sanoat tarmog'ining siklik dinamikasi tahlilini amalga oshirish lozim bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodikasi uch bosqichli protsedura. Birinchi bosqichda O'zbekiston Respublikasi hududlarida sanoat ishlab chiqarish dinamikasining progressiv (tendensiya) va siklik tarkibiy qismlarining parametrlari baholandi. Bu, umuman, sanoat ishlab chiqarishining progressiv va siklik dinamikasining umumiy va o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan hududlarni aniqlashga imkon beradi. Ikkinchi bosqichda viloyatlar olingan model parametrlarining o'xshashligi asosida klasterlanadi. Tadqiqotning uchinchi, yakuniy bosqichida to'qimachilik sanoatining siklik dinamikasining O'zbekistondagi sanoat ishlab chiqarish dinamikasiga bog'liqligi aniqlandi.

Tadqiqotni o'tkazishda biz O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi veb-saytida e'lon qilingan 2000-2018-yillarda O'zbekiston Respublikasi hududlarida sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalandik.

Shuningdek, biz 2010-2018-yillarda O‘zbekiston Respublikasida to‘qimachilik mahsulotlarining o‘shish sur‘atlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy adabiyotlarda ma‘lum vaqt davrlarida makroiqtisodiy sharoitlarning ta‘sirini hisobga olgan holda korxonalarining moliyaviy barqarorligini tahlil qilish bo‘yicha ishlar keltirilgan. Masalan, “Modelling the financial stability of an enterprise taking into account macroeconomic indicators” (Bidzhoyan D.S., 2016) asarida mualliflar metallurgiya sanoatidagi korxonalarining moliyaviy barqarorligini makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning dinamik modellari parametrlarini o‘z ichiga olgan matematik modellar yordamida o‘rganishadi. Ularning vaqtdagi tebranishini xarakterlovchi. Modellar mualliflarga korxonalarining moliyaviy barqarorligi modellarini belgilashda ularning turli davrlardagi faoliyatining alohida shart-sharoitlarini hisobga olish imkoniyatini berdi.

Xuddi shunday masala umuman O‘zbekiston Respublikasi sanoati uchun, shuningdek, uning to‘qimachilik sanoati uchun ham dolzarbdir. Ushbu tadqiqot davomida muallif tomonidan qabul qilingan asosiy gipoteza quyidagicha edi: viloyatlarda to‘qimachilik sanoatining rivojlanishi (dinamikasi) to‘g‘ridan-to‘g‘ri umuman sanoat ishlab chiqarish dinamikasiga bog‘liq. Ushbu gipoteza mamlakatdagi sanoat ishlab chiqarish dinamikasining progressiv va siklik tarkibiy qismlarini tahlil qilish orqali ishlab chiqarishning progressiv va siklik dinamikasining viloyatning tarmoqlari va tarmoqlari bo‘yicha bog‘liqligini ochib berish mumkin degan taxminga (gipotezaga) asoslangan.

Iqtisodiy sikllar nazariyasi iqtisodiy sharoitdagi tebranishlarning o‘zaro ta‘sirini tushuntirib bera olmaydi. Iqtisodiy nazariya iqtisodiyotdagi turg‘un jarayonlarni yaxshi tushuntiradi. Dinamik jarayonlar va undan ham ko‘proq moliyaviy resurslarni to‘plashni talab qiladigan jarayonlar, iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan qimmatli qog‘ozlar bozorining xatti-harakatlarini tushuntirish deyarli mumkin emas. Kattalashtiruvchi va tezlashtiruvchi vositalar yordamida murakkab iqtisodiy jarayonlarni tushuntirishga urinishlar Keyns tomonidan iqtisodiy nazariya taraqqiyoti boshlanganda taklif qilingan, ammo bu tadqiqotlar davom ettirilmagan.

Biroq yuqoridagi muammoni hal qilish uchun statistik va ekonometrik usullar juda mos keladi (Tagiyev M.R.,2019). Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish dinamikasining progressiv va siklik tarkibiy qismlarining parametrlarini baholashni o‘z ichiga oladi.

Sanoat ishlab chiqarish dinamikasining trend-siklik tarkibiy qismlari parametrlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kombinatsiyalashgan guruhlash, quyidagilarni birlashtiradi:

➤ chiziqli tendensiya turlari bo‘yicha viloyatlarni guruhlash (yuqoriga yoki pastga);

- industrial sanoat ishlab chiqarishining o‘shish sur‘atlarining seriyali davriy komponentining parametrlari bo‘yicha hududlarni guruhlash.
- kombinatsiyalashgan guruhlash natijalarini hisobga olgan holda viloyatlarning o‘ziga xos iqtisodiy turlarini aniqlash.

O‘zbekiston Respublikasining j -chi viloyatsida sanoat ishlab chiqarishining progressiv va siklik dinamikasi parametrlarini baholash uchun tavsiya etilgan model quyidagicha:

O‘zbekiston Respublikasi viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish dinamikasining progressiv va siklik tarkibiy qismlarining parametrlarini baholash;
sanoat ishlab chiqarish dinamikasining trendsiklik tarkibiy qismlari parametrlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kombinatsiyalashgan guruhlash;
chiziqli tendensiya turlari bo‘yicha viloyatlarni guruhlash yuqoriga yoki pastga;
industrial sanoat ishlab chiqarishining o‘shish sur‘atlarining seriyali davriy komponentining parametrlari bo‘yicha hududlarni guruhlash;
kombinatsiyalashgan guruhlash natijalarini hisobga olgan holda viloyatlarning o‘ziga xos iqtisodiy turlarini aniqlash.

$$y_j = a_0 + a_1 * t + a_2 \text{Sin}(k * t) + a_3 \text{Cos}(k * t),$$

Bu yerda:

y_j – O‘zbekiston Respublikasining j -viloyatsida sanoat ishlab chiqarishining yillik o‘shish sur‘atlari vaqt seriyasining progressiv 54at sikli tarkibiy qismlarining hisoblangan qiymatlari;

t – yillar, $t = 2000, \dots, 2018$ yy.

a_0, a_1 – vaqt seriyasining tarjima komponentini belgilaydigan model parametrlari;

k – siklik tebranishlarning to‘lqin uzunligini (davri) aniqlaydigan parametr;

a_2, a_3 – garmonik tebranishlarning umumiy modelga qo‘shadigan parametrlari.

To‘lqin uzunligini (davri, yillar) aniqlash uchun formuladan foydalaniladi:

$$L = 2\pi/k$$

Modelning sifati ko‘p korrelyatsiya koeffitsiyenti R , shuningdek, ko‘p aniqlanish koeffitsiyenti (D) yordamida baholanadi, bu tushuntirilgan o‘zgarishning o‘ziga xos og‘irligini aniqlashga imkon beradi (ning haqiqiy qiymatlarining foizlari viloyatdagi sanoat ishlab chiqarishining o‘shish sur‘atlari namunaviy ko‘rsatkichlarga mos keladi).


Model parametrlarini baholash natijalariga ko‘ra, yuqorida keltirilgan model o‘rganilayotgan vaqt qatorlarini ishonchli tarzda tavsiflagani aniqlandi: hududlar bo‘yicha tushuntirilgan o‘zgarish 55-78% ni tashkil etdi.

Natijada O‘zbekiston Respublikasi uchun ishlab chiqarilgan model quyidagicha:

$$y_1 = 108,19 + 0,096 * t + 1,912 \text{Sin}((-0,679) * t) - 1,155 \text{Cos}((-0,679) * t).$$

Ushbu model, umuman, O‘zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishining yillik yillik o‘shish sur‘atlaridagi (D) 66% o‘zgarishini tushuntiradi.

Dendrogramda (1-rasmga qarang) biz hududlarni 2 guruhini ko‘rishimiz mumkin, ular O‘zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarish dinamikasining progressiv va siklik komponentlari parametrlarining bir xilligiga qarab guruhlangan. Klasterlash natijalari shuni ko‘rsatadiki, Xorazm, Toshkent, Samarqand, Namangan, Andijon va Jizzax viloyatlari va Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarishining progressiv va siklik rivojlanish parametrlariga o‘xshashdir. Bundan tashqari, viloyatlar sanoat ishlab chiqarish dinamikasining yuqoriga va pastga yo‘naltirilgan yo‘nalish tendensiyalari bilan guruhlarga bo‘linadi.




1-rasm. Sanoat ishlab chiqarish dinamikasining progressiv va siklik tarkibiy qismlari parametrlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududlarini bir xil guruhlarga taqsimlash dendrogrammasi¹

Iqtisodiy dinamikaning sikllaridagi farqlarning asosiy sabablari qaram va ba‘zan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi o‘rtasidagi vaqt kechikishidir. Iqtisodiy sikllarning mavjudligi, ya‘ni iqtisodiy muhitdagi tebranishlar ma‘lum muammolarga olib kelishi mumkin. Agar bu tebranishlar ma‘lum bir progressiv tendensiya atrofida yuzaga kelsa, u holda inqiroz narxi YAIMning o‘shish sur‘atlarining biroz pasayishi bo‘lib, ishlab chiqarishning pasayishi va yalpi talab

¹ SPSS 20 dasturi asosida muallif hisob-kitoblari

ko'rsatkichlarining pasayishi emas. Ammo haqiqatdagi siklik tebranishlar bitta sikl to'liqlinining ta'siri ostida ham, bir necha turdagi siklik to'liqlarning superpozitsiyasi natijasida ham sodir bo'lishi mumkin.

Model parametrlarini tahlil natijalariga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Sirdaryo kabi viloyatlar o'sish tendensiyasi turiga ega, qolganlari esa kamayib boruvchi turga ega. Viloyatlarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish sikli uzunligi 4,21 dan (Toshkent shahri) 9,37 gacha (Navoiy viloyati) o'zgarib turadi.



2-rasm. 2000-2020-yillarga mo'ljallangan viloyatlarning tanlangan klasterlari uchun sanoat ishlab chiqarish stavkalarining 2000-2018-yillardagi o'rtacha yillik darajadan chetlanish qiymatlari, % - punktlar¹

2-rasmda k –o'rtacha usuli bo'yicha klasterlash natijalari keltirilgan, shundan kelib chiqadiki, tuzilgan modellarning siklik komponentining parametrlari klaster hosil qiladi. Ularning o'rtacha qiymatlari tanlangan klasterlarga ko'ra farq qiladi. Klaster hosil qiluvchi o'zgaruvchilarning belgilangan o'rtacha qiymatlari viloyatlarning tanlangan klasterlari uchun sanoat ishlab chiqarish stavkalarining hisoblangan qiymatlarini aniqlashga imkon beradi (2-rasm).

Shuni ta'kidlash kerakki, 1-klaster viloyatlarida va 2-klaster hududlarida 2020-yilgi model bo'yicha hisoblab chiqilgan prognoz ma'lumotlarida sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari o'rtacha yillik darajaga nisbatan pasayganligi ko'rsatilgan. Mos ravishda 3,5 va 0,4% punktlarda aks etgan. Bundan kelib chiqadiki, koronavirus inqirozi holati muntazam siklik tufayli har ikkala guruh viloyatlarida sanoat ishlab chiqarishining pasayishiga to'g'ri kelgan.

¹ SPSS 20 dasturi asosida muallif hisob-kitoblari

TADQIQOT NATIJALARI MUHOKAMASI

Yuqorida keltirilgan dinamik modellarning parametrlarini baholash natijalariga ko'ra, sanoat tendensiyasining uzoq muddatli dinamikasi xususiyatlariga ega bo'lgan to'rtta viloyatlar aniqlandi, ular asosiy dinamik xususiyatlari bilan belgilanadi. Ushbu mintaqaviy taniqli turlarning tarkibi quyida keltirilgan:

1-tur (1 klaster, iqtisodiy o'sishning yuqoriga qarab turi):

Samarqand, Toshkent, Xorazm, Toshkent;

2-tur (1 klaster, iqtisodiy o'sishning kamayib boruvchi turi):

Andijon, Jizzax, Namangan,

3-tur (2-klaster, o'sib borayotgan iqtisodiy o'sish turi): Buxoro, Navoiy, Surxondaryo.

4-tur (2 ta klaster, iqtisodiy o'sishning kamayib boruvchi turi): Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Sirdaryo, Farg'ona.

2010-2018-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, hududlarda sanoat o'sishining umumiy holati to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishining yillik o'sish sur'atlarining o'zaro bog'liqlik koeffitsiyentlarini hisob-kitoblari shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining viloyatdagi sanoat o'sishiga eng katta munosabati 4 yillik kechikish bilan sodir bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 1-klaster viloyatlarida va 2-klaster viloyatlarida 2020-yilga mo'ljallangan trend-siklik model prognozi sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlarining o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan pasayishini beradi. Yillik daraja, mos ravishda, 3,5 va 0,4% punktlarda aks etgan. Bundan kelib chiqadiki, koronavirus inqirozi holati muntazam siklik tufayli har ikki guruh viloyatlarida sanoat ishlab chiqarishining pasayishiga to'g'ri keldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi hududlaridagi to'qimachilik korxonalarining moliyaviy barqarorligini o'rganishda siklik omilni hisobga olish zarur, chunki inqiroz hodisalari korxonaning moliyaviy ahvolini og'irlashtiradi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi hududlarida sanoat ishlab chiqarishining progressiv va siklik rivojlanish tendentsiyalarini aniqlashga, shuningdek, hududlarni progressiv va siklli rivojlanish turlari bo'yicha guruhlariga ajratishga imkon berdi. Olingan ma'lumotlar katta bashorat qiluvchi ahamiyatga ega, chunki bu viloyatlar miqyosda sikl dinamikasini prognoz qilish va shu sababli O'zbekistonning turli viloyatlarida sanoat uchun inqiroz oqibatlarini yumshatish bo'yicha profilaktika choralarini ko'rish imkonini beradi. Shunday qilib, taklif etilayotgan model O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Shu kabi ma'lumotlar O'zbekiston viloyatlari to'qimachilik sanoati uchun ham olingan, bu ham to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish pasayishini oldindan taxmin qilish va shu bilan profilaktika choralarini ko'rish imkonini beradi. Bundan tashqari, to'qimachilik sanoatidagi siklik dinamikaning umuman sanoatdagi sikl bosqichiga bog'liqligi aniqlandi: O'zbekiston Respublikasi uchun to'qimachilik sanoati va sanoati davridagi sikl fazasi o'rtasidagi kechikish butun o'rta 4 yil. To'qimachilik sanoatida inqirozga qarshi choralarini ishlab chiqishda ushbu holatni ham hisobga olish mumkin va bu O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Korxonaning moliyaviy xavfsizligiga ichki xavf va tahdidlarni kamaytirish uchun, birinchi navbatda, korxonaning moliyaviy xavfsizligini nazorat qilish kerak, muallif fikriga ko'ra, yirik to'qimachilik korxonalarida moliyaviy xavfsizlik xizmati (xizmati) tashkil qilinishi va ular to'g'ridan-to'g'ri bosh direktorga bo'ysunishi kerak.

Korxonaga uchun moliyaviy xavfsizlikning samarali tizimini tashkil etish uchun ichki va tashqi tahdidlar aniqlanishi kerak bo'lgan korxonaga uchun tegishli hujjatlarni, shuningdek, korxonaning moliyaviy xavfsizligi buzilgan deb hisoblash mumkin bo'lgan mezonlarni ishlab chiqish kerak. Boshqacha aytganda, korxonalarning moliyaviy xavfsizligi talablariga muvofiqligini baholashga imkon beradigan mezonlar aniqlanishi kerak. Moliyaviy xavfsizlik xizmati ushbu mezonlarga muvofiqligini baholaydi va ma'lumotni korxonaning yuqori rahbariyatiga yetkazadi.

Shu bilan birga, qarzdorlarga qo'yiladigan talablar tamoyillari ishlab chiqilishi kerak, ular korxonaning moliyaviy xavfsizligi talablariga muvofiq bo'lishi kerak. Shu bilan birga, komplayens-nazorat bo'limi moliyaviy xavfsizlikni baholash uchun (shuningdek, korxonaning moliyaviy manfaatlariga rioya etilishini nazorat qilish uchun) taqdim etilgan hisobotlarning muhimligi to'g'risida o'z fikrini bildirishi kerak.

Bundan tashqari, har tomonlama va obyektiv monitoring uchun, shu jumladan, korxonaning moliyaviy xavfsizligiga tahdid soluvchi ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash va prognoz qilish uchun axborot tizimi yaratilishi kerak. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, salbiy omillarga qarshi kurashish, shuningdek tahdidlarning mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini oldini olish va bartaraf etish uchun tezkor va uzoq muddatli chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.who.int> (2021)
2. Маршалл А. Принципы экономической науки. Т. 1. и 2. - М.: Издание РОО, 1996;
3. Милль Дж. Основы политической экономии. Пер. с англ. – Т. 1-3. – М.: Прогресс, 1980-1981.;
4. Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Том 1. Пер. с англ. – М.: Госполитиздат, 1955.;
5. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, 2007. – Серия: Антология экономической мысли – 960 с.

6. Amadae S.M. (2017) Perpetual anarchy: From economic security to financial insecurity. *Finance and Society*, 3(2): 188-96.;
7. Amicelle A. (2017) When finance met security: Back to the War on Drugs and the problem of dirty money. *Finance and Society*, 3(2): 106-23.
8. Amore L. (2011) Data derivatives: On the emergence of a security risk calculus for our times. *Theory, Culture & Society*, 28(6): 24-43.;
9. Ahmad S., Ng Ch., McManusc L. Enterprise risk management (ERM) implementation: Some empirical evidence from large Australian companies. *Procedia - Social and Behavioral Sciences* 164 (2014) 541 – 547;
10. Der Derian, J. (1995) The value of security: Hobbes, Marx, Nietzsche and Baudrillard. In: Lipschutz, R. (ed.) *On Security*. New York, NY: Columbia University Press, 24-45.;
11. Delas V., Nosova E., Yafinovich O. Financial Security of Enterprises. *Procedia Economics and Finance* 27 (2015) 248 – 266;
12. Santiago Moral-García, Santiago Moral-Rubio, Eduardo B. Fernández, Eduardo Fernández-Medina, Enterprise Security Pattern: A Model-Driven Architecture Instance, *Computer Standards & Interfaces* (2013), doi: 10.1016/j.csi.2013.12.009;
13. Yang B. Construction of logistics financial security risk ontology model based on risk association and machine learning; Yildirim E., Akalp G., Aytac S., Bayram N. Factors influencing information security management in small- and medium-sized enterprises: A case study from Turkey. *International Journal of Information Management* 31 (2011) 360–365;
14. Zeng W., Koutny M. Modelling and analysis of corporate efficiency and productivity loss associated with enterprise information security technologies. *Journal of Information Security and Applications* 49 (2019) ;
15. Zhang W., Jiang H. Application of Copula function in financial risk analysis. *Computers and Electrical Engineering* 77 (2019) 376–388.
16. Zumbun Josh (10 May 2020). "Coronavirus Slump Is Worst Since Great Depression. Will It Be as Painful?". *The Wall Street Journal*. ISSN 0099-9660. Retrieved 20 January 2021.
17. Бурханов А.У. Молиявий хавфсизлик. Ўқув қўлланма. Иқтисодиёт. 2019, 164 б.;
18. Абулқосимов Х.П. Иқтисодий хавфсизлик. Т.: Академия, 2012, 111 – б.;
19. Пардаев М.К., Аминов З.Ю. Корхонанинг иқтисодий хавфсизлиги ва уни таъминлаш йўллари. Рисола. Самарканд: Зарафшон, 2008.- 47 бет.;
20. Каримов Н. Ғ., Хамидова Ф. Иқтисодий хавфсизлик: иқтисодий моҳияти ва мустақамлаш омиллари. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” илмий-электрон. No 3, 2019 йил, 214-223 б.;
21. Ortiqova D. “Iqtisodiy xavfsizlik” (O‘quv qo‘llanma). –Т.: TDIU, 2010. 150 bet.;

22.Истамов Д.И., Ю.А.Гранаткин, М.М.Мухаммедов, Э.Н.Ходжаев. Экономическая безопасность предприятия и защита коммерческой тайны. Самарканд. 1995.- 152 бет.;

23.Ишмухаммедов А.Э. Иқтисодий хавфсизлик. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2004. – 176 б.;

24.Тагиев М.Р. О проблемах резонанса и цикличности в экономической динамике // Вестник Алтайской академии экономики и права. 2019. № 11-2. С. 175-179.[URL: https://www.vaael.ru/ru/article/view?id=837](https://www.vaael.ru/ru/article/view?id=837) (дата обращения: 01.03.2021).

25. Bidzhoyan D.S., Bogdanova T.K. Modelling the financial stability of an enterprise taking into account macroeconomic indicators // Business informatics. 2016. No. 3(37). pp.30-36. <https://doi.org/10.17323/1998-0663.2016.3.30.37>.

AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHNING METODOLOGIYASI

Akramov Tohir Abdirahmonovich

TDIU, Marketing kafedrası professori, i.f.d.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston avtomobil sanoati korxonalarining innovatsion marketing strategiyalarini ishlab chiqish zaruriyati asoslangan. Innovatsion marketing strategiyalarini ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan omillar va ularni namoyon bo‘lishining ilmiy-nazariy jihatlari keltirilgan. Korxonada marketing strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish jarayonining metodologik ta‘minoti aniqlangan. O‘zbekiston avtomobil sanoati korxonalarining bozor faoliyatini rivojlantirishning innovatsion marketing strategiyalari taklif etilgan

Kalit so‘zlar: Avtomobil sanoati, innovatsiya, marketing strategiyalari, metodologiya, SWOT, PEST tahlil usullari; benchmarking, BKG matritsasi

Аннотация. В основе данной статьи лежит необходимость разработки инновационных маркетинговых стратегий предприятий автомобильной промышленности Узбекистана. Представлены факторы, необходимые для разработки инновационных маркетинговых стратегий и научно-теоретические аспекты их проявления. Определено методическое обеспечение процесса формирования и реализации маркетинговой стратегии предприятия. Предложены инновационные маркетинговые стратегии развития рыночной деятельности предприятий автомобильной промышленности Узбекистана.

Ключевые слова: автомобильная промышленность, инновации, маркетинговые стратегии, методология, методы SWOT, PEST-анализа; бенчмаркинг, матрица BKG

Abstract. This article is based on the need to develop innovative marketing strategies of enterprises of the automobile industry of Uzbekistan. Factors necessary for the development of innovative marketing strategies and scientific and theoretical aspects of their manifestation are presented. The methodological support of the process of formation and implementation of the marketing strategy of the enterprise is determined. Innovative marketing strategies for the development of the market activity of enterprises of the automobile industry of Uzbekistan are proposed

Keywords: Automotive industry, innovation, marketing strategies, methodology, SWOT, PEST analysis methods; benchmarking, BKG matrix

KIRISH

Jahon miqyosida avtomobil sanoati korxonalari xarajatlarining katta qismi yuqori texnologiyali va ilmiy sig‘imli ishlab chiqarishlarni tashkil etish, xalqaro

bozorlarga mo'ljallangan marketing strategiyalarini ishlab chiqish, tarmoqda marketing strategiyalarini amalga oshirish, investitsion salohiyat va raqobatbardoshlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda. Bu borada, avtomobil sanoati salohiyatini kengaytirish, uning global bozordagi barqaror iqtisodiy taraqqiyotga qo'shayotgan hissasini oshirishga qaratilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda respublikasida ham avtomobil sanoati salohiyatini kengaytirish, uning global bozordagi barqaror iqtisodiy taraqqiyotga qo'shayotgan hissasini oshirishga qaratilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunonchi, avtomobil sanoati korxonalarida marketing samaradorligini baholash mezonlari, ularning shakllanish jarayonlari, bozorda hukmron kuchga ega bo'lgan iste'molchilarning xulq-atvori, naflilik darajasini o'lchash bilan bog'liq marketing izlanishlari xalqaro ilmiy tadqiqot institutlari va assotsiatsiyalari tomonidan samarali amalga oshirilmoqda hamda ularning natijalari amaliyotga joriy etilmoqda.

O'zbekiston avtomobil sanoatida ishlab chiqarishda innovatsiyalarni keng joriy etilishi ham samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish zaruratini yanada oshirmoqda. Innovatsion tizim shakllantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri mamlakat mintaqalarini innovatsion rivojlantirish hamda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarning innovatsion salohiyati va innovatsion faollikni baholash hisoblanadi. Bunda innovatsion faollik korxonaning bozor faoliyatini rivojlanishini ta'minlaydigan yagona omil sanaladigan vaziyat yuzaga kelishi mumkin. Korxonalar oldida ishlab chiqaruvchi korxonalarining innovatsion siyosati doirasida sanoat korxonalarida samarali institutsional va texnologik o'zgarishlarni rag'batlantirish, sanoat korxonalarining tadqiqotchilik yo'nalishidagi korxonalar va tashkilotlar bilan integratsiyalashuviga xizmat qilish, korporativ fan va ishlanmalarning rivojlanishini rag'batlantirish yo'li bilan investitsion risklarni maksimal darajada pasaytirish vazifasi turibdi. Ushbu vazifalarning samarali yechimi sifatida bir qator yo'nalishlarda samarali ish olib borish talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Marketing strategiyasi korxonaning faoliyat ko'lamini, strategik maqsadini hamda taktik vazifalarini oldindan belgilab beradi. Shuningdek, mazkur maqsad va vazifaga erishish uchun zaruriy choralar hamda talab qilinayotgan resurslar davomiyligini rejalashtirish jarayonini belgilaydi. Marketing strategiyasi korxonalar o'z faoliyatini qanday, qachon va qayerda amalga oshirishi kerak, degan savollarga javob qidiradi. Modomiki, marketing strategiyalarini amalga oshirishning asosiy bosqichlarini maqsadga muvofiq tarzda shakllantirish imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, marketing strategiyasi bo'yicha korxonalar menejerlari, turli maslahatchilar va nazariyotchilar o'rtasida yagona tushuncha bo'lmasada, ular bu strategiya kompaniya faoliyatining qaysi yo'nalishlarini qamrab olishi lozimligi bo'yicha umumiy fikrga egalar. Maykl Porterning fikricha, samarali

marketing strategiyasi kompaniyaning raqobatdagi ustunligini ta'minlovchi asosiy vosita va bozordagi harakatlar dasturi ekanligi qayd etiladi[1]:

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda korxonalar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha marketing strategiyasi nazariyalari bo'yicha ko'plab yondashuvlar mavjud. Amerika marketing assotsiatsiyasi tomonidan marketing strategiyasiga "maqsadli bozorni aniqlash, joylashishni aniqlash, marketing vositalari va xarajatlar kabi o'zgaruvchilarga oid qaror va yo'nalishlarni belgilab beruvchi biznes strategiyasi"[3] sifatida yondashilgan. P.Anderson tomonidan "marketing strategiya korxonaning uzoq muddat raqobat ustunliklarini saqlash imkonini beruvchi maqsad va vazifalarni belgilovchi qarorlar tizimidan iborat" ekanligi, G.Assel esa "strategiyaga mijozlarga ta'sir ko'rsatish va uni sotib olishga undashning asosiy usuli" sifatida yondashgan[3]. Marketing strategiyasi F.Kotler, G.Armstrong, D.Sonders, V.Vonglarning e'tirofi bo'yicha "Korxonaning maqsadli iste'molchilarga qaratilgan munosabatlari bo'lib, bozorni tanlashi, segmentlashi, istiqbolli bo'lganlarini belgilashi va ushbu segmentga xizmat ko'rsatishi hamda ularning ehtiyojini qondirishga qaratilgan harakatlar"[4] ekanligini ta'kidlashadi.

Bozorga yo'naltirilgan strategiyaga asosan korxonaning asosiy e'tibori o'zining asosiy imkoniyatidan kelib chiqqan holda potensial xaridorlar talabini qondirish orqali qiymatni o'stirishga qaratilishi lozim. Korxonalarining asosiy imkoniyati – bu, korxonalar o'z faoliyatida qo'llaydigan va faoliyat samaradorligiga erishish imkoniyatini beruvchi bilim va ko'nikmalar yig'indisidan iborat bo'ladi[5].

Korxonalar o'rtasida raqobatning yangi shakllarini yuzaga kelishi bozorga moslashish, unda faoliyat yuritish va innovatsion marketing strategiyalaridan samarali foydalanish dolzarbligini oshiradi. Bu borada innovatsion yondashuv korxonalar uchun strategik raqobatni ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Avtomobil sanoat korxonalarining ichki va tashqi bozorlarda barqaror faoliyat yuritishini ta'minlovchi marketing strategiyasini shakllantirish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda bu boradagi konseptual asoslarni ilmiy tadqiq etish dolzarb yo'nalish sifatida yuzaga chiqmoqda.

Aghion, Bloom, Blundell, Griffith va Howittlarning nazariyalarida[6] tovarlar bozoridagi raqobat va innovatsiyalar o'rtasidagi munosabatlar o'rganilgan bo'lib, ularning o'zaro munosabatlari bir-birini to'ldiruvchi (U-shape) aloqaga ega ekanligi bo'yicha natijalar olingan.

Korxonaning marketing strategiyasi o'zida funksional strategiyalar, strategik vazifalar yig'indisini, marketing faoliyatni boshqarish maqsadlarini va samaradorlik ko'rsatkichlarini hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda maqsad va vazifalarga erishish yo'llarini aks ettiradi. Funksional strategiyalar esa ayrim yo'nalishdagi (ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlar, ishlab chiqarish, marketing, moliya, inson resurslari, axborot tizimlari va h.k.) korxonalar faoliyat rejasini o'z ichiga oladi. Funksional strategiyalar korxonalar strategiyasiga qo'shimchalar kiritadi va qanday funksional chora-tadbirlar qo'llanilishi lozimligini ko'rsatadi[7]. Umuman olganda,

korxonalarda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish nafaqat uning raqobatda ustunligi, balki mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashning asosiy harakat usullari sifatida qayd etish mumkin.

Ilmiy tadqiqot ishimizni yoritishda taqqoslash, tahlil va sintez, iqtisodiy tahlil, iqtisodiy matematik ucullapdan foydalanildi. Tahlillar davomida mamlakatimizda elektron tijoratning juda orqadaligi, sohani rivojlantirish mobaynida yetarlicha investitsiya kiritilmaganligi va sohaga oid boshqa bir qator muammolar aniqlandi. Ma'lumotlarda ekonometrik tahlil usulidan foydalanib, elektron tijoratning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni tahlil qilindi va kengroq qilib yoritib berishga harakat qilindi. Natijada muammolar aniqlanib, muammolarga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi va mushohada qilish asosida ilmiy xulosalarga kelindi. Tadqiqot obyekti sifatida elektron tijorat internet sahifalari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunga kelib O'zbekistonda davlat organlari elektron tijoratni rivojlantirishda dunyo tajribasida keng qo'llanilgan quyidagi tamoyillarga amal qilmoqda [5]:

- elektron tijoratni rivojlantirishda korporativ sektor faol rol o'ynashi lozim;
- elektron tijoratga nisbatan davlat organlari tomonidan asoslanmagan turli cheklovlar qo'yilishiga yo'l qo'yimaslik lozim;
- davlat hokimiyati elektron tijorat jarayoniga, ushbu soha subyektlarini qo'llab-quvvatlash va huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida aralashishi mumkin;
- elektron tijoratni boshqarish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda davlat hokimiyati internetning o'ziga xosliklarini inobatga olishi lozim;

- elektron tijorat jarayoni ma'muriy hududiy bo'linish va davlat chegaralariga bog'liq bo'lmagan ravishda global ko'lamda sodir bo'lishi mumkin. Internetning jadal rivojlanishi va abonentlari sonining keskin o'sishi an'anaviy bozorlarni onlayn tijorat yoki elektron tijorat deb ataladigan noan'anaviy bozorga o'zgartirmoqda. Hozirda iste'molchilar va tadbirkorlar uchun barcha segmentdagi mahsulot va xizmatlarni qamrab oladigan jahon elektron tijorat bozorlarida arzon va qulay usulda sotib olish va sotish imkoniyati paydo bo'ldi. Statista GmbH kompaniyasining internetdagi nashriga ko'ra, elektron chakana savdo hajmi 2017-yildagi 2,3 trillion AQSH dollaridan 2021-yilda 4,48 trillion AQSH dollariga ko'tarilgan [6].

2021-yilda Business.com Media, Inc. kompaniyasi esa dunyoning 10 ta eng yirik elektron tijorat bozorlarini aniqladi va ularning yillik onlayn savdo hajmi quyidagi raqamlarni tashkil etdi: Xitoy – 672 milliard, AQSH – 340 milliard, Buyuk Britaniya – 99 milliard, Yaponiya – 79 milliard, Germaniya – 73 milliard, Fransiya – 43 milliard, Janubiy Koreya – 37 milliard, Kanada – 30 milliard, Rossiya – 20 milliard, Braziliya – 19 milliard AQSH dollari. The 2022 Global Retail E-Commerce Index ma'lumotiga ko'ra, 2022-yili AQSH, Xitoy, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya jahon reytingida kuchli beshlikdan joy olgan. Bugungi kunda O'zbekistonda jami internetdan foydalanuvchilar va mobil aloqa abonentlari soni ko'pligi mamlakatimizda elektron tijoratni faol rivojlantirish uchun katta turtki bo'ladi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasida elektron tijoratni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, elektron tijoratni yanada rivojlantirish, raqobatga bo'lgan muhitni kengaytirish hamda elektron tijorat sohasida yangi infratuzilma paydo bo'lishining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Elektron tijoratning rivojlanishiga xalaqit beradigan muhim omillardan biri elektron tijoratning barcha sohalarida axborot, reklama, marketing va tahliliy savdo, shuningdek, iste'molchilarni himoya qilish va axborotni himoya qilish xizmatlarini taqdim etadigan yagona ishonchli axborot resursining yo'qligidir. Elektron tijoratni rivojlantirishda eng muhim to'siq virtual muhitda bezovtalik bilan o'g'irlik va firibgarlik tahdidini keltirib chiqaradigan tarmoqdagi xavfsizlikning past darajasi, elektron tijorat xizmatlaridan foydalanuvchilar o'rtasida ishonchsizlikdir. So'nggi paytlarda mutaxassislarining diqqat-e'tiborlari elektron biznesning turli xil quyi tizimlarini o'rganishga qaratilmoqda. Biroq mahalliy va xorijiy adabiyotlarda elektron tijoratning rivojlanish darajasini o'lchashning yagona metodologiyasi mavjud emas. Elektron tijorat holatini tahlil qilish va baholash muammolari elektron tijoratning erishilgan rivojlanish darajasini o'lchash usullarini tanlash bilan bog'liq: virtual savdoning rivojlanish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar; ko'rsatkich kartalari tizimlari; ularni miqdoriy ifodalash va o'zaro muvofiqlashtirish usullari; baholash mezonlarini aniqlash [7].

Tadqiqotda elektron tijoratni rivojlantirish ko'rsatkichlari ro'yxati aniqlandi. Ekonometrik tenglamalar yordamida elektron tijoratning rivojlanish dinamikasini bashorat qilish usullaridan biri ishlab chiqilgan. Ekonometrik tenglamalar o'zaro bog'liq tenglamalar tizimiga birlashtirilgan. O'zaro bog'liq tenglamalar tizimi

regressiya tenglamalaridan iborat bo'lib, ularning har birida argumentlar nafaqat izohlovchi (mustaqil yoki ekzogen) o'zgaruvchilar, balki boshqa tenglamalardan tushunarli (qaram yoki endogen) o'zgaruvchilardan iborat. Shunday qilib, tizimda bir xil o'zgaruvchilar bir vaqtning o'zida ba'zi tenglamalarga bog'liq, boshqalarida mustaqil bo'lgan, deb hisoblanadi. Elektron tijoratni rivojlantirishni o'rganish natijasida aloqa sohasining manbalari quyidagilardan iboratligi aniqlandi[7]:

- Internet tarmog'idan foydalanuvchilar sonini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- xalqaro axborot tarmoqlariga ulanish tezligi;
- operatorlar va provayderlar soni;
- domenlar soni elektron tijoratning texnik va texnologik tarkibiy qismidir.

Elektron tijoratni rivojlantirishning iqtisodiy tarkibiy qismlari aniqlandi:

- aloqa xizmatlaridan aholi daromadlari;
- AKT sohasiga investitsiyalar hajmi;
- tijorat banklari tomonidan chiqarilgan plastik kartochkalar soni;
- plastik kartalar bilan to'lovlarni qabul qilish uchun terminallar soni.

Elektron tranzaksiyalar xavfsizligi .uz domeni zonasida mavjud bo'lgan tahdidlar soni bilan aniqlandi. Yalpi ichki mahsulotda savdo ulushi elektron tijorat rivojlanishining mamlakat yalpi ichki mahsulotiga ta'sirini belgilovchi ko'rsatkich sifatida qabul qilindi. Shunday qilib, respublikada elektron tijorat rivojlanishining miqdoriy xususiyatlari bo'lgan asosiy ko'rsatkichlar aniqlandi. Umuman olganda, ko'rsatkichlar ijobiy tendensiya – o'sish va elektron tijoratning jadal rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, .uz domen zonasida faol tahdidlar ko'rib chiqilayotgan davrda 2,5 baravarga ko'paydi. Bu shuni ko'rsatadiki, elektron tijoratning o'sishi bilan bir qatorda virtual muhitda tahdidlar darajasi ortib bormoqda. Elektron tijoratning rivojlanish darajasi va dinamikasini belgilovchi omillar aniqlandi: tarmoqning texnik jihozlanishi darajasi, AKT sohasiga kiritilgan sarmoyalar, Internetdan foydalanuvchilar soni, shuningdek, .uz domen zonasidagi faol tahdidlar soni. Chiziqli regressiya modellari (tenglamalar) ko'rilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni jadallashtirish elektron tijoratning rivojlanishida eng katta asosdir, buning uchun esa quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: – AKTning rivojlanishi va uning YAIMdagi hissasining oshishi unga muvofiq keladigan raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi darajasini belgilaydigan ko'rsatkichlardan biri bo'lgan Internet tezligi, unga kirish qulayligi va albatta, uning bahosini arzonlashtirish lozim; – AKT tarmoqlariga investitsiya oqimini kuchaytirish lozim. Bu nafaqat innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish orqali mamlakat iqtisodiy salohiyatining rivojlanishiga olib keladi, balki mehnat unumdorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, yangi faoliyat turlarining paydo bo'lishiga olib keladi, shu bilan birga, aholi yashash sifatini oshiradi; – raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini

yaratishda davlatning oʻrni va roli oshib borishi lozim; – elektron tijoratni rivojlantirishga eʼtiborni kuchaytirish lozim. Bu tizim pandemiya sharoitida oʻzining samaradorligini koʻrsatdi. Ammo hali elektron tijorat subyektlari milliy reestrda roʻyxatdan oʻtgan subyektlar soni juda ham kam, demak, bu sohani ham ochiqlash siyosatini chuqurlashtirish kerak boʻladi; – raqamli texnologiyalarga asoslangan “Ecommerce” dasturini takomillashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Ш.М.Мирзиёевнинг 2023 йилги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // Халқ сўзи. 2023 йил, 14-сон.
2. Болтабоева Г.Р. Ўзбекистонда рақамли иқтисодиёт ва электрон тижоратни ривожлантиришнинг институционал муҳитини шакллантириш. – Т. – 158 б.
3. https://www.eeas.europa.eu/eeas/eastern-europe_en
4. Mukhitdinov Kh. S., Nazarova G. U. Forecasting family household through trend modeling// Journal of northeastern university. issn: 1005-3026.- P. 1074-1083.
5. Zdzisław Kulczyk “Factors of Development of International e-Commerce in the Context of Globalization” <https://ceur-ws.org/Vol2422/paper28.pdf>
6. <https://www.xabar.uz/tehnologiya/ekspert-ananaviy-bozor-elektron>
7. Электронная коммерция. Учебное пособие. // Кобелев О.А.; Под ред. Пирогов С.В. 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Дашков и К, 2017. – 684 с. 60x84 1/16 ISBN 978-5-394-01738-4 - Режим доступа: <http://znanium.com/catalog/product/340852>
8. Норқобилова Ф. А. "Хизмат кўрсатиш тармоқларини моделлаштиришда тизимли таҳлил қилиш, синтезлаш ва оптималлаштириш." International journal of conference series on education and social sciences (Online). Vol. 1. No. 2. 2021
9. Қодиров Ф. Э., Ж. Э. Нематов. "Развитие локальной сети на основе технологии груп." Инновации в технологиях и образовании. 2019.

ELEKTRON SAVDO KOMPANIYASINI BAHOLASH: MINTAQAVIY XUSUSIYATLAR

A'zamov Muzaffar Ruxolayevich
O'zbekiston elektron tijorat
uyushmasi rahbari
elcom.uzb@gmail.com
Karimova Shirin Zoxid qizi.
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti tadqiqotchisi.
Gafurova.sladkaya.1996@mail.ru

Annotatsiya. Elektron tijorat bozoridagi operatsiyalarni to'g'ri yakunlash, shuningdek, kompaniyaning keyingi o'sish strategiyasini tanlash uchun elektron tijorat kompaniyalarining bozor qiymatini to'g'ri aniqlash kerak. Bozor qiymatiga kompaniyaning joylashuvi va mintaqaviy mavjudligi kabi omillar ta'sir qiladi. Ushbu maqolaning maqsadi elektron tijorat kompaniyalarining bozor qiymatini aniqlashda mintaqaviy o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish imkoniyatlarini o'rganishdir. Maqolada O'zbekistonning elektron tijorat bozori ko'rsatkichlari va uning rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Maqolada, shuningdek, elektron tijoratda kompaniyani baholashning mavjud yondashuvlari, shuningdek, mavjud risklarni baholash usullari haqida umumiy ma'lumot mavjud.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, ochiq-potensial mijoz, kompaniyani baholash, elektron tijorat xatarlari, pul oqimlari prognozi, raqamli kompaniyani baholash

Аннотация. Необходимо правильно определить рыночную стоимость компаний электронной коммерции, чтобы правильно осуществлять операции на рынке электронной коммерции, а также выбрать следующую стратегию роста компании. На рыночную стоимость влияют такие факторы, как местоположение компании и региональное присутствие. Целью данной статьи является исследование возможностей учета региональных особенностей при определении рыночной стоимости компаний электронной коммерции. В статье описаны показатели рынка электронной коммерции Узбекистана и тенденции его развития. Также в статье представлен обзор существующих подходов к оценке компаний в сфере электронной коммерции, а также существующих методов оценки рисков.

Ключевые слова: электронная коммерция, оценка компании-клиента с открытым потенциалом, риски электронной коммерции, прогнозирование денежных потоков, оценка цифровой компании.

Abstract. It is necessary to correctly determine the market value of e-commerce companies in order to correctly complete operations in the e-commerce market, as well as to choose the next growth strategy of the company. Market value is influenced by factors such as the company's location and regional presence. The purpose of this article is to study the possibilities of taking into account regional characteristics in determining the market value of e-commerce companies. The article describes the indicators of Uzbekistan's e-commerce market and its development trends. The article also provides an overview of existing approaches to company valuation in e-commerce, as well as existing risk assessment methods.

Keywords: e-commerce, open-potential customer company valuation, e-commerce risks, cash flow forecasting, digital company valuation

KIRISH

O'zbekiston elektron tijorat bozori uchun quyidagi o'sish omillari aniqlandi: tarmoqlarning "yon ta'siri", turli Internet-savdo komponentlarini to'ldirish va past operatsion xarajatlar. Binobarin, e-tijoratda kompaniyani baholashning asosiy jihatlari mintaqalar bo'yicha aniqlangan va segmentlangan holda baholanayotgan kompaniyalarning umumiy qiymatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillarga aylantirilmoqda. Bunday ta'sir omillariga mintaqadagi potensial mijozlar soni, mintaqadagi chakana savdo aylanmasi tendensiyalarining o'zgarishi va mintaqa aholisi soniga qarab elektron tijorat bozoridagi ulush kiradi.

"Elektron tijorat" - bu mashhur atama bo'lib tadbirkorlik faoliyatining turli sohalarida zamonaviy bozorning dinamik rivojlanayotgan segmentlari bo'lgan, moliya, telekommunikatsiya kompaniyalari va IT biznesini to'liq yoki individual ravishda qo'llashdir. Ba'zi korxonalar faqat elektron tijorat bilan shug'ullanadilar, boshqalari esa asosiy ishlab chiqarish hajmining o'sishi davrida elektron tijoratni rivojlantirmoqda. Turli tadqiqotchilarning natijalariga ko'ra, turli darajadagi va o'lchamdagi korxonalarining 65 foizi o'zlarining elektron savdo do'konlariga ega, shu bilan birga ularning yarmidan ko'pi internet pro-so'nggi ikki yil ichida sotish bilan faoliyat yurityapti. Elektron biznesni yuritish nafaqat butun korxonada imijiga foyda keltiradi, balki ochiq-potensial mijozlar doirasini kengaytiradi. Elektron tijoratga o'tish raqobatchilarning o'sish sur'ati bilan belgilanadi va xalqaro darajaga chiqayotganda, korxonalar elektron tijorat bilan shug'ullanishi kerak. Bugungi kunda aksariyat korxonalarining mijozlari ularni "tezroq", "yaxshiroq", "arzonroq" bo'lishlarini talab qiladilar. Mijozlar bazasini, mahsulot assortimentini va xizmat ko'rsatish geografiasini kengaytirish uchun platforma sifatida internet maydoni optimal variant hisoblanadi. Elektron tijorat juda keng tarmoqli kontsepsiya, lekin tovar va xizmatlarni masofadan telekommunikatsiya tarmoqlari (Internet) orqali sotib olish jarayonidir.

METODOLOGIYA

Prognozlash ilmiy usullar yordamida kelajakni bashorat qilishni anglatadi. Prognozlash jarayoni –bu jarayonning rivojlanishining aniq istiqbollari maxsus ilmiy o‘rganish holatidir. Dj.Boks [1] ishiga ko‘ra, istiqbollarni bashorat qilish kerak bo‘lgan jarayonlar ko‘pincha vaqtli qatorlar, ya'ni vaqtning ma'lum nuqtalarida olingan ma'lum miqdorlarning qiymatlari ketma-ketligi bilan tavsiflanadi. Vaqtli qator ikkita zarur elementni o‘z ichiga oladi -vaqt tamg‘asi va u yoki bu tarzda olingan va belgilangan vaqt markasiga mos keladigan qator ko‘rsatkichining qiymati. Har bir vaqtli qator ko‘plab omillar ta'sirida stoxastik jarayon tomonidan yaratilgan cheksiz populyatsiyadan namunaviy realizatsiya sifatida ko‘rib chiqiladi [1].Yo‘llardagi transport oqimining tezligi, shuningdek, elektr energiyasi iste'moli, havo harorati kabi ko‘plab jismoniy jarayonlar uzoq xotiraga ega bo‘lgan vaqtli qatorga tegishlidir. Ushbu maqolani yozish jarayonida mantiqiy, qiyosiy, iqtisodiy va matematik tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Elektron tijorat xavfsizligiga ko‘plab tahdidlar mavjud. Ularni kamaytirish uchun mutlaq maxfiylikni kafolatlaydigan mexanizmlar va vositalarni yaratish kerak. Elektron tijoratning asosini axborot texnologiyalari mahsulotlari tashkil qiladi va elektron savdoning eng yaxshi tarzda ishlashi uchun qonun hujjatlariga kiritilgan o‘zgartirishlar, xususan, to‘lov usullari va usullarini tartibga solish, shuningdek, o‘tkazish paytida xaridor ma'lumotlarini himoya qilish va zarur hujjatlar bilan bitimni ro‘yxatdan o‘tkazish kabi jarayonlarni amalga oshirish lozim. Elektron tijorat ustidan zarur nazorat darajasini ishlab chiqish va yaratish pirovardida firibgar odamlarning bozordan chiqib ketishiga yordam berishi kerak.

O‘yinchilar va bu, o‘z navbatida, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatining umumiy darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Elektron to‘lovlar va xizmat ko‘rsatish tizimi ularni yaratuvchisi rivojlanish bosqichida va maxsus normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlashn hozirgi vaqtda elektron tijorat kompaniyalarning tubdan yangi bozorlarga kirishiga yordam beradi, shuningdek, ularga mavjud elektron tijorat bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalarning qiymatini to‘g‘ri baholash imkoniyatini yaratadi. Yuqoridagilar tanlangan mavzuni belgilaydi va ushbu maqolaning maqsadi kompaniyalar joylashgan hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda elektron tijoratni amalga oshiruvchi kompaniya qiymatini baholash jarayonlarining asosiy tamoyillarini qo‘shimcha tartibga solishga jiddiy ehtiyoj borligini o‘rganishdir.

Mamlakatimizda elektron tijoratga ta’sir etuvchi ba’zi omillar oldindan elektron tijoratning to‘liq salohiyatiga to‘sqinlik qiladi, ammo bu qiyinchiliklar elektron tijorat bozorining katta ahamiyatga ega ekanligini inkor etmaydi. O‘zbekiston tashqi bozorlar bilan taqqoslaganda, u kelajakdagi rivojlanish uchun katta zaxiralarga ega mamlakatdir. Elektron tijorat tadbirkorning faoliyatini istalgan vaqtda amalga oshirish imkonini beradi, ya’ni vaqt, kunduz va tunni ajratmasdan, shuningdek, ichida

bayramlar va dam olish kunlarisiz. Bunday universal mavjudlik sotishni ko‘paytirishga imkon beradi va shunga ko‘ra foyda ham miqdoriy jihatdan oshishiga xizmat qiladi. Elektron savdo do‘konlari orqali xarid qilish ko‘p hollarda iste‘molchining vaqtini sezilarli darajada tejaydi va muhokamalarga kirish imkonini beradi. Sotuvchi uchun afzalliklar quyidagilardir: inventarni saqlash va u bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish. Bundan tashqari, sotib olish jarayonini avtomatlashtirish tufayli xodimlarni saqlash xarajatlari kamayadi. Shuningdek, u mijozlarga yanada samarali xizmat ko‘rsatishga yordam beradi va statistik ma‘lumotlarni to‘plash imkonini beradigan reklama strategiyalarini yaratishga yordam beradi. Ko‘p sonli afzalliklarga qaramay, elektron tijoratning kamchiliklari ham mavjud. Aniq kamchiliklarga texnologik cheklovlar kiradi. Ma‘lum bir raqam yoki alohida toifalar odamlar internetdan foydalanmaydi. Ko‘pchilik bilmaydi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish uchun ushbu tizimga ishonib, ular shaxsni oshkor qilish haqidagi ma‘lumotlardan qo‘rqishadi. Bundan tashqari, elektron savdo do‘kon ham tovarlarning ayrim toifalarida savdo qilish uchun mos emas.

Elektron bozorni rivojlantirish muammolari quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

1) O‘zbekiston elektron tijorat bozori voqeligiga yetarlicha moslashmagan holda g‘oyalarni uzatish.

2) Cheklangan odamlar doirasi. Internetning rivojlanish dinamikasi ijobiy bo‘lib qolmoqda (hududlar bo‘yicha va foydalanuvchi yoshi).

3) Moliyaviy operatsiyalar va uzatiladigan maxfiy ma‘lumotlarning xavfsizligi, shuningdek, ko‘rsatiladigan xizmatlarning ko‘pincha past sifati (cheklangan miqdordagi savdoga xosdir).


O‘zbekiston elektron tijorat bozori uchun quyidagi asosiy o‘sish omillarini aniqlash mumkin.

1) Elektron ba‘zi avtomatik komponentlarning narxi ular bilan bog‘liq komponentlarni oshiradi, masalan, qulaylik uchun platformalar va ilovalar savdoni amalga oshirish);

2) Tranzaksiya xarajatlarining pastligi.

Elektron tijorat xavfi - bu elektron tijorat orqali tijorat harakatlarining shartlari va natijalarining ma‘lum kombinatsiyasi bilan mavjud imkoniyatini yo‘qotishdir. Tashqi tomonga xavflar orasida viruslar va zararli dasturlar, firibgarlikning turli shakllari va kiberoxavfsizlikning buzilishi, spam va huquqlardan noqonuniy foydalanish bilan bog‘liq har qanday tahdidlardir. Mahalliy xavflar, birinchi navbatda, tahdidlar bilan ifodalanadi. Elektron tijorat tizimlarining axborot xavfsizligiga bog‘liq: Bunga ma‘lumotlarni o‘g‘irlash, sabotaj, salbiy moliyaviy natijaga olib keladigan xodimlarning har qanday ehtiyotsiz harakatlar kiradi. Keyingi yillarda 25-35% ga o‘sishi kutilmoqda. Garchi oldingi davr bilan solishtirganda o‘sish ko‘p jihatdan inflyatsiya narxlarining o‘sishi bilan bog‘liqdir. Elektron tijorat hozirgi vaqtda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda savdo hajmini oshirishning asosiy omili

hisoblanadi. Rahbarlarga rivojlangan elektron tijorat bozorlariga ega mamlakatlar tahlilchilar orasida Buyuk Britaniya va AQSh bor. O‘zbekiston elektron tijorat bozori ham faol o‘shish bosqichida. Elektron savdo korxonalarini ma'lumotlariga ko‘ra, 2022 yilda O‘zbekiston elektron tijorat bozorining hajmi 12123,7 mln so‘mni tashkil etdi. Har qanday biznesning qiymatini baholashda iloji boricha haqiqatga yaqin bo‘lgan prognozga alohida e'tibor berilishi kerak. Daromadlarni prognozlashning ko‘pgina klassik usullari aniqlashga asoslangan ma'lumotlarga o‘rtacha savdo o‘shish sur‘atlarini moliyaviy hisobotlardan foydalanadi. Prognozni tuzish jarayonida ma'lumotlar barcha omillarni hisobga olgan holda qabul qilinadi. Eng ishonchli prognoz uchun biz kompaniya xususiyatlari mintaqaviylarni hisobga olishni taklif qilamiz. Fratelli Casa uchun prognozli daromad qiymatlarini hisoblaylik. Prognoz yaratish uchun amalda daromad olishning quyidagi usullari qo‘llaniladi: tashqi va ichki prognozlarga asoslangan kompaniya o‘shishi omillari. Ikki usuldan daromadni prognozlash dinamik tufayli birinchisiga asoslangan va bozorning tez o‘zgaruvchanligi to‘liq qabul qilinadigan yondashuv bo‘lib tuyulmaydi. Bizning fikrimizcha, o‘shish omillariga asoslangan prognozlash usuli yanada dolzarbdir. Kelgusi davrlardagi daromadlarni keyingi baholash uchun biz quyidagi uchta omildan foydalanamiz: davomat; xaridorlarning foizi tashrif buyuruvchilarning umumiy soni; o‘rtacha buyurtma hajmi (bir foydalanuvchi uchun daromad miqdori). Tanlangan omillarga asoslanib daromad olish uchun, biz prognoz tuzamiz. Birinchi biz online do‘konga tashriflar sonini tahmin qilamiz.



1-rasm. 06.01.2014 dan 05.01.2018 gacha "Fratelli Casa" onlayn-do‘konining foydalanuvchilari sonidagi o‘zgarishlar grafiklari, chiziqli va polinomli tendentsiya¹

Keyin, olingan ma'lumotlarga asoslanib, biz mavsumiylik koeffitsiyentlariga moslashtirilgan 4 yil (2019–2022) uchun prognozni tuzamiz. (masalan, 1-rasmda

¹ Muallif tomonidan tizimdagi "Fratelli Casa" veb-saytiga trafik bo'yicha hisobotlar asosida tuzilgan Google.Analytics [URL: <https://analytics.google.com/analytics/web>]

o‘shish cho‘qqilari vizual tarzda ko‘rinadi, bu tashrif buyuruvchilar orasida qiziqishning ortishidan dalolat beradi).

Elektron kompaniyalarni baholash xususiyatlari mintaqaviy kontekstdagi . baholanayotgan kompaniyalarning umumiy qiymatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillarni hisobga olgan holda savdoga tushadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

1) Mintaqa miqyosidagi maqsadli xaridorlar soni aholi soning o‘zgarishlar dinamikasi va eng mos deb topilgan yosh demografisi bo‘yicha internet orqali xaridlarni amalga oshirganlarni nazarda tutish va ularni aniqlash tavsiya etiladi.

2) Chakana tovar aylanmasining o‘zgarishlar dinamikasini istiqbolini aniqlashda axoli daromadlarining o‘zgarishi, chakana savdo aylanmasi xajmi va tovar aylanmasining oshishi orqali aniqlash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abraxmanova GI, Gokhberg LM, Demyanenko AV, 2018 yil.
2. Kratkiy statisticheskiy sbornik "Tsifrovaya ekonomika» [Raqamli iqtisodiyot. Qisqacha statistik ma'lumot To'plam]. Moskva, Milliy issledovatel'skiy "Vysshaya shkola ekonomiki" universiteti. 96 b.
3. Avdeev S., Kozlov N., Rutgayzer V., 2012. Otsenka rynochnoy stoimosti klientel'ny nematerial'nogo aktiva kompanii [Bozor qiymatini baholash
4. "Clientella" ko‘rinmas aktiviga ega kompaniya uchun]. Moskva, KnoRus nashriyoti. 80 p. Biznes nashriyoti. 1008 b.
5. Bugorskiy VN, 2012. Setevaya ekonomika [Tarmoqli Iqtisodiyot]. Moskva, Moliya va statistika nashriyoti. 256 b.
6. Kazakova KV, Pushilin DV, 2016. Perspektivy razvitiya internet-torgovli [Onlayn uchun rivojlanish istiqbollari

ERKIN IQTISODIY ZONALARNING HUDUDLARNI BARQAROR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH

Tursunov Kobul Beknazarovich

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining
Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari
qo'mitasi raisi o'rinbosari, i.f.f.d.(PhD),

Rajabov Nazirjon Razzoqovich

TDIU, i.f.f.d.(PhD), n.rajabov@tsue.uz

Bozorov Behzod Ma'murjonovich

TDIU tadqiqotchisi, b.bozorov@tsue.uz

Xasanova Nasiba Nazar qizi

TDIU tadqiqotchisi, n.xasanova@tsue.uz

Annotatsiya. Maqolada erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish har qanday mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar, yuqori malakali ishchi kuchi jalb qilishni va istiqbolli infratuzilma loyihalarini amalga oshirish orqali hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erkin iqtisodiy zonalarning ta'sirini baholashning mutlaq va nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlari tahliliga asoslangan baholash uslubiyati taklif etilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, hudud, erkin iqtisodiy zona, investitsiya, samaradorlik, mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar, baholash uslubi.

Аннотация. В статье описано влияние на устойчивое социально-экономическое развитие регионов создание свободных экономических зон за счет привлечения иностранных инвестиций, высококвалифицированной рабочей силы и перспективных инфраструктурных проектов в экономику региона. Предложена методика оценки, основанная на анализе абсолютных и относительных количественных показателей влияния свободных экономических зон на устойчивое социально-экономическое развитие регионов.

Ключевые слова: устойчивое развитие, территория, свободная экономическая зона, инвестиции, эффективность, абсолютные и относительные показатели, метод оценки.

Abstract. The article describes the impact on the sustainable socio-economic development of regions by the creation of free economic zones by attracting foreign investment, highly qualified labor and promising infrastructure projects in the regional economy. An assessment methodology is proposed, based on the analysis of absolute and relative quantitative indicators of the impact of free economic zones on the sustainable socio-economic development of regions.

Key words: sustainable development, territory, free economic zone, investment, efficiency, absolute and relative indicators, assessment method.

KIRISH

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va milliy barqaror rivojlanish maqsadlari[1] ni amalga oshirishda milliy barqaror rivojlanish maqsadlarida nazarda tutilgan ko'rsatkichlarning sifatli bajarilishi, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish dolzarb masaladir. Shuningdek, "O'zbekiston — 2030"[2] strategiyasida belgilangan asosiy g'oyalar: barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash kabilarni amalga oshirish hozirgi kunning bosh masalasidir.

Mamlakatimizda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda hudud investitsion salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsion muhit jozibadorligini boshqarish va maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish har qanday mamlakat iqtisodiyotiga yuqori malakali ishchi kuchi jalb qilishni va istiqbolli infratuzilma loyihalarini amalga oshirish orqali hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi zamon ilmiy adabiyoti, me'yoriy hujjatlar, amaliyotda erkin iqtisodiy hududlarni ifodalovchi xilma-xil atamalar qo'llaniladi. Ular qatorida eng keng tarqalganlari: "Maxsus iqtisodiy hudud", "Erkin tadbirkorlik hududi", "Erkin iqtisodiy hudud", "Erkin bojxona hududi", "Erkin eksport hududi", "Texnologik hudud", "Erkin savdo hududi", "Bojsiz hudud", "Qo'shma tadbirkorlik hududi". Jahondagi erkin iqtisodiy zonalar shakli 1920-yilda 20 xilni tashkil etgan bo'lsa[3], 1990-yilda uning soni 30 xildan ziyod[4] shakli ilmiy manbalarda qayd etilgan. Tadqiqot doirasida iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish asosida erkin iqtisodiy hududlarni ta'riflovchi 40 dan ortiq atama borligi aniqlandi.

Erkin iqtisodiy hududlarning mazmunan mohiyatini ochib beruvchi terminologiya xilma xil bo'lib, ular quyidagi sabablarga bog'liq: - iqtisodiy zonalar evolyutsion tarzda rivojlanib, o'zgarib, takomillashib boradi; - iqtisodiy zonalarining taraqqiyoti u tashkil etilgan ichki va tashqi omillarga bog'liq; - erkin iqtisodiy zonalarining ilmiy nazariy jihatlarini tushunish va turkumlash bo'yicha turli mamlakatlar yondashuvlari turlicha.

Ye.Avdokushinning[5] tadqiqotlarida erkin iqtisodiy hududlar "Maxsus iqtisodiy hudud" sifatida talqin etilgan. Ularning yondashuvi bo'yicha bunday hududlar boshqa hududlarga nisbatan davlat aralashuvining kamayishi va iqtisodiy erkinligining ortishi

ekanligi asoslangan. Babinsev va Valliulinlar[6] tadqiqotlarida esa “Alohida iqtisodiy hudud” termini qo‘llanilgan. A.Shermuhammedov tomonidan “Ochiq iqtisodiy mintaqa” termini ishlatilgan [7]. Biroq ochiq so‘zining rus va boshqa tillardagi ma’nosi erkin iqtisodiy hududga mos emas va tor ma’no kasb etadi.

Jahon olimlarining e’tirofi bo‘yicha erkin iqtisodiy hududlarni ochiq hududlar sifatida ham qayd qilish holatlari mavjud. Erkin iqtisodiy hududning eng muhim belgilari to‘g‘risida ham bir qator ilmiy nazariy yondashuvlar mavjud. Rus olimi S.Ovchinnikova tomonidan “erkin tadbirkorlik hududi” terminini ilgari surgan[8], A.Leusskiy esa “O‘ziga xos bojxona tartibi o‘rnatilgan hudud” sifatida qayd etadi [9]. Tadqiqotchilar N.Smorodinskaya, V.Babinsev, X.Valliulinlar esa erkin iqtisodiy zonaning asosiy sharti imtiyozlarda ekanligini ta’kidlaydi[6]. Avdokushin tomonidan imtiyozli investitsiya muhiti shakllangan hudud sifatida qaraladi[5]. Yu.Komlev erkin iqtisodiy hududlarni muhim xususiyatidan biri sifatida ma’muriy javobgarliklar minimumga keltirilgan hudud deb qaraydi va zonalar faqat eksport faoliyatiga bog‘langanligini e’tirof etadi[10]. T.Danko va Z.Okurtlar asosiy belgilarni ajratishda kompleks yondashgan. Ular EIHni aniq bir yo‘nalishga moslashtirilgan, mamlakatda ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashtirilishi, EIHda yaratilgan yalpi mahsulotning ishlab chiqarilishi va taqsimlanishi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadilar[4].

EIHning eng muhim quyidagi 4 ta xususiyatini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- aniq bir hudud doirasida tashkil etilishi va egaligi;
- imtiyozlar tizimining mavjud bo‘lishi;
- o‘ziga xos bo‘lgan tariflar o‘rnatilishi;
- EIZ hududidagi investorlar faoliyatiga davlat organlarining aralashmasligi

va iqtisodiy erkinligi mavjudligi.

Jahon tajribasida to‘rtinchisi xususiyat juda muhim hisoblanadi. Busiz EIH maqomi ham sezilmaydi. Tadqiqotchilardan V.Ignatov va V.Bugovlar tomonidan “EIHning alohida imtiyozlar tizimiga ega ekanligiga katta e’tibor berishi lozimligi”[11] ta’kidlanadi. Ma’lumki, investorlar uchun imtiyozlar eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatning boshqa qismiga nisbatan ular harakatiga ko‘proq erkinlik berilmasa, investitsiyalarni keng jalb qilishga imkon bo‘lmaydi. EIHlarda ham investitsion muhit yuqori darajada kuch talab etadi. Biroq buning markazida erkinlikning xususiyati darajasi yotadi.

EIZlarni tashkil etishning asosiy **maqsadi** mamlakatdagi resurs imkoniyatlari mavjud, biroq yetarli darajada iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo‘lgan hudud yoki tarmoqlarning iqtisodiy o‘rnatilishini rag‘batlantirish, shuningdek, raqobat muhiti shakllanishiga ko‘maklashishdir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, bugun EIZlardan, nafaqat sarmoyalarni jalb qilish, balki hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlovchi vosita sifatida ham foydalaniladi[12].

Erkin iqtisodiy zonalar(EIZ) samaradorligini to‘liq holda qiymat ko‘rsatkichlari bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Chunki, ijobiy o‘zgarishlar nafaqat o‘sha hududda, balki qo‘shni hududlarda ham sodir bo‘ladi. Erkin iqtisodiy zonalar nafaqat o‘z maydoniga,

balki zona atrofidagi hududlarga kapital mablag'lar va xorijiy valyutalar oqimini oshirish yo'li bilan ijtimoiy-iqtisodiy samara keltiradi[13].

Erkin iqtisodiy zonalarining hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirni baholash bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish va kelgusi istiqbollari, ularning samaradorligi to'g'risida tahlillarni amalga oshirishda hamda erkin iqtisodiy zonalarining samaradorligini baholash uchun 5 ta asosiy ko'rsatkichlar guruhi Sh.Qoraboyev va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan[14]. Tadqiqotda EIZning iqtisodiy faoliyati samaradorligini aniqlash bo'yicha metodologiya taklif etilgan bo'lib, asosiy e'tibor loyihalarni bajarilishi va belgilab olingan rejalarni bajarish holatiga qarab baholangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amaldagi EIZ samaradorligini hududiy rivojlanishga ta'sirini baholash uchun miqdoriy ko'rsatkichlar 5 ta blokka ajratiladi:

1. EIZ faoliyatining mutlaq miqdoriy ko'rsatkichlari;
2. EIZ rezidentlari faoliyatini aks ettiruvchi nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar;
3. Transport-logistika, energetika, ijtimoiy-madaniy, ilmiy va boshqa hududiy infratuzilmani yaratishda barcha darajadagi byudjet xarajatlari samaradorligini miqdoriy baholash ko'rsatkichlari;
4. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga yoki u tashkil etilgan hududda EIZ faoliyatining hissasini aks ettiruvchi miqdoriy baholashning nisbiy ko'rsatkichlari;
5. EIZ direksiyalari yoki hududiy hokimlikning zonalarini rivojlantirish rejasiga muvofiq uni boshqarish va infratuzilma obyektlarini yaratish funksiyalarini bajarish samaradorligini aks ettiruvchi miqdoriy baholashning nisbiy ko'rsatkichlari

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini mutlaq miqdoriy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilgan holda a'zo yoki rezident sifatida ishtirok etuvchi korxonalar soni;
2. EIZda qatnashishdan chiqqan korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni;
3. EIZ ishtirokchilari tomonidan tashkil yetilgan yangi ish o'rinlari soni;
4. Imzolangan ishtirok shartnomalariga muvofiq reja-korxonalarining infratuzilma obyektlarini kapital qurish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi;
5. EIZda infratuzilma obyektlarini kapital qurilishiga rezidentlik maqomini yo'qotgan korxonalarining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari hajmi;
6. Tovarlarini va xizmatlarni sotishdan tushadigan yalpi tushumlar hajmi, soliqlarni olib tashlagan holda;
7. Barcha darajadagi byudjet tizimidan, shuningdek, EIZda infratuzilma obyektlarini kapital qurilishiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi (prognoz / fakt);
8. EIZ hududida infratuzilma obyektlarini kapital qurilishiga yo'naltirilgan byudjetdan tashqari manbalardan investitsiyalar hajmi va h.k.;

Yuqoridagilar bilan bir qatorda EIZ faoliyati samaradorligini baholashda zonalarining o'ziga xos jihataridan kelib chiqqan holda miqdoriy baholash mezonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Jami ishlab chiqarilgan mahsulotlarda eksportning ulushi;
2. EIZ hududida joylashgan korxonalarining umumiy tarkibida yuqori texnologiyalar sohasida faoliyat yuritadigan sanoat ishlab chiqarish korxonalarining ulushi;
3. EIZ hududida o'zlarining ishlab chiqarishlarini joylashtirgan korxonalarining umumiy tarkibidagi texnologik yangiliklarni amalga oshiradigan korxonalarining ulushi;
4. Hisobot davrida yuqori texnologiyali ish o'rinlarining ko'payishi va.h.k.

EIZ faoliyatining mahalliy va mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ta'sirini aks ettiruvchi miqdoriy baholashning nisbiy ko'rsatkichlari esa quyidagilar:

1. EIZ ishtirokchilari tomonidan tashkil etilgan yangi ish o'rinlari sonining iqtisodiy faol aholi soniga nisbati;
2. Tovar va xizmatlarni sotishdan tushadigan yalpi tushum hajmining soliqlarni olib tashlagan holda mintaqaning yalpi hududiy mahsuloti miqdoriga nisbati;
3. EIZ-rezidentlari tomonidan hududiy yoki respublika byudjetiga to'lanadigan soliqlar hajmining mintaqadagi barcha rezidentlari tomonidan to'lanadigan soliqlar hajmiga nisbati va.h.k.

EIZ samaradorligini baholash o'lchovlari bo'yicha har bir guruhi uchun mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarning rejalashtirilgan qiymatlariga erishishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

EIZning ishlash ko'rsatkichlarini baholash uchun besh balli o'lchov shkalasini qo'llash tavsiya etiladi. Yakuniy 5 ball ko'rsatkichlarning rejalashtirilgan ko'rsatkichlari 90% dan yuqori bo'lgan taqdirda beriladi. 4 ball rejalashtirilgan maqsadlarni 70% dan 90% gacha bajarganda, 3 ball — intervalda rejalashtirilgan maqsadlarni 50% dan 70% gacha bajarganda, 2 ball rejalashtirilgan maqsadlarni 35% dan 50% gacha bajarganda, 1 ball esa rejalashtirilgan maqsadlarni 35% gacha bajarganda belgilanadi. Erkin iqtisodiy zonaning samaradorligini baholash natijalari mahalliy hokimliklar uchun quyidagi muammolarni yechishga imkon beradi:

EIZ rezidenti maqomiga ega bo'lgan tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga soliq va bojxona imtiyozlarini berish maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilish;

hududiy sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini to'g'ri belgilash;
investitsiyalashga byudjetdan yo'naltiriladigan moliyaviy resurslarini samarali taqsimlashga;

ma'lum bir EIZ uchun infratuzilma obyektlarini yaratish uchun byudjetdan tashqari manbalardan qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilishga va h.k.

O'zbekistonda EIZ soni va faoliyat ko'lami kengayib borayotgan sharoitda yuqoridagi keltirilgan mezonlar bo'yicha baholash tartiblarini kiritilishi maqsadga

muvofiq. Ushbu maqsadlar uchun tavsiya etilgan mezonlarni hisobga olgan holda baholash usullarini ishlab chiqish lozim.

Yuqoridagi mezonlar bo'yicha EIZ faoliyati samaradorligini baholash integral ko'rsatkichlar asosida baholash Ye.Kryukova[15] tomonidan tavsiya etilgan quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$C_{ЭИЗ} = \sum_i^5 (k_i * \sum_j p_{ij} F_{ij}) \quad (1)$$

Bu yerda,

k_i - i – guruh ko'rsatkichi bo'yicha vazn koeffitsiyenti;

p_{ij} - j – mezon ko'rsatkichi bo'yicha har bir i – guruh ko'rsatkichlarining vazn koeffitsiyenti;

F_{ij} - i – guruhning j – mezon ko'rsatkichiga mos keluvchi indikator bahosi.

Taklif etilgan metodologik yondashuvga ko'ra tahlil o'tkazish uchun mutlaq (1-jadval) va nisbiy (2 va 3-jadvallar) ko'rsatkichlar bo'yicha formulalar kiritiladi. Taqdim etilgan ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi va EIZlar direksiyalari faoliyatida foydalaniladigan statistik ko'rsatkichlarga mosligini ham inobatga olinadi.

1-jadval

EIZlar faoliyatini aks ettiruvchi 1-guruh mutlaq miqdoriy ko'rsatkichlar

Miqdoriy ko'rsatkichlarning belgilanishi	Miqdoriy ko'rsatkichlar xususiyati
F1,1	EIZ rezidentlari soni, birlik
F1,2	EIZning jami maydoni, ga
F1,3	EIZda rezidentlar joylashgan umumiy maydon, ga
F1,4	Ish o'rinlari soni, shtat birlik
F1,5	Ishlovchilar soni, birlik
F1,6	Oliy ma'lumotga ega bo'lgan ishchilar soni, birlik
F1,7	Investitsiyalar hajmi, mln doll
F1,8	Xorijiy investitsiyalar hajmi, mln doll
F1,9	EIZda yaratilgan tovarlar, mahsulotlar, ishlar, xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlar hajmi, mlrd.so'm.
F1,10	Byudjetga to'lovlar hajmi, mlrd.so'm
F1,11	Byudjetdan tashqari moliyalashtirish manbalari miqdori mln.so'm. (Navoiy EIZ Direksiyasi AJ)
F1,12	Boj to'lovlari mlrd. so'mda (bojxonadan)
F1,13	Boj va soliqdan imtiyozlar hajmi mlrd. so'mda (bojxonadan)
F1,14	Yangi investitsion obyektlar soni
F1,15	Yangi investitsion obyektlari qiymati, mlrd. so'm
F1,16	Yangi investitsion obyektlari quvvati, mlrd. so'm
F1,17	EIZ rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan eksport, mlrd so'm

Miqdoriy ko'rsatkichlarning belgilanishi	Miqdoriy ko'rsatkichlar xususiyati
F1,18	EIZ rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan import, mlrd so'm
F1,19	Amalga oshirilgan innovatsiyalar soni
F1,20	Innovatsion mahsulotlar sotishdan tushgan tushum, mlrd.so'm
F1,21	Hududga tashrif buyurgan turistlar soni, birlik
F1,22	EIZga tashrif buyurgan turistlar soni, birlik
F1,23	Hududning turizm obyektlari quvvati, mlrd.so'm
F1,24	EIZdagi turistik obyektlar quvvati, mlrd so'm
F1,25	EIZda foydalanishga topshirilgan infratuzilma obyektlari soni
F1,26	EIZda o'z muddatida foydalanishga topshirilgan infratuzilma obyektlari soni

Iqtisodiy zonaning samaradorligini baholash uchun birinchi guruhni tashkil etuvchi barcha sanab o'tilgan mutlaq ko'rsatkichlarning joriy qiymatlari bazis yilning mos keladigan qiymatlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Birinchi guruh mutlaq miqdoriy ko'rsatkichlar asosida 3 yo'nalish bo'yicha EIZ faoliyati samaradorligining nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlari baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlari quyidagilar va indikatorlarni hisoblash mezonlari 2-jadvalda aks etgan:

2-jadval

EIZ faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar

Indikator (ko'rsatkich)ning nomi	Indikator (ko'rsatkich)ni hisoblash metodikasi	Hisoblash formulasi
2-guruh nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar (EIZ direksiyasining faoliyatini samaradorlik ko'rsatkichlari)		
EIZ maydonidan maqsadli foydalanish darajasi	EIZda rezidentlar joylashgan umumiy maydonning EIZning jami maydoniga nisbati asosida hisoblanadi	$F_{2,1} = \frac{F_{1,3}}{F_{1,2}}$
EIZga tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish darajasi	EIZda rezidentlar joylashgan umumiy o'rtacha maydonning EIZning jami maydoniga nisbati asosida hisoblanadi	$F_{2,2} = \frac{F_{1,3}}{F_{1,1}} / F_{1,2}$
EIZga yo'naltirilgan investitsiyalarning ish o'rinlarini yaratishdagi hissasi (100 ming dollar. investitsiyaga nisbatan)	Tahlil yilida EIZdagi jami shtat birliklarining jami investitsiyalarga nisbati asosida hisoblanadi	$F_{2,3} = \frac{F_{1,4}}{\frac{F_{1,7}}{100}}$
Oliy malakaga ega bo'lgan mutaxassislar salmog'i	Oliy ma'lumotga ega bo'lgan ishchilar sonini jami ishlovchilar sonida nisbati asosida hisoblanadi	$F_{2,4} = \frac{F_{1,6}}{F_{1,5}}$

Indikator (ko'rsatkich)ning nomi	Indikator (ko'rsatkich)ni hisoblash metodikasi	Hisoblash formulasi
Xorijiy investitsiyalar salmog'i	EIZga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalarning jami kiritilgan investitsiyalar miqdoriga nisbati asosida hisoblanadi	$F_{2,5} = \frac{F_{1,7}}{F_{1,8}}$
Yangi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi	Yangi investitsion obyektlari quvvatini yangi investitsion obyektlari qiymatiga nisbati asosida hisoblanadi	$F_{2,6} = \frac{F_{1,15}}{F_{1,16}}$
EIZ eksport samaradorligi	EIZ rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan eksportning jami ajratilgan tovarlar, mahsulotlar, ishlar, xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlar hajmiga nisbati asosida aniqlanadi	$F_{2,7} = \frac{F_{1,7}}{F_{1,9}}$
Jami tashqi savdo aylanmasida import hissasi	EIZ rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan importning jami tashqi savdo aylanasiga nisbati asosida aniqlanadi	$F_{2,8} = \frac{F_{1,18}}{F_{1,17} + F_{1,18}}$
EIZning innovatsion faoliyat samaradorligi	EIZda innovatsion mahsulotlar sotishdan tushgan tushumning jami yaratilgan tovarlar, mahsulotlar, ishlar, xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlar hajmiga nisbati asosida aniqlandi	$F_{2,9} = \frac{F_{1,20}}{F_{1,9}}$
EIZning innovatsion faollik samaradorligi	EIZda rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan innovatsiyalar sonining jami rezidentlar soniga nisbati asosida aniqlanadi.	$F_{2,10} = \frac{F_{1,19}}{F_{1,1}}$
3-guruh nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar (EIZlarning byudjet samaradorlik ko'rsatkichlari)		
EIZ rezidentlarining byudjetga to'lovlar salmog'i	EIZ rezidentlarining byudjetga to'lovlar miqdorining jami yaratilgan tovarlar, mahsulotlar, ishlar, xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlar hajmiga nisbati asosida aniqlandi	$F_{3,1} = \frac{F_{1,10}}{F_{1,9}}$
EIZ rezidentlarining boj to'lovlari salmog'i	EIZ rezidentlarining boj to'lovlar miqdorining jami yaratilgan tovarlar, mahsulotlar, ishlar, xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlar hajmiga nisbati asosida aniqlandi	$F_{3,2} = \frac{F_{1,12}}{F_{1,9}}$
4-guruh nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar (EIZlarning hududiy rivojlanish darajasiga ta'sirini baholash ko'rsatkichlari)		
EIZning hudud aholisini ish bilan band qilish darajasi	EIZda yaratilgan ish o'rinlari hududdagi umumiy mehnatga layoqatli aholi soniga nisbati asosida aniqlanadi	$F_{4,1} = \frac{F_{1,5}}{Q_1}$
EIZning hududiy rivojlanishdagi salmog'i	Hududning yalpi hududiy mahsulot umumiy hajmining EIZ rezidentlari tomonidan tovarlar va xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlarga nisbati asosida aniqlanadi	$F_{4,2} = \frac{F_{1,3}}{Q_2}$
EIZning byudjetga tushumlardagi salmog'i	EIZ rezidentlarining jami byudjet to'lovlari miqdorining hududdagi jami yuridik shaxslarning byudjet to'lovlari miqdoriga nisbati asosida aniqlanadi	$F_{4,3} = \frac{F_{1,10}}{Q_3}$

Indikator (ko'rsatkich)ning nomi	Indikator (ko'rsatkich)ni hisoblash metodikasi	Hisoblash formulasi
EIZning investitsion faoliyat samaradorligi	EIZga kiritilgan investitsiyalarning hududga kiritilgan jami investitsiyalarga nisbati asosida aniqlanadi	$F_{4,4} = \frac{F_{1,7}}{Q_4}$
EIZning turistik faollik samaradorligi	EIZga tashrif buyurgan turistlar sonini hududga tashrif buyurgan jami turistlar soniga nisbati asosida aniqlanadi	$F_{4,5} = \frac{F_{1,22}}{F_{1,21}}$
EIZning turistik faoliyat samaradorligi	EIZning turistik obyektlar quvvatini hududdagi jami turistik obyektlarning quvvatlariga nisbati asosida aniqlanadi	$F_{4,6} = \frac{F_{1,24}}{F_{1,23}}$

EIZ-si direksiyasi faoliyat samaradorligini aks ettiruvchi 2-guruh nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar;

EIZlarning viloyat byudjetiga ta'sirini baholash bo'yicha 3-guruh nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar;

EIZlarning hududiy rivojlanish darajasiga ta'sirini baholash bo'yicha 4-guruh nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar.

4-guruh nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar tizimini baholashda qo'yidagi qo'shimcha indikatorlar tizimi kiritiladi:

EIZ joylashgan hududning mehnatga layoqatli aholi soni;

Hududning YAXM hajmi;

Hududning jami soliq tushumlari miqdori;

Hududga kiritilgan investitsiyalar hajmi;

EIZlarning turi bilan bog'liq bo'lgan integral ko'rsatkichdan foydalanishning o'zgaruvchanligi faqat ikkinchi guruh ko'rsatkichlariga taalluqlidir. Shu bilan birga, EIZ faoliyatining ko'rib chiqilayotgan ko'rsatkichlarini rasmiylashtirishning noaniqligi uchun klassifikatorga muvofiq ham amalga oshirilishi mumkin.

Integral ko'rsatkichni ifodalashda keltirilgan vazn koeffitsiyentlarini hisoblash amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz. Vazn koeffitsiyentlari tanlangan mezonlar bo'yicha i – guruhning j – mezon ko'rsatkichiga mos keluvchi har bir indikatorga nisbatan taalluqli bo'lishi va k_i - i – guruh ko'rsatkichi bo'yicha vazn koeffitsiyenti har bir guruh bo'yicha aniqlanadigan ko'rsatkichlar orqali topiladi:

$$k_i = iF_j^2 + iF_j^3 + iF_j^4 = 10 + 2 + 6 = 18;$$

$$k_j^2 = \frac{10}{18} = 0,55; k_j^3 = \frac{2}{18} = 0,11; k_j^4 = \frac{6}{18} = 0,33;$$

Topilgan vazn koeffitsiyentlarini (1.1) formulaga qo'yib quyidagicha ifodalaymiz:

$$C_{ЭИЗ} = 0,55 * \sqrt[n]{\sum_{i=1}^n F_j^2} + 0,11 * \sqrt[n]{\sum_{i=1}^n F_j^3} + 0,33 * \sqrt[n]{\sum_{i=1}^n F_j^4} \quad (2)$$

Yuqoridagi metodologik yondashuvlardan foydalangan holda Navoiy EIZ faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha 3-jadvalda birinchi guruh statistik ko'rsatkichlar shakllantirilgan.

3-jadval

Navoiy EIZning 1-guruh mutlaq miqdoriy ko'rsatkichlari

Belgi	Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022
F1,1	EIZ rezidentlari soni, birlik	7	12	33	30	12
F1,2	EIZning jami maydoni, ga	644	644	644	644	644
F1,3	EIZda rezidentlar joylashgan umumiy maydon, ga	70,83	84,27	172,12	255,61	306,05
F1,4	Ish o'rinlari soni, shtat birlik	730	1611	1662	2932	4730
F1,5	Ishlovchilar soni, birlik	921	1269	2375	3808	5293
F1,6	Oliy ma'lumotga ega bo'lgan ishchilar soni, birlik	111	152	333	609	953
F1,7	Investitsiyalar hajmi, mln doll	129,5	169,5	248,2	380	960,2
F1,8	Xorijiy investitsiyalar hajmi, mln doll	38,6	51,5	82,5	104,46	360,6
F1,9	EIZda yaratilgan tovarlar, mahsulotlar, ishlar, xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlar hajmi, mlrd.so'm.	302,4	916,5	1 548	2 584,6	3 589,2
F1,10	Byudjetga to'lovlar hajmi, mlrd.so'm	4,3	10,6	75,8	45,4	34,8
F1,11	Byudjetdan tashqari moliyalashtirish manbalari miqdori mln.so'm. (Navoiy EIZ Direksiyasi AJ)	758,1	1016,0	1706,7	2815,4	2823,9
F1,12	Boj to'lovlari mlrd. so'mda (bojxonadan)	2,2	0,0	11,3	79,1	266,8
F1,13	Boj va soliqdan imtiyozlar hajmi mlrd. so'mda (bojxonadan)	161,7	0,0	246,6	474,1	81,3
F1,14	Yangi investitsion obyektlar soni	17	36	48	65	50
F1,15	Yangi investitsion obyektlari qiymati, mlrd. so'm	51,8	170,9	214,5	620,0	541,5
F1,16	Yangi investitsion obyektlari quvvati, mlrd. so'm	120	770,8	909,6	1 255	1 856
F1,17	EIZ rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan eksport, mlrd so'm	11	51	92	243	490
F1,18	EIZ rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan import, mlrd so'm		735	1324	3302	2305
F1,19	Amalga oshirilgan innovatsiyalar soni	1	1	3	5	8
F1,20	Innovatsion mahsulotlar sotishdan tushgan tushum, mlrd.so'm	0,8	1,3	6,7	5,8	11,4
F1,21	Hududga tashrif buyurgan turistlar soni, birlik	18974	27107	57423	2800	9000
F1,22	EIZga tashrif buyurgan turistlar soni, birlik	1100	1800	3793	224	820
F1,23	Hududning turizm obyektlari quvvati, mlrd.so'm	2793	3286	3866	4549	5352
F1,24	EIZdagi turistik obyektlar quvvati, mlrd so'm	55	69	85	105	145

Belgi	Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022
F1,25	EIZda foydalanishga topshirilgan infratuzilma obyektlari soni	5	0	0	2	3
F1,26	EIZda o'z muddatida foydalanishga topshirilgan infratuzilma obyektlari soni	5	0	0	0	1

3-jadvalda Navoiy EIZning 2018-2022-yillardagi 1-guruh mutlaq miqdoriy ko'rsatkichlari yillar kesimida keltirilgan. Erkin iqtisodiy zonaning samaradorligini baholash uchun birinchi guruhni tashkil etuvchi barcha sanab o'tilgan mutlaq ko'rsatkichlarning joriy qiymatlari o'tgan yilning mos qiymatlari bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak. Integral indikatorlar bo'yicha erkin iqtisodiy zona bo'yicha tanlangan mezonlar bo'yicha mos qiymatlar iqtisodiy zonaning xususiyatlari va erishilishi kutilayotgan natijalar asosida tanlanadi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar 4-jadvalda aniqlanadi.

4-jadval

Navoiy EIZning samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash natijalari

№	Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022
2-guruh nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar (Navoiy EIZ direksiyasi faoliyat samaradorlik indeksleri)						
F2,1	EIZ maydonidan foydalanish darajasi	0,11	0,13	0,27	0,40	0,48
F2,2	EIZga tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish darajasi, m2	0,02	0,01	0,01	0,01	0,04
F2,3	EIZga yo'naltirilgan investitsiyalarning ish o'rinlarini yaratishga hisssasi, 100 ming dollar. investitsiyaga nisbatan	0,56	0,95	0,67	0,77	0,49
F2,4	Oliy malakaga ega bo'lgan mutaxassislar salmog'i	0,12	0,12	0,14	0,16	0,18
F2,5	Xorijiy investitsiyalar salmog'i	0,30	0,30	0,33	0,27	0,38
F2,6	Yangi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi	0,43	0,22	0,24	0,49	0,29
F2,7	Eksport samaradorligi	0,04	0,06	0,06	0,09	0,14
F2,8	Jami tashqi savdo aylanmasida import ulushi	0,00	0,94	0,94	0,93	0,82
F2,9	Innovatsion faoliyat samaradorligi	0,00	0,00	0,00	0,00	0,00
F2,10	Innovatsion faollik samaradorligi	0,14	0,08	0,09	0,17	0,67
	O'rtacha ($\sum_{i=1}^n F_j^2$)	1,72	2,81	2,74	3,30	3,49
	O'rtacha geometrik miqdor ($\sqrt[n]{\sum_{i=1}^n F_j^2}$)	1,06	1,11	1,11	1,13	1,13
Yordamchi ko'rsatkichlar						
Q1	Mehnatga layoqatli aholi soni, ming kishi	544,1	549,1	553,4	553,1	556,5
Q2	YAXM hajmi, trln.so'm	14,7	22,7	36,7	50,6	59,4

Q3	Jami byudjet tushumlari, mlrd.so‘m					
Q4	Investitsiyalar hajmi, trln.so‘m	3,9	10,6	17,6	15,7	15,0
Q5	Investitsiyalar hajmi, mln.dollar	493,7	1299,7	1851,3	1489,9	1395,3
3-guruh nisbiy miqdoriy ko‘rsatkichlar (EIZlarning viloyat byudjetiga ta‘sirini baholash ko‘rsatkichlari)						
F3,1	Byudjetga to‘lovlar salmog‘i	0,014	0,012	0,049	0,018	0,010
F3,2	Boj to‘lovlari salmog‘i	0,007	0,000	0,007	0,031	0,074
	O‘rtacha ($\sum_{i=1}^n F_j^3$)	0,021	0,012	0,056	0,048	0,084
	O‘rtacha geometrik miqdor ($\sqrt[n]{\sum_{i=1}^n F_j^3}$)	0,146	0,108	0,237	0,219	0,290
4-guruh nisbiy miqdoriy ko‘rsatkichlar (EIZlarning hududiy rivojlanish darajasiga ta‘sirini baholash ko‘rsatkichlari)						
F4,1	EIZda yaratilgan ish o‘rinlari umumiy mehnatga layoqatli aholi soni ulushi	0,002	0,002	0,004	0,007	0,010
F4,2	Yalpi hududiy mahsulot umumiy hajmida EIZ rezidentlari tomonidan tovarlar va xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlar ulushi	0,021	0,040	0,042	0,051	0,060
F4,3	Viloyatning jami soliqlar miqdorida EIZ ulushi	0,004	0,003	0,008	0,01	0,264
F4,4	Jami investitsiyalarda EIZga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi	0,262	0,130	0,134	0,255	0,688
F4,5	EIZning turistik faollik samaradorligi	0,058	0,066	0,066	0,080	0,091
F4,6	EIZning turistik faoliyat samaradorligi	0,020	0,021	0,022	0,023	0,027
	O‘rtacha ($\sum_{i=1}^n F_j^4$)	0,366	0,264	0,277	0,426	1,140
	O‘rtacha geometrik miqdor ($\sqrt[n]{\sum_{i=1}^n F_j^4}$)	0,846	0,801	0,807	0,867	1,022
	$C_{\text{EIZ}} = 0,55 * \sqrt[n]{\sum_{i=1}^n F_j^2} + 0,11 * \sqrt[n]{\sum_{i=1}^n F_j^3} + 0,33 * \sqrt[n]{\sum_{i=1}^n F_j^4}$	0,876	0,886	0,901	0,930	0,992

Hisob kitob natijalaridan ma‘lum bo‘lmoqdaki, Navoiy EIZsi faoliyati samaradorligi yillar davomida o‘sib bosish tendensiyasiga ega bo‘lsada 2020-yil va 2021-yillarda samaradorlik koeffitsiyentlari o‘zgarishsiz qolmoqda. Uning asosiy natijalarini aniqlash va qaysi omillar ta‘sirida samaradorlik o‘zgarishsiz qolayotganligini aniqlash imkoniyati mavjud. Biz yuqorida ko‘rib o‘tilgan samaradorlik koeffitsiyentlari faqat tegishli to‘plam xususiyatlarini aniqlash uchungina ishlatiladi. Ammo o‘rtacha miqdorlar bizga yetarlicha natijalarni taqdim etmaydi. EIZlar faoliyati samaradorligini oshirish uchun strategik maqsadlarni qaysi omillarga e‘tibor qaratish lozimligini aniqlash imkonini bermaydi. Shunga asosan EIZlar faoliyatini so‘nggi 5 yildagi (2018-2022-yillar) faoliyat samaradorligini regressiv va

progressiv o'rtachalarni hisoblash asosida omillarning regressiv va progressiv ta'sir darajalari bo'yicha aniqlash lozim.

Progressiv o'rtacha deganda to'plam bo'yicha umumiy o'rtachaga nisbatan yuqori qiymatlarni qabul qilgan birliklarning o'rtachalari qabul qilinadi, regressiv o'rtachada esa to'plamning umumiy o'rtachasidan past qiymatlarni qabul qilgan birliklar aniqlanadi. Shunga ko'ra EIZlarning samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha tanlangan xar bir indikatorlarni 2018-2022-yillardagi umumiy o'rtachalariga nisbatan 2022-yildagi erishilgan natijani taqqoslab 5-jadvalda ifodalaymiz.

5-jadval

Navoiy EIZning 2022-yildagi faoliyat natijalari bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi indikatorlarni aniqlash

Belgi	Omillar	2018	2019	2020	2021	2022	O'rtacha arifmetik	2022-yildagi faoliyat natijalari
2-guruh nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar (Navoiy EIZ direksiyasi faoliyat samaradorlik indeksleri)								
F2,1	EIZ maydonidan foydalanish darajasi	0,11	0,13	0,27	0,40	0,48	0,28	progressiv
F2,2	EIZga tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish darajasi, m2	0,02	0,01	0,01	0,01	0,04	0,02	progressiv
F2,3	EIZga yo'naltirilgan investitsiyalarning ish o'rinlarini yaratishga hisyasi, 100 ming dollar. investitsiyaga nisbatan	0,56	0,95	0,67	0,77	0,49	0,69	regressiv
F2,4	Oliy malakaga ega bo'lgan mutaxassislar salmog'i	0,12	0,12	0,14	0,16	0,18	0,14	progressiv
F2,5	Xorijiy investitsiyalar salmog'i	0,30	0,30	0,33	0,27	0,38	0,32	progressiv
F2,6	Yangi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi	0,43	0,22	0,24	0,49	0,29	0,33	regressiv
F2,7	Eksport samaradorligi	0,04	0,06	0,06	0,09	0,14	0,08	progressiv
F2,8	Jami tashqi savdo aylanmasida import ulushi	0,00	0,94	0,94	0,93	0,82	0,73	progressiv
F2,9	Innovatsion faoliyat samaradorligi	0,00	0,00	0,00	0,00	0,00	0,00	neytral
F2,10	Innovatsion faollik samaradorligi	0,14	0,08	0,09	0,17	0,67	0,23	progressiv
	O'rtacha	1,72	2,81	2,74	3,30	3,49	2,81	progressiv
	O'rtacha geometrik miqdor	1,06	1,11	1,11	1,13	1,13	1,11	progressiv

Belgi	Omillar	2018	2019	2020	2021	2022	O'rtacha arifmetik	2022-yildagi faoliyat natijalari
3-guruh nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar (EIZlarning viloyat byudjetiga ta'sirini baholash ko'rsatkichlari)								
F3,1	Byudjetga to'lovlar salmog'i	0,01	0,01	0,05	0,02	0,01	0,02	Progressiv
F3,2	Boj to'lovlari salmog'i	0,01	0,00	0,01	0,03	0,07	0,02	Progressiv
	O'rtacha	0,02	0,01	0,06	0,05	0,08	0,04	Progressiv
	O'rtacha geometrik miqdor	0,15	0,11	0,24	0,22	0,29	0,20	Progressiv
4-guruh nisbiy miqdoriy ko'rsatkichlar (EIZlarning hududiy barqaror rivojlanish darajasiga ta'sirini baholash ko'rsatkichlari)								
F4,1	EIZda yaratilgan ish o'rinlari umumiy mehnatga layoqatli aholi soni ulushi	0,002	0,002	0,004	0,007	0,010	0,005	progressiv
F4,2	Yalpi hududiy mahsulot umumiy hajmida EIZ rezidentlari tomonidan tovarlar va xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlar ulushi	0,021	0,040	0,042	0,051	0,060	0,043	progressiv
F4,3	Viloyatning jami soliqlar miqdorida EIZ ulushi	0,004	0,003	0,008	0,010	0,264	0,058	Regressiv
F4,4	Jami investitsiyalarda EIZga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi	0,262	0,130	0,134	0,255	0,688	0,294	progressiv
F4,5	EIZning turistik faollik samaradorligi	0,058	0,066	0,066	0,080	0,091	0,072	progressiv
F4,6	EIZning turistik faoliyat samaradorligi	0,020	0,021	0,022	0,023	0,027	0,023	progressiv
	O'rtacha	0,366	0,264	0,277	0,426	1,140	0,495	progressiv
	O'rtacha geometrik miqdor	0,846	0,801	0,807	0,867	1,022	0,869	progressiv
	Seiz	0,876	0,886	0,901	0,930	0,992	0,917	progressiv

5-jadval ma'lumotlaridan ma'lum bo'ladiki, Navoiy EIZning 2022-yildagi faoliyat natijalari bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi indikatorlar so'nggi 5 yildagi faoliyat samaradorligiga nisbatan past qiymatlarni qabul qildi:

Navoiy EIZga yo'naltirilgan investitsiyalarning 2022-yilda ish o'rinlarini yaratishga hissa yuqori emas;

Navoiy EIZning yangi ishlab chiqarish quvvatlaridan 2022-yilda samarali foydalanilmagan;

Navoiy EIZning viloyat byudjetiga qo‘shadigan hissasi 2022-yilda oldingi yillarga nisbatan yuqori emas.

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan ajratilgan holda EIZni mahalliy muassasa va o‘ziga xos mexanizm sifatida ko‘rib chiqish mumkin emas. Chunki har qanday erkin iqtisodiy zonalar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish muammolarini hal qilishga qaratilgan maqsadlar va strategiyalar bilan mutanosibli ta‘minlanishi zarur. Ushbu samaradorlik nafaqat iqtisodiy, balki ekologik muammolar yoki resurs bazasi sifatida faoliyat ko‘rsatadigan ekzogen omillarga ham e‘tibor qaratish lozim. Yuqoridagi tahlil natijalariga asoslangan holda O‘zbekiston Respublikasidagi EIZning faoliyat ko‘rsatishini hududiy ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishga ta‘sirini doimiy baholab boruvchi tizimni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Taklif etilgan baholash uslubiyati EIZlar faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, ularning investitsion imkoniyatlarini va salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek EIZlarning hudud iqtisodiy rivojlanishiga ta‘sirlarni baholashning ilmiy-uslubiy va amaliy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Navoiy viloyatida investitsiya resurslarini jalb qilishni rivojlantirish bo‘yicha natijadorlikni oshirish ushbu vazifalarni ro‘yobga chiqarishda investitsiyalarni keng jalb etishga qaratilgan marketing strategiyalari ishlab chiqish va amalga oshirishning ilmiy-metodologik jihatlarini asoslashga asosiy e‘tibor qaratilishi lozim.

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan ajratilgan holda EIZni mahalliy muassasa va o‘ziga xos mexanizm sifatida ko‘rib chiqish mumkin emas. Chunki har qanday erkin iqtisodiy zonalar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish muammolarini hal qilishga qaratilgan maqsadlar va strategiyalar bilan mutanosibli ta‘minlanishi zarur. Ushbu samaradorlik nafaqat iqtisodiy, balki ekologik muammolar yoki resurs bazasi sifatida faoliyat ko‘rsatadigan ekzogen omillarga ham hudud imijiga ta‘sirini ham e‘tiborga olish lozim.

Navoiy erkin iqtisodiy zonasida eksportga yo‘naltirilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha faoliyati xalqaro miqyosdagi muvaffaqiyatli zonalar bilan taqqoslaganda eng oddiy modellardan foydalanish yo‘nalishi tanlangan. Navoiy erkin iqtisodiy zonasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning o‘ziga xos bo‘lgan investitsion model “Imij yaratish modeli” asosiga qurilishi viloyatning to‘liq investitsion salohiyatidan foydalanishning asosiy yo‘nalishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022-yildagi 83-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/5870397>

2. "O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-sonli Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

3. Смородинская Н. Свободные экономические зоны Вест. ДВО РАН-1993. № 4, 5. С. 3-22.

4. Данкко Т., Окрут З. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве: Российская экономическая академия им Г. В. Плеханова. – М.: Инфра-М., 1998. Ст. 168.

5. Авдокушин Е.Ф. Свободные (специальные) экономические зоны. – М., 1993.

6. Бабинцев В., Валлиулин Х. Особые экономической зоны. Российской экономический журнал. 1992. № 9. – 117 с.

7. Shermuhammedov A. Ochiq iqtisodiy mintaqa. O'zbekiston axborotnomasi-1998-y. № 1 (sentabr, oktabr). – 75 bet.

8. Овчинникова С.Г. Зона свободного предпринимательства. Учебник. – СПб., 1996. Ст. 12-16.

9. Леусский А. Экономика зон свободного предпринимательства.–СПб.,1991. С.11

10. Комлев Ю. Свободные экономические зоны: зарубежный опыт. – Алма-Ата, 1990. Ст. 31.

11. Игнатов В. Свободные экономические зоны.–М.: Ос-89, 1997 г. Ст. 43-58.

12. Rajabov N. Erkin iqtisodiy zonalarda investitsion muhit jozibadorligini boshqarish masalalari xususida: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a15 //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2022. – Т. 23. – №. 3. – S. 101-108.

13. Rashidov M.K. Erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini baholash mezonlari // Iqtisod Va Moliya / ekonomika i finansy. № 12, 2012. <https://cyberleninka.ru/article/n/erkin-i-tisodiy-zonalar-samaradorligini-ba-olash-mezonlari/viewer>

14. Qoraboyev Sh., Inamova G., Alabayev S. Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish masalalari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018-yil.

15. Kryukova Ye. Effektivnost funkcionirovaniya zon s osobym ekonomicheskim statusom. Dissertatsiya na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. Volgograd – 2014.

16. Tursunov K. "Use of marketing strategies in increasing the investment capacity of the regions"/ International scientific conferences with higher educational institutions. vol. 1. no. 25.10. 2022.

17. Rajabov N., Tursunov K. Investitsion muhit jozibadorligini boshqarishni takomillashtirish. Monografiya. // Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. – T. – 2021, 212 bet.
18. Tursunov K., Rajabov N. Hududlar investitsiyaviy salohiyatini oshirishning marketing strategiyalari. Monografiya. // “Innovatsion rivojlanish nashriyot - matbaa uyi” nashriyoti, -T.: 2023, 160 bet.
19. Rajabov N., Adilova M. Mintaqalar barqaror rivojlanishining iqtisodiy-ekologik jihatlari. Monografiya // “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, - T.: 2024, 156 bet
20. Zonal policy concept: prospects for effective investment climate management Иқтисодиёт ва таълим. – 2022. – Т. 23. – №. Махсус сон. – С. 212-219.
21. Dhar B. K., Shaturayev J., Kurbonov K. The causal nexus between innovation and economic growth: An OECD study Scopus мақола Social Science Quarterly. – 2023. – Т. 104–№4. – С.395-405, [https://doi.org/10.1111/ssqu.13261\(2023b\)](https://doi.org/10.1111/ssqu.13261(2023b)).
22. Shaturayev Jakhongir, Muhabbat Hakimova, Khayrilla Kurbonov, Rajabov N. Crafting a Neutrosophic-Driven Tool to Probe Turnover Propensities in Manufacturing Entities // Journal of Neutrosophic Science, Vol. 23, No. 02, PP. 221-237, 2024. doi.org/10.54216/IJNS.230218, www.researchgate.net/publication/377165013,
23. Rajabov N. // Econometric Analysis of Economic and Ecological Aspects of Sustainable Development of Regions in Terms of Digital Economy // 23rd International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networks and Systems (NEW2AN) 21-23 December 2023 American University in the Emirates.
24. Mustafakulov Sh., Murodullaev N., Rajabov N. Poverty: basic principles of the state at its reduction//International Journal of Scientific & Engineering Research Volume 11, Issue 9., September-2020 ISSN 2229-5518
25. Mustafakulov Sh., Rajabov N., Xaydarova M. Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga investitsion muhit jozibadorligi ta'sirining tahlili /“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali., № 5, 2020-yil.
26. Mustafakulov Sh, Rajabov N. Econometric analysis of the impact of the investment climate on the sustainability of socio-economic development of Navoi region//TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR), Vol 9, Issue 10, October 2020, ISSN: 2279-0667
27. Xasanova N. (2023). Barqaror rivojlanish konsepsiyasini tadqiq qilish yondashuvlari tahlili. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(10). https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss10/a641.

MEVA SHARBATLARI BRENDINI SHAKLLANTIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI

Odilova Sitora Sayfitdin qizi
TDIU tadqiqotchisi, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada meva sharbatlari bozorida brend konsepsiyasi, brendni tashkil etishning maqsadlari, vazifalari va tamoyillarining ilmiy-nazariy jihatlarini o'rganilgan. Meva-sharbatlari ishlab chiqaruvchi, sotuvchi korxonalarining brend yaratishning asosiy maqsadlari iste'molchilarning brendga sodiqligini oshirish vositalari aniqlangan. Brend yaratuvchi korxonaning brendini maqsadli auditoriya tezkor qabul qilishiga erishishi uchun asos bo'luvchi marketing strategiyalari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: meva-sharbatlari bozori, brend konsepsiyasi, brend tashkil etish, sodiqligini oshirish, brend yaratish maqsadlari, marketing strategiyalari, auditoriya qabul qilish, korxonalar brendi.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются научно-теоретические аспекты концепции бренда, цели, задачи и принципы организации бренда на рынке фруктовых соков. Основными целями создания бренда предприятий по производству и реализации фруктовых соков являются средства повышения лояльности потребителей к бренду. Предлагаются основные маркетинговые стратегии предприятия, создающего бренд, для достижения быстрого признания своего бренда целевой аудиторией.

Ключевые слова: рынок фруктовых соков, концепция бренда, построение бренда, повышение лояльности, цели построения бренда, маркетинговые стратегии, признание аудитории, корпоративный брендинг.

Abstract. This article examines the scientific-theoretical aspects of the brand concept, goals, tasks and principles of brand organization in the fruit juice market. The main goals of brand creation of fruit juice producing and selling enterprises are the means of increasing consumer loyalty to the brand. Basic marketing strategies are proposed for the brand-creating enterprise to achieve rapid acceptance of its brand by the target audience.

Keywords: fruit juice market, brand concept, brand building, building loyalty, brand building objectives, marketing strategies, audience acceptance, corporate branding.

KIRISH

Iste'mol tovarlari bozorida korxonalarining samarali brending siyosatini shakllantirish va amalga oshirish orqali xalqaro miqyosda raqobat ustunligiga erishishning asosiy yo'nalishiga aylangan. Shunga ko'ra tovarlar brendini yaratishga oid nazariyalarni takomillashtirish, global bozordagi tendensiyalar ta'sirida yuzaga kelayotgan brending strategiyasining modifikatsiyalashgan shakllarini sintez qilish,

biznesning boshqaruviga ta'sir yo'nalishlarini aniqlash, jumladan, meva sharbatlari bozorida brend bo'yicha xabardorlik, mijozlar sodiqligini ta'minlash, iste'molchilarni shaxsiy afzal ko'rish qobiliyatlariga kuchli va samarali brend vositasi orqali ta'sir ko'rsatish kabi yo'nalishlarda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «2026-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 7,4 mln. tonnaga, qayta ishlash darajasini sut bo'yicha 32 foiz, go'sht — 25 foiz, meva-sabzavot bo'yicha- 28 foizga yetkazish»[1] vazifasi oziq-ovqat sanoatining meva sharbatlari ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish, milliy bozordagi ichki ehtiyojlarni to'liq va sifatli qondirish bilan bir qatorda, tashqi bozorlarda ham mustahkam mavqega ega bo'lib borishni ko'zda tutadi. Bu esa meva sharbatlari brendini shakllantirish bo'yicha marketing strategiyalarini ishlab chiqishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy marketologlar ushbu atamadan mahsulot brendini aniqlash uchun foydalanadilar. Filip Kotler tomonidan brend-savdo belgisi quyidagicha ta'riflangan: «bitta sotuvchi yoki bir guruh sotuvchilarning tovarlarni (xizmatlarni) aniqlash va ularni raqobatchilar tovarlari va xizmatlaridan farqlash uchun mo'ljallangan nomi, atama, belgi, logotip yoki ularning kombinatsiyasi»[2] deyilgan.

Amerika Marketing Assotsiatsiyasi (AMA) tomonidan brendni «bitta sotuvchining tovar yoki xizmatining boshqa sotuvchilarnikidan farq qiluvchi nom, atama, dizayn belgi yoki boshqa xususiyatidir»[3] deb ta'rif berilgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonlik olimlar tomonidan brend nazariyalari va uni shakllantirishning ilmiy-uslubiy asoslari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, U.U.Sharifxodjayev,[4] M.A.Ikramov, Sh.Dj Ergashxodjayeva, Z.D.Adilova, I.U.Ne'matov[5], Xotamov I.S.[6] Z.A.Xakimov[7], S.A.Eshmatov[8] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar, asosan, turli tarmoqlarning brend strategiyasini ishlab chiqishga qaratilgan.

Brending marketing uning strategiyalarining eng qiziqarli tarkibiy qismlaridan biridir. Ba'zi mualliflar branding strategiyalarini muhokama qilib, “brend arxitekturasi” va “brend tuzilishi” atamalarini sinonim sifatida ishlatishadi. Brending kompaniya yoki alohida mahsulotning raqobatchilardan ajralib turishiga yordam beradigan, qo'shimcha qiymat yaratadigan va sotuvlarni uzoq muddat ta'minlaydigan vositadir.[9] Bu brandingning asosiy afzalligi bo'lib, uni amalga oshirish usullari va vositalari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Iste'molchilar har kuni o'z atrofida juda ko'p brendlarga duch kelishadi, ularning ba'zilari butun dunyo bo'ylab tanilgan, boshqalari faqat ma'lum bir mintaqada, ammo ularning barchasi juda o'xshash ta'sirga ega. Ko'pgina olimlarning ta'kidlashicha, branding maqsadli mijozlar o'rtasida kompaniyani, mahsulotni idrok etishni yaxshilash orqali ta'sir qiladi va natijada korxonaning barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.[10]

Brendning barcha afzalliklarini tushunish xalqaro bozorga chiqishda yuqori sifatli brend strategiyasini yaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Brending nazariyasi bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari mavjud bo'lib, ular kuchli brend strategiyasini yaratish va foydalanish uchun asosiy asos bo'lib xizmat qiladi.[11] Biroq, barcha kompaniyalarning o'z bozor faoliyati mavjud va ular turli bozorlarda faoliyat yuritishadi. Shuning uchun ham har bir soha yoki tarmoqlarning brending strategiyalariga o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Bundan tashqari brendlar ichki va tashqi bozorlardagi geosiyosiy va iqtisodiy vaziyatlar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.[12] Shunday qilib, korxonalar va uning menejerlari strategiyalarni yaratishda uning ilmiy nazariy asoslari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi taqozo etiladi.

Brend strategiyasi — bu raqobatchilar strategiyasini hamda iste'molchilarning istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda brend joylashuvini aniqlash variantlarini oldindan belgilaydigan harakatlar dasturidir.

S. A. Ribchenko tadqiqotlarida «Brend strategiyasi — bu korxonaning korporativ strategiyasida markaziy bo'lgan marketing strategiyasining elementi sifatida qaraydi. Ushbu strategiyani nafaqat tovar ishlab chiqarishni rivojlantirish vazifasi, balki korxonaning turli xil mahsulotlari orasida yaratilgan moliyaviy oqimlarni tashkil etish muammosi sifatida ham ko'rib chiqish kerak»[13] degan xulosa qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy nazariy qarashlarni umumlashtirish va sintez qilish asosida brend strategiyasini “tovar-brend” portfelini boshqarish modellari sifatida ko'rib chiqish kerak, ular quyidagilar: tovar brendi strategiyasi, brend tovarlar liniyasi strategiyasi, brend tovarlar assortimenti strategiyasi, soyabon brendlar, tasdiqlangan brendlar, qo'llab-quvvatlovchi brendlar.

Taklif etilgan “tovar-brend” portfelini boshqarish modellari asosiga qurilgan strategik yo'nalishlarni tasniflash amalga oshirilishi lozim.


TAHLIL VA NATIJALAR

Brend funksiyalari bilan birlashtirilgan brend arxitekturasining bir nechta turlarini tasniflab o'tish maqsadga muvofiq.

1. Tovar brendlari strategiyasi. Ushbu strategiya J.N.Kapferer tomonidan tavsiya etiladi.[14] Strategiya brendni kengaytirishning yagona usuli sifatida mahsulotni yangilashni nazarda tutadi.


2. Brend tovarlar liniyasi strategiyasida brend va tovar mahsulot o'rtasidagi munosabatlarni saqlab, kengayish konsepsiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Ba'zida tovar liniyasi asosiy g'oya bilan birlashtirilgan bir-birini to'ldiruvchi xarakterdagi ko'plab tovarlar to'plamiga ega kompleks tizim sifatida ishlatiladi.

3. **Brend assortimenti strategiyasi.** Brend arxitekturasida barcha tovar markalari uchun bitta umumiy nom ishlatiladi va brend identifikatsiyalari yaratish barcha tovarlar assortimenti uchun umumiy bo‘ladi. Ushbu strategiya asosan iste‘mol tovarlari brendlari uchun mos keladi. Brendlar assortimenti o‘zlarining barcha mahsulotlarini noyob sotish taklifiga hamda brend konsepsiyasiga asoslanib bog‘laydi (1-rasm).



1-rasm. Brend assortimentini shakllantirish[13]


4. **Soyabon brend strategiyasi.** Bitta brend turli xil bozorlarda bir nechta mahsulotlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Ularning har biri maxsus nomga va marketing kommunikatsiyalariga ega (2-rasm).



2-rasm. Soyabon brend strategiyasi[14]

Ushbu strategiyani qabul qiladigan korxonalar “brendlar uyi” yoki o‘ziga xos brend toifasiga yanada ko‘proq harakat qilishadi, bu umumiy tovar ko‘rinishini anglatadi.

5.Ona brend strategiyasi (ona brend strategiyasi) soyabon brendi bilan bir xil, faqat har bir mahsulot o‘z nomiga ega (Opium, Nina, Loulou). Ushbu tuzilish shakli 3-rasmda keltirilgan.




3-rasm. Ona brend strategiyasi[14]

Ba'zi brendlar vaqt o'tishi bilan qo'llab-quvvatlovchi brendlarga aylanadi. Ona branding konsepsiyasi, hatto uning barcha mahsulotlari o'z nomlariga ega bo'lsa ham ma'lum g'oyaviy asosga quriladi va boshqariladi. Qo'llab-quvvatlaydigan brend strategiyasidan foydalanganda barcha mahsulotlar mustaqil, birlashtiruvchi brend qo'llab-quvvatlovchi brendning o'zi bo'ladi. Dastlabki brendni shakllantirishda ikki darajali branding strategiyasidan foydalaniladi. Aksariyat korxonalar ushbu turdagi arxitekturadan turli xil mahsulotlar orqali iste'molchilar ta'sirini kuchaytirish uchun foydalanadilar. Ona brend strategiyasi — bu o'zining barcha tarkibiy qismlarini qayta tuzadigan brend arxitekturasi shaklini oladi.

Brend xususiyatlari va brend modellaridan kelib chiqqan holda meva sharbatlari mahalliy brendini yaratish bo'yicha marketing strategiyalarini ishlab chiqishning uslubiy asoslari 4-rasmda keltirilgan.

4-rasmda tavsiya etilgan uslubiy yondashuv bozorga va tashqi muhitga moslashtirilgan eng maqbul brend strategiyalarini tanlashga, shuningdek, re-branding paytida takomillashtirilishi kerak bo'lgan omillarni aniqlashga, biznes — jarayonlarni benchmarking va reinjining qilish imkonini beradi.

Brendlar rivojlanar ekan, bozorning so'nggi tendensiyalarini hisobga olgan holda, vaqti-vaqti bilan tashqi muhitga mosligini tekshirib turish kerak.



4-rasm. Iste'mol tovarlarning mahalliy brendini yaratish bo'yicha marketing strategiyalarini ishlab chiqishning uslubiy asoslari¹

¹ Muallif ishlanmasi

Brendni boshqarish jarayonida brend identifikatori muhim o'zgarishlarga muhtoj bo'lgan vaziyatlar paydo bo'lishi mumkin. Bu holda identifikatorning o'zgarishi, aslida, eski shakl ichida yangi brend yaratishni nazarda tutadi. Bu o'zgarish rebrending (brendni qayta joylashtirish) deb ataladi. Rebrending yangi imkoniyat qisman brend portfelidagi mavjud brendlar salohiyatini rivojlantirishga mos kelganda qo'llaniladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Yuqorida ko'rib o'tilgan brend strategiyalaridan foydalanish korxonalar marketing faoliyati uchun maqsadli bozorlarga samarali o'rnatish imkoniyatini yaratadi.

Har bir savdo markasi brendga aylanavermaydi. Buning sabablari ko'p bo'lishi mumkin, ammo ularni ikkita asosiy sababga qisqartirish mumkin. Savdo belgisi umuman brendga aylanishi mumkin emas yoki ma'lum makon-vaqt oralig'ida brendga aylanadi.

Birinchi holda yangi savdo belgisi yaratilishi kerak. Ikkinchi holda brend belgisi iste'molchilar nuqtayi nazaridan noto'g'ri joylashtirilgan bo'lishi mumkin. Ushbu tovar belgisini ilgari surish bo'yicha kompleks boshqaruv samarasiz bo'lib, iste'molchilarda o'ziga xos taassurot qoldirishi mumkin emas yoki shunchaki, ushbu vaqt oralig'ida maqsadli iste'molchilarni qiziqitirmagan. Bunday holda ushbu savdo markasini ilgari surish tizimini o'zgartirish va agar kerak bo'lsa, uni qayta ko'rib chiqish yoki takrorlash ham maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» ги ПФ-60-сон Фармони. 2022 йил 28 январь. – www.lex.uz
2. Котлер Ф. Маркетинг менеджмент. Экспресс-курс 2-е издание/Пер.с англ.под.ред.С-Г.Божук - СПб.: Питер, 2006-464 с.
3. Америка Маркетинг Ассоциацияси (АМА)-<https://www.ama.org>.
4. Шарифходжаев У.У Ўзбекистон Республикаси оммавий ахборот воситалари бренд бошқаруви методологиясини такомиллаштириш. дис – Тошкент, 2015
5. М.А.Икрамов, Ш.Дж Эргашходжаева, З.Д.Адылова, И.У.Неъматов Управление брендом. Ўқув қўлланма. –Т.: Иқтисодиёт, 2019 йил 305 бет.; А.Ш. Бекмуродов ва бошқалар. Strategik marketing. – Т.: ТДИУ, 2010;
6. Хотамов И.С. Брендинг. – Т.: ТДИУ, 2016.;
7. З.А.Хакимов. Енгил саноат корхоналари рақобатбардошлигини маркетинг стратегиялари асосида ошириш. ТДИУ, и.ф.ф.д. (PhD) диссертацияси. 2018 йил. 149 бет.

8. С.Эшматов. Маҳаллий брендни шакллантиришнинг маркетинг стратегияси (сут ва сут маҳсулотлари мисолида). 08.00.11-Маркетинг. и.ф.ф.д. (Phd) диссертацияси. ТДИУ. 2020 йил
9. Kapferer J. N. (2012), *The New Strategic Brand Management: Advanced Insights and Strategic Thinking*, Kogan Page, London
10. Rao V R., Agarwal M. K., Dahlhoff D. (2003). Branding strategy and the intangible value of the firm. *MSI reports*, 135-157
11. Strebinger A. (2014). Rethinking brand architecture: a study on industry, company- and product-level drivers of branding strategy. *European Journal of Marketing*, Vol. 48
12. Levitskaya Daria. "International Branding Strategies: In Swedish and Russian Fashion Companies." (2016).
13. Рыбченко С. А. Формирование стратегий брендинга на российском рынке мясной продукции / С. А. Рыбченко. – Ульяновск: УлГТУ, 2009. – 165 б.
14. Капферер Ж.Н. Бренд навсегда: создание, развитие, поддержка ценности бренда / Ж.-Н. Капферер; пер. сангл. Е. В. Виноградовой; под общ. ред. В. Н. Домнина. – М.: Вершина, 2007. – С. 273.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHDA MILLIY STRATEGIYANING AHAMIYATI

Mirzaraximova Aziza Baxrom qizi
TDIU, tadqiqotchi
azizamirzarakhimova@gmail.com

Abdullayeva Ismigul Sardor qizi
TDIU, Raqamli iqtisodiyot va
axborot texnologiyalari fakulteti
2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida telemeditsina xizmatlari o‘rganildi. Elektron sog‘liqni saqlash, teletibbiyot va iqtisodiy xizmatlar sohasidagi xorijiy va mahalliy olimlarning materiallari o‘rganildi, tahlil qilindi, shuningdek, sog‘liqni saqlashni raqamlashtirish uchun milliy strategiyaning ahamiyati o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, telemeditsina, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, milliy strategiya.

Аннотация. В данной научной работе телемедицинские услуги были изучены в условиях цифровизации экономики. Изучены материалы зарубежных и отечественных ученых в области электронного здравоохранения, телемедицины и экономических услуг, изучены и проанализированы материалы, изучено значение национальной стратегии цифровизации здравоохранения.

Ключевые слова: цифровая экономика, телемедицина, Всемирная организация здравоохранения, национальная стратегия.

Abstract. In this scientific work, telemedicine services were studied in the context of digitalization of the economy. Materials from foreign and domestic scientists in the field of e-health, telemedicine and economic services were studied, materials were studied, analysis was provided, and the importance of the national strategy for the digitalization of healthcare was also studied

Key words: Digital economy, telemedicine, World Health Organization, national strategy.

KIRISH

Inson salomatligi dunyodagi eng qimmatbaho boylikdir. Odamlar qanchalik sog‘lom bo‘lsa, mamlakatning iqtisodiyoti shunchalik rivojlanadi. Hozirgi kunda barcha mamlakatlar sog‘liqni saqlash sohasiga katta ahamiyat berishmoqda. Respublikamizda sohani jadal rivojlantirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. 2023 yilda Prezidentning PF-140-sonli “Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida sog'liqni saqlash tizimiga ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy etish, sog'liqni saqlashning raqamli platformasini yaratish, davolash bo'yicha ma'lumotlar bazalari majmuini yaratish va barcha turdagi profilaktika muassasalarini joriy etish, dasturiy ta'minot va elektron platformalarni ishlab chiqish nazarda tutilgan.[1]

Ushbu maqsadga erishish uchun respublikaning raqamli texnologiyalar, Internetga ulanish va boshqa ko'plab omillar bilan ta'minlanganligini yaxshilash kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI


Tadqiqot natijasida ko'plab ilmiy ishlar o'rganildi, ko'plab xorijiy olimlarning ishi natijasida raqamli iqtisodiyotning bir qismi bo'lgan elektron sog'liqni saqlash muammolarini o'rganishga bag'ishlandi. Ulardan biri O.V. Simakov va V.A. Kondratyev MDH mamlakatlarida elektron sog'liqni saqlashni rivojlantirish mavzusida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini sog'liqni saqlashda qo'llash muammolari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini sog'liqni saqlashga joriy etish bo'yicha davlat dasturlari natijalari, erishilgan natijalar tahlil qilindi. erishilgan yutuqlar, mavjud imkoniyatlar va kamchiliklar qiyosiy o'rganilgan.[2] N.V.Shakel va M.S.Ablameykollar, o'z navbatida, elektron sog'liqni saqlash tizimini joriy etish bo'yicha xorijiy tajribani tanqidiy tahlil qildilar va o'z tadqiqotlarini tarmoqni Belarus Respublikasi misolida o'rganishga qaratdilar.[3]

METODOLOGIYA

Aholi salomatligi nazariyasi, sog'liqni saqlash iqtisodiyoti sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari, ularni umumlashtirish telemeditsina xizmatlarini mazmunli talqin qilish va raqamlashtirish sharoitida telemeditsina xizmatlari bozorini tahlil qilish va baholashga mualliflik uslubiy yondashuvni taklif qilish imkonini berdi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Statistika ma'lumotlarini tahlil qilib, 2012-2022 yillarga ko'ra respublikada tibbiyot xodimlari soni 81,3 mingdan 100,5 mingga oshdi (1-rasm). [4]



1-rasm. 2012 yildan 2022 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida tibbiyot xodimlari soni (ming hisobida)

Shu yillar oralig'ida internet tarmog'iga ulanganlar soni esa 7351 mingan 26724 minnga ko'paygan (2-rasm).




2-rasm. 2012-2022 yillar oralig'ida internet tarmog'iga ulanganlar soni (ming birlikda)

Ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Internetga ulangan odamlar soni ko'paygani sayin, turli onlayn xizmatlardan, shu jumladan tibbiy xizmatlardan foydalanish ham sezilarli darajada oshadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti manbalariga ko'ra, raqamli sog'liqni saqlash yechimlari barqaror sog'liqni saqlash tizimlari va umumiy tibbiy qamrovning ajralmas tarkibiy qismidir. Raqamli sog'liqni saqlash tashabbuslari salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun sog'liqni saqlash ehtiyojlariga javob berishi va kengroq sog'liqni saqlash ekotizimining bir qismi bo'lishi kerak. Ular ishonchli raqamli sog'liqni saqlash milliy strategiyasi yoki shunga o'xshash mintaqaviy strategiya hujjatiga amal qilishlari kerak.

Bundan tashqari, Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining "Transformatsiya jarayonining uzluksizligi" nashrida 2020 yilda tasdiqlangan PF- 6970-sonli Prezident Farmoni "Raqamli O'zbekiston-2030" alohida ijobiy takidlab o'tilgan. Milliy strategiyasida raqamli boshqaruv tuzilmalarini mustahkamlash va axborot tizimini rivojlantirish uchun ishonchli kompleks platforma, shuningdek, zarur keng tarmoq infratuzilmasini yaratishga qaratilgan. Strategiya sog'liqni saqlashni raqamli transformatsiya qilish bo'yicha besh yillik harakatlar rejasini o'z ichiga olgan kompleks hujjat bo'lib, tibbiy ma'lumotlarni boshqarish, sog'liqni saqlash axborot tizimi arxitekturasini va raqamli sog'liqni saqlash tashabbuslarini o'z ichiga oladi.


3-rasmda elektron sog'liqni saqlash, raqamli sog'liqni saqlash siyosati yoki strategiyasini amalga oshirish tendensiyalari ko'rsatilgan va ushbu jadvaldagi

ma'lumotlar avvalgi global elektron sog'liqni saqlash tadqiqotlari natijalariga asoslangan. 2022 yilgi ma'lumotlar 100% ishtirok darajasini hisobga olgan holda oldingi yillarga qaraganda ishonchliroq, ammo respondentlarning ko'pligiga qaramay, elektron sog'liqni saqlash/raqamli sog'liqni saqlash siyosati yoki strategiyasi borligini ko'rsatadigan a'zo davlatlar soni 70% dan oshgan.



3-rasm. Mintaqada elektron sog'liqni saqlash / raqamli sog'liqni saqlash siyosati yoki strategiyasini amalga oshirish tendensiyalari.[5]

Davlat Hukumatining 71 foizi (31 ta 44 ta) raqamli sog'liqni saqlash strategiyasida umumiy sog'liqni saqlash xizmatlarini qamrab olishni alohida ta'kidlagan, garchi hisobot beruvchi a'zo davlatlardan bittasi bo'lsa-da, sifat, xavfsizlik va samaradorlikni yaxshilashni strategik ustuvor vazifalar sifatida ko'rsatgan. Bundan tashqari, respondentlarning 93 foizi (41 dan 44) ma'lumotlarga kirishni kengaytirishni ham strategik ustuvorlik deb hisoblaydilar va ularning 98 foizi (43 dan 44) ma'lumotlarga kirishni strategik ustuvorlik deb hisoblaydilar (4-rasm).



4-rasm. Raqamli sog'liqni saqlash milliy strategiyalarida ko'rsatilgan ustuvorliklar.[5]

Ushbu so'nggi natija shuni ko'rsatadiki, raqamli sog'liqni saqlash strategiyasini ishlab chiqishda a'zo davlatlarning yarmidan ko'pi raqamli sog'liqni saqlash texnologiyalarining jamoatchilikning sog'liqni saqlash favqulodda vaziyatlariga tayyorgarlik ko'rish va javob berishda muhim rol o'ynashini tan olishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 maydagi PF-140 sonli "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni

2. O.V. Simakov , V.A. Kondratyev "MDH mamlakatlarida elektron sog'liqni saqlashni rivojlantirish". Axborot jamiyati 2016 No 4- 5. 104-satr .

3. N.V. Shakel , M.S. Qo‘riqchi minorasi Ablamaeko “Tibbiyot xodimlari va bemorlar: elektron sog‘liqni saqlash sharoitida o‘zaro aloqa.” Minsk “Ekoperspektiv” 2020 yil

4. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligining sayti.

5. <https://www.who.int>-Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining sayti

KORXONA MARKETINGIDA RAQOBAT RAZVEDKASI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI

Tursunov Bobir Ortikmirzayevich,

i.f.d.(DSc.), professor, International School of Finance Technology and
Science professori

SPIN-kod: 5913-1935; ORCID: 0000-0002-5004-375x; Scopus ID: 57210803189

Tursunxo‘jayev Sardorbek Jamoliddin o‘g‘li,

i.f.f.d.(PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiy xavfsizlik”
kafedrasida dotsenti v.v.b.

Annotatsiya. Maqolada korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan, korxonalar marketingida raqobat razvedkasini rivojlanish bosqichlari va tamoyillari keltirilgan, ilg'or xorijiy tajribani chuqur o'rganish asosida korxonalar iqtisodiy xavfsizligini baholash uslubiyati ishlab chiqilgan. Uslubiyat asosida mamlakatimizda radioelektronika, elektronika va asbobsozlik sanoatining rivojlanish dinamikasi va hozirgi holati o'rganilgan, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili o'tkazilgan, “O‘zeltexsanoat” AJ tarkibidagi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligi baholangan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy xavfsizlik, Korxonalar marketingi, Raqobat razvedkasi, Ilmiy-nazariy asoslar, Uslubiyat ishlab chiqish, Radioelektronika sanoati, Ekonometrik tahlil, Sanoat korxonalari

Аннотация. В статье рассмотрены научно-теоретические основы обеспечения экономической безопасности предприятий, представлены этапы и принципы развития конкурентной разведки в маркетинге предприятия, а на основе углубленного исследования разработана методология оценки экономической безопасности предприятий передового зарубежного опыта. На основе методики изучена динамика развития и современное состояние радиоэлектронной, электронной и приборостроительной промышленности нашей страны, проведен эконометрический анализ факторов, влияющих на экономическую безопасность действующих в нашей стране промышленных предприятий, а также оценена экономическая безопасность предприятий АО «Узэлтеханоат».

Ключевые слова: Экономическая безопасность, Маркетинг предприятия, Конкурентная разведка, Научно-теоретические основы, Разработка методологии, Радиоэлектронная промышленность, Эконометрический анализ, Промышленные предприятия.

Abstract. The article examines the scientific and theoretical foundations of ensuring the economic security of enterprises, the stages and principles of development of competitive intelligence in enterprise marketing are presented, and the methodology of assessing the economic security of enterprises is developed based on the in-depth study of advanced foreign experience. Based on the methodology, the dynamics of the development and current state of the radioelectronics, electronics and instrumentation industry in our country were studied, an econometric analysis of the factors affecting the economic security of the industrial enterprises operating in our country was conducted, and the economic security of the enterprises within the JSC "Uzeltexanoat" was evaluated.

Keywords: Economic security, Enterprise marketing, Competitive intelligence, Scientific and theoretical foundations, Methodology development, Radioelectronics industry, Econometric analysis, Industrial enterprises

KIRISH

Jahonda oxirgi to‘rt yilda biznes razvedkasi va tahlili xizmatlar bozori hajmi 130 milliard dollardan 200 milliard dollarga yetdi. Katta miqyosdagi korporativ ma‘lumotlar bazalari, mobil ilovalar, veb-tahlil ma‘lumotlari hamda ijtimoiy media ma‘lumotlari katta hajmdagi (BIG data) bilan ishlashga yangi marketing vositalarini joriy etishni taqozo etdi. Marketingning asosiy jihati bo‘lgan mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash, bir nechta turli xil ma‘lumotlar manbalari bo‘yicha korrelyatsiyalarni topish hamda mahsulot yoki xizmatlarni sotishni bashorat qilish kabi vazifalarni bajarish uchun raqobat razvedkasi vositalaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi.[1]

Jahonda rivojlangan mamlakatlar Germaniyaning Bundesnachrichtendienst, Fransiyaning SDECE, Shvetsiyaning Upplsnigs Centralen hamda Yaponiyaning JETR kabi tashqilotlarida sanoat ayg‘oqchiligiga qarshi kurashish, korxonalarda raqobat razvedkasini tatbiq etish, zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish, elektrotexnika sanoati korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash mexanizmlarini ishlab chiqish kabi yo‘nalishlarda keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, elektrotexnika sanoati korxonalari iqtisodiy xavfsizligini zamonaviy marketing yondashuvlari asosida ta‘minlashni ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti, jumladan, elektrotexnika sanoati korxonalarining jahondagi raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmonida, xususan, “milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash” [2] vazifalari belgilab berilgan. Shundan kelib chiqqan holda, elektrotexnika sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini oshirish yuzasidan ichki imkoniyatini kompleks rivojlantirish, moddiy-

texnik bazasini tubdan yangilash va mavjud resurslardan samarali foydalanish bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish muhim masala bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar marketingida raqobat razvedkasi faoliyatini rivojlantirish asosida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari xorijiy olimlardan Talaoui Y. va Kohtamäki M. [3], Nyanga C., Pansiri J. va Chatibura D. [4], Fahey L.[5], Platt W. [6] va boshqalarning asarlarida tadqiq etilgan.

MDH olimlaridan Doronin A. I.[7], Lemke G.E. [8], Satler V.V.[9], Solomanidina T.O., Yushuk Ye. L., Malseva A.A., Yakoves Yu.V., Kuzik B.N., Kushlin V.I., Gubernatorov A.M. [10], Koreskaya L.K., Belova O.A. [11], Sergeeva I.A., Stepchenko T.S.[12], Dovbysh V.Ye va boshqalar korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash hamda raqobat razvedkasini tashkiliy jihatlarini alohida tadqiq etishgan.

O'zbekistonda esa korxonalar iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy va uslubiy asoslari mahalliy olimlarimizdan A.Burxanov, S.G'ulomov, P.Pardayev, T.Shodiyev, N.Maxmudov, B.Berkinov, B.Xasanov va boshqalarning asarlarida keng yoritilgan.

Yuqoridagi mualliflarning ilmiy ishlarida elektrosanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini raqobat razvedkasi vositalaridan foydalanishni o'rganishga yetarli darajada e'tibor berilmagan. Shu sababli iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlaridan hisoblangan elektrotexnika sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashni chuqurroq o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Raqobat razvedkasini va sanoat ayg'oqchiligini faqat maqsadlar birlashtirib turadi – kelajakni oldindan tasavvur etish va modellashtirish, xavf-xatarlarni minimallashtirish, shuningdek biznesni tashkil qilishda qo'shimcha foydani va afzalliklarni qo'lga kiritish ko'rinishlarida bo'lishi mumkin. “Razvedka qilish – demak, bilib olish, batafsil, chuqur bilimlarni olish”. Raqobat razvedkasiga va sanoat ayg'oqchiligiga nisbatan – bu o'zining raqobatli, ishbilarmonlik muhiti haqida – biznesning samarali raqobat qilishiga, iqtisodiy jihatdan jon saqlashiga ta'sir ko'rsatadigan barcha narsalar haqida chuqur bilimlarni olish demakdir.

Tadqiqotda imitatsion modellashtirish statistik tahlilning faktorli modeli asosida o'tkazilgan. Barcha omillar nisbatini ifodalovchi karrali model qo'llandi:

$$Z = \frac{x}{y}$$

Bunda buxgalterlik balansi (1-2 shakllar) va moliyaviy natijalar (5-shakl) to'g'risida hisobot asosidagi korxonaning moliyaviy holati ko'rsatkichlari qo'llanadi. Mazkur variantda moliyaviy ko'rsatkichlarining koeffitsiyentli usuli namoyon bo'ladi. Ta'kidlash joizki, moliyaviy mezonlar korxonaning real holatini ko'rsatadi, shuning

uchun mazkur model moliyaviy-xo‘jalik faoliyatning barcha ichki mezonlarini aks ettiradi. Modelni moliyaviy mezonlarga moslab imitatsiya qilish kerak.

Moliyaviy ko‘rsatkichlarni hisoblash uchun juda muhim bo‘lgan keyingi koeffitsiyent – bu kapitalning umumiy aylanib turishi samaradorligi darajasini ko‘rsatuvchi korxonaning moliyaviy va xo‘jalik faoliyatini rentabelligi:

$$P = \frac{B * 100\%}{\Pi}$$

Hisoblanishi zarur bo‘lgan keyingi koeffitsiyent – bu moliyaviy barqarorlik:

$$\Phi Y = \frac{CK + ДЛСЗС}{ББ}$$

Moliyaviy barqarorlik korxonani moliyaviy mustaqillik darajasini, uning to‘lov qobiliyatini ko‘rsatadi.

Keyingi o‘rinda quyidagicha tavsiflanadigan, yuqori ta’riflangan modellarni kombinatsiyasidan iborat qo‘shma modellar taqdim etildi.

$$Z = \frac{\sum_i x_i}{\sum_i y_i}$$

Natijada iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti integral ko‘rsatkichi asosida ishlab chiqilgan iqtisodiy xavfsizlikni baholash model taqdim etiladi:

$$K_{ИКТ.сам.} = \sqrt[8]{K_0 * K_{об} * K_{от} * K_{об.м.с.} * K_{об.д.с.} * K_{об.с.р.} * K_{об.к.р.з.} * \frac{\Phi Y}{100} \%}$$

Modelning afzalligi, unda korxonani moliyaviy ahvolini tashkil etuvchi omillar negizida korxonani faoliyatining moliyaviy ko‘rsatkichlarini sinchiklab tadqiq qilinganligidan iborat. Modelni kamchiligi – bu hisoblashlarining murakkabligidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonani iqtisodiy xavfsizligini hisoblashning natijasi raqobat razvedkasi vositalari qo‘llashdan ilgari va keyingi holatda korxonani faoliyati ko‘rsatkichlarining darajasini hisoblashdan iborat. Raqobat razvedkasi vositalari asosida iqtisodiy xavfsizlik darajasi shkalasini kiritildi. (1-jadval)

1-jadval

Raqobat razvedkasi vositalari asosida iqtisodiy xavfsizlik darajasi shkalasi

Iqtisodiy xavfsizlik darajalari	Mezonlar
Eng past daraja	- 1 gacha
Past daraja	-1 dan 0 gacha
O‘rtacha	0 dan 0,9 gacha
Yuqori daraja	0,91 dan yuqori

Korxonani iqtisodiy xavfsizligini hisoblashning natijasi raqobat razvedkasi vositalari qo‘llashdan ilgari va keyingi holatda korxonani faoliyati ko‘rsatkichlarining darajasini hisoblashdan iborat. Raqobat razvedkasi vositalari asosida iqtisodiy

xavfsizlik darajasi shkalasi ishlab chiqildi (eng past daraja - -1 gacha, past daraja - 1 dan 0 gacha, o'rtacha - 0 dan 0,9, yuqori daraja - 0,91 dan yuqori).

Tadqiqot doirasida mamlakatimizda radioelektronika, elektronika va asbobsozlik sanoatining rivojlanish dinamikasi va hozirgi holati o'rganilgan, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili o'tkazilgan, "O'zeltexsanoat" AJ tarkibidagi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi baholangan.

2-jadval

Sanoat taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Sanoat mahsulotlari (amaldagi narxlarda), mlrd.so'm	111869,4	148816,0	235340,7	322535,8	368740,2	451633,9
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish surati, o'tgan yilga nisbatan %da	105,4	105,2	110,8	105,0	100,9	108,7
Yalpi ishki mahsulotda sanoatni ulushi (qurilishni qo'shgan holda), %da	43,8	46,9	55,4	60,9	61,2	61,5
Sanoatning yalpi qo'shilgan qiymati (qurilishni qo'shgan holda), %da	26,5	31,1	34,4	34,2	34,5	26,5

Tahlil natijalari ko'rsatishicha sanoat ishlab chiqarishining o'tgan yilga nisbatan o'sishi 2016-yilda 105,4 foiz bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda 105,2 foizni, 2018-yilda 110,8 foizni, 2019-yilda 105,0 foizni, 2020-yilda 100,9 foizni, 2021-yilda esa 108,7 foiz o'sishni tashkil etdi. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 2016-yilda 43,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 61,5 foizga yetdi. Sanoatning yalpi qo'shilgan qiymati 2016-yilda 26,5 foiz bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib 34,5 bo'lgan bo'lsa, tahlil davri oxirida bu ko'rsatkich 26,5 foizni tashkil qildi (2-jadval).

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlardan kelib chiqib tahlil qiladigan bo'lsak, sanoat mahsulotlarining 2000-yildagi ulushi 1 888,9 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsak, 2005-yilga kelib 2000-yilga nisbatan 5,8-marta 2010-yilda esa 20,1 karra, 51,7-marta, 2020-2021-yillarga kelib qariyb 200-marta ko'p miqdorda sanoat mahsulotlari yaratilgan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tgan yilga nisbatan olinganda 2000-2015-yillarda o'sib, 2019-yilda esa 2018-yilga nisbatan kichik miqdorda o'sganligini Sovid-19 pandemiyasi ta'siri bilan izohlash mumkin. 2021-yilga kelib yana o'sish surati ta'minlangan. Jadvalda qazib oluvchi sanoat va qayta ishlovchi sanoatning dinamikasini ham ko'rish mumkin. (3-jadval).

3-jadval


Sanoatning asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2021 y.
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	1888,9	11028,6	38119,0	97598,2	368740,2	451633,9
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish surati, o'tgan yilga nisbatan foizda	101,3	103,8	105,9	105,3	100,9	108,7
Qazib oluvchi sanoat	x	x	94,8	102,9	78,0	110,7
Qayta ishlovchi sanoat	x	x	108,9	105,9	107,9	108,2

Ba'zi yillarda iqtisodiyotimizda yaratilgan Yalpi ichki mahsuloti (YAIM) sur'atlariga nisbatan yalpi sanoat mahsuloti (YASM) sur'atlarining yuqoriligi ham ko'zga tashlanadi. Ikkinchi tomondan, sanoat tarmog'ida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat (SYAQQ) sur'atlarining mamlakat YAIM sur'atidan past bo'lishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat sur'atlarining sanoat ishlab chiqarishdagiga nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi (3-jadval). Sanoatda yalpi qo'shilgan qiymatni tashkil etgan sanoat tarmoqlarining ulushini tahlil qilish asosida tarmoqlarda samaradorlik darajasini yanada to'liqroq o'rganish zarurati vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-martdagi "Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5011-son Qarori qabul qilinganligi elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirishga turtki berdi. "O'zeltexsanoat" uyushmasi 2014-yil 6-fevraldagi "2014-2018-yillarda respublika elektrotexnika sanoatini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2123-sonli Prezident Qaroriga asosan "O'zeltexsanoat" aksiyadorlik kompaniyasi sifatida qayta tashkil etildi. "O'zeltexsanoat" uyushmasining asosiy vazifalari elektrotexnika sanoati sohasidagi muammolarni yechishga qaratilgan (2-rasm).

Respublikada elektrotexnika sanoatini rivojlantirish va modernizatsiya qilish, yangi turdagi zamonaviy elektrotexnika va elektromaishiy mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, tarmoqning investitsiyaviy va eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



1-rasm. “O‘zeltexsanoat” uyushmasining asosiy vazifalari

Mazkur yo‘nalishlardagi ishlarni yanada jadallashtirish, mahalliy elektrotexnika va elektromaishiy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot sotish uchun yangi bozorlarni o‘zlashtirish, tarmoq korxonalarining ilmiy-texnologik, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini rivojlantirish maqsadida 2021-2022-yillar uchun elektrotexnika tarmog‘i samaradorligining quyidagi asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilangan, unga ko‘ra mis xomashyosini chuqur qayta ishlash hajmini 2021-yilda 55 ming tonnaga, 2022-yilda 70 ming tonnaga yetkazish; mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2021-yilda 15 trillion so‘mgacha, 2022-yilda 19 trillion so‘mgacha oshirish; mahsulotlar eksporti hajmini 2021-yilda 450 million AQSH dollari, 2022-yilda 600 million AQSH dollari miqdorida ta‘minlash; tarmoqdagi ish o‘rinlari sonini 2021-yilda 27 mingga, 2022-yilda 34 mingga yetkazish kabi masalalar qo‘yilgan.

Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruhi qarorda belgilangan asosiy maqsadli ko‘rsatkichlar bajarilishini ta‘minlash va ularni 2023-yilda kamida 30 foizga oshirish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish buyurilgan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun, bizningcha, elektrotexnika korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishlari lozim bo‘ladi.

Muallif tomonidan tadqiqot ishida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati korxonalarining 2010-yildan 2021-yilgacha bo‘lgan davrdagi ma‘lumotlari asosida ko‘p omilli ekonometrik model tuzib, mazkur korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi miqdoriy baholangan. Ushbu korxonalarining iqtisodiy xavfsizligiga ta‘sir etuvchi ekzogen omillarni aniqlash uchun quyidagi omillar tanlab olindi: natijaviy omil - kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish, ming so‘mda (Y_1), elektr uskunalar ishlab chiqarish, ming so‘mda (Y_2), elektrotexnika, elektr uskunalar va optik mahsulotlar ishlab chiqarish, ming so‘mda (Y_3), va ta‘sir etuvchi omillar sifatida esa – muqobil energiya sifatida, issiqlik energiyasi ishlab

chiqarish, ming GKa (X_1), quyosh elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan energiyasi, million kVt.soat (X_2), hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi (amaldagi narxlarda mlrd.so'm) (X_3), elektr uskunalari ishlab chiqarish indeksi (o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan foizda) (X_4), hududlar kesimida elektr energiyasi ishlab chiqarish million kVt.soat (X_5).

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati korxonalarining ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari

Dependent Variable: Y1

Method: Least Squares

Sample: 2010 2021

Included observations: 12

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	-0.153951	0.094747	-1.624864	0.1482
X3	0.015921	0.004494	3.542561	0.0094
X4	6.749973	10.61338	0.635987	0.5450
X5	-0.146169	0.110432	-1.323610	0.2272
C	10965.02	5899.176	1.858738	0.1054
R-squared	0.930765	Mean dependent var		1397.754
Adjusted R-squared	0.891202	S.D. dependent var		1689.755
S.E. of regression	557.3574	Akaike info criterion		15.77863
Sum squared resid	2174531.	Schwarz criterion		15.98067
Log likelihood	-89.67176	Hannan-Quinn criter.		15.70382
F-statistic	23.52627	Durbin-Watson stat		1.371180
Prob(F-statistic)	0.000372			

Izoh: Bu yerda kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmiga elektr uskunalari ishlab chiqarish hajmi qo'shib hisoblangan ($Y_1+Y_2=Y_3$)

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik model tuzishda oldin omillar bo'yicha tavsifiy statistika o'tkazishda Eviews 10 dasturidan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati korxonalarining ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

Ushbu regression modelning tenglamasini quyidagicha keltirish mumkin:

$$Y_1 = -0,226X_1 + 0,009X_3 + 6303,9$$

O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati korxonalarining (Y_1) ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlarini interpretatsiya qiladigan bo'lsak, ceteris paribus holatda, mamlakatimizda muqobil energiya sifatida issiqlik energiyasi ishlab chiqarish hajmining 1 birlikka oshishi, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab

chiqarish hajmini 0,22 birlikka kamayishiga, hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmining 1 birlikka oshishi, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 0,009 birlikka ortishiga olib keladi.

5-jadval

O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati korxonalarining (Y₁) ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari

Dependent Variable: Y1
Method: Least Squares
Sample: 2010 2021
Included observations: 12

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	-0.226226	0.077630	-2.914152	0.0172
X3	0.009864	0.001255	7.859844	0.0000
C	6309.649	2334.633	2.702630	0.0243
R-squared	0.909748	Mean dependent var		1397.754
Adjusted R-squared	0.889692	S.D. dependent var		1689.755
S.E. of regression	561.2130	Akaike info criterion		15.71040
Sum squared resid	2834641.	Schwarz criterion		15.83162
Log likelihood	-91.26238	Hannan-Quinn criter.		15.66551
F-statistic	45.36030	Durbin-Watson stat		1.464740
Prob(F-statistic)	0.000020			

Ushbu modelning avkorrelyatsiyaga tekshirish testini o'tkazamiz. Bunda Breush-Godfri testi o'tkaziladi.

Agar qo'shni kuzatuvlarda korrelyatsiya mavjud bo'lsa, ushbu tenglamada

$$e_t = p * e_{t-1} + v_t, t = 1, \dots, n$$

(bu yerda e_t – eng kichik kvadratlar usuli orqali olingan regressiya qoldiqlari) p koeffitsiyenti noldan farqli bo'ladi.

Modelning avtokorrelyatsiyaga tekshiruv Breush-Godfri testi natijalariga ko'ra, ikkala lag ham (resid (-1) hamda resid (-2)) qiymati mos ravishda 0,5456 va 0,9910 ga teng bo'lib, tasodifiy chetlanishlarning avtokorrelyatsiyasi mavjud emasligi to'g'risidagi H_0 gipotezani qabul qilamiz. Ushbu test natijalariga ko'ra, regressiya qiymatlari (p) 0,05 dan katta bo'lib, geteroskedotastiklik mavjud emasligi to'g'risidagi H_0 gipotezani rad etamiz, muqobil gipoteza geteroskedotastiklik mavjud hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati (Y₂) korxonalarining ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlarini statistik jihatdan o'rganadigan bo'lsak, p-value qiymati X₁ (0,40), X₄ (0,41) va X₅ (0,41) larda statistik jihatdan ahamiyatli emasligi aniqlandi.

Ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud emasligini tekshirishning yana bitta usuli - bu VIF (Variance Inflation Factors - multikollinearlik samarasini) koeffitsiyentlarini hisoblashdir.

Mamlakatimizda muqobil energiya sifatida issiqlik energiyasi ishlab chiqarish hajmining 1 birlikka oshishi, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 0,22 birlikka

kamayishiga, hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi ning 1 birlikka oshishi, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 0,009 birlikka ortishiga olib keladi. Tadqiqotda taklif etilgan uslubiyotning aprotatsiyasi "O'zeltexsanoat" AJ tarkibidagi ikki korxonona – "Foton" AJ va "Zenit electronics" MCHJ misolida amalga oshiriladi.

6-jadval**O'zbekiston Respublikasi faoliyat yuritayotgan elektrotexnika sanoati (Y₂) korxonalarining ma'lumotlari bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari**

Dependent Variable: Y2
Method: Least Squares
Date: 05/15/22 Time: 09:50
Sample: 2010 2021
Included observations: 12

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	-0.087360	0.098556	-0.886401	0.4048
X3	0.021057	0.004675	4.504231	0.0028
X4	-9.569144	11.04001	-0.866769	0.4148
X5	0.099341	0.114871	0.864810	0.4158
C	-1975.224	6136.307	-0.321891	0.7569

R-squared	0.983803	Mean dependent var	3737.831
Adjusted R-squared	0.974547	S.D. dependent var	3633.994
S.E. of regression	579.7617	Akaike info criterion	15.85745
Sum squared resid	2352865.	Schwarz criterion	16.05949
Log likelihood	-90.14469	Hannan-Quinn criter.	15.78264
F-statistic	106.2944	Durbin-Watson stat	1.816978
Prob(F-statistic)	0.000002		

Iqtisodiy xavfsizlikni hisoblash uchun korxonalarining 2015-2021-yillardagi ishbilarmonlik faolligi, rentabelligi va moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlarini hisoblandi va ko'rsatkichlar solishtirildi. (7-jadval)

7-jadval**"Foton" AJning iqtisodiy xavfsizligini baholash natijalari**

Ko'rsatkichlar	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.
Mahsulot sotishdan tushgan tushum (ming so'm)	7910 839	1553116	13314336	15441144	17415383	21938584	23238695
Aktivlar (ming so'm)	56885541	5897461	6184168	8267529	8820772	9496156	9 794 340
O'z mablag'lari (ming so'm)	1114333	1114333	1114333	1114333	1114333	1114333	1114333

Ko'rsatkichlar	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.
Uzoq muddatli qarz mablag'lari (ming so'm)	59122	23650	774900	796597	818901	841831	841831
Kapital aylanish koeffitsiyenti	3,41	1,23	9,86	2,00	5,36	5,32	5,37
Tezroq kapital aylanish koeffitsiyenti	2,05	1,72	0,32	1,87	1,97	2,31	2,46
Qaytish koeffitsiyenti	2,05	1,72	0,32	1,87	1,97	2,31	2,46
O'z mablag'larini qaytish koeffitsiyenti	7,10	8,77	1,79	13,86	15,63	19,69	21,64
Mablag'larning qaytish koeffitsiyenti	1,08	0,93	0,12	1,08	1,52	2,50	2,58
Pul mablag'larining qaytish koeffitsiyenti	1,71	7,17	2,92	12,93	5,82	5,38	6,32
Hisob raqamdagi mablag'larning aylanish koeffitsiyenti	11,55	4,62	0,56	13,44	12,36	5,62	5,70
Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti	7,86	30,16	40,31	45,14	553,06	284,72	115,93
Birinchi formula bo'yicha ishchanlik faolligi	13,91	26,34	215,30	186,77	197,44	231,03	237,27
Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	0,289	0,196	0,180	0,135	0,126	0,117	0,364
Ishlab chiqilgan model bo'yicha iqtisodiy xavfsizlik koeffitsiyenti	0,009	0,015	0,000	0,409	6,868	6,011	6,261

“Foton” AJni ma'lumotlarini hisoblab quyidagi xulosaga keldik: oxirgi 7 yil ichida pul tushumlari ko'rsatkichlari sezilarli yaxshilangan, 2021-yilda bu ko'rsatkich 23 238 695,0 ming so'mga teng bo'lgan, korxonada aktivlari 3,1 foizga o'sganligi kuzatilgan, sof foyda musbat natijaga ega. Kapitalning umumiy aylanma koeffitsiyenti 2021-yilda 2015-yilga nisbatan 48,7% oshgan, mobil mablag'lar aylanma koeffitsiyenti 1,2% oshgan, mablag'lar aylanmasi koeffitsiyenti 2,39 martaga oshgan va kreditor qarzdorligi aylanma koeffitsiyenti 65,9 martagacha oshish tendensiyaga ega. Xulosa qilib aytganda iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti raqobat razvedkasi vositalari tatbiq etilgandan so'ng 0,25 koeffitsiyentga oshgan (7-jadval).

Natijada birinchi formula bo'yicha ish bilan muvofiqlik faolligi koeffitsiyenti 2021-yilda 2015-yilga nisbatan qariyb 17 martaga oshgan, moliyaviy barqarorlik 39,4%

kamaygan, biroq ishlab chiqilgan model bo'yicha hisoblangan iqtisodiy xavfsizlik koeffitsiyenti (2021-yilni olamiz) o'rta darajadagi holatini ko'rsatmoqda. (8-jadval)

8-jadval

“Zenit electronics” MCHJning iqtisodiy xavfsizligini baholash natijalari

Ko'rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.
Mahsulot sotishdan tushgan tushum (ming so'm)	12355632	2012061	2117969	2325512	10746393
Aktivlar (ming so'm)	2350925	3042048	4621094	4840000	4840000
O'z mablag'lari	14949000	14949000	14949000	14949000	14949000
Uzoq muddatli qarz mablag'lari (ming so'm)	20041075	20044833	20044833	19944833	19944833
Kapital aylanish koeffitsiyenti	0,10	0,11	0,19	0,17	0,18
Tezroq kapital aylanish koeffitsiyenti	0,37	0,36	0,19	0,22	0,35
Qaytish koeffitsiyenti	0,66	0,62	0,31	0,36	0,84
O'z mablag'larini qaytish koeffitsiyenti	0,84	0,84	0,50	0,54	0,59
Mablag'larning qaytish koeffitsiyenti	4,45	4,23	2,43	2,60	2,54
Pul mablag'larining qaytish koeffitsiyenti	28,97	1097,14	193,71	104,00	388,19
Hisob raqamdagi mablag'larning aylanish koeffitsiyenti	8,20	6,38	1,79	2,94	8,32
Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti	0,70	0,66	0,33	0,32	0,57
Birinchi formula bo'yicha ishchanlik faolligi	5,3	0,7	0,5	0,5	2,2
Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti	22,7	17,1	11,0	10,5	10,76
Ishlab chiqilgan model bo'yicha iqtisodiy xavfsizlik koeffitsiyenti	0,00001	0,00019	0,000001	0,000001	0,000025

Bundan keyin “Foton” AJni va “Zenit electronics” MCHJ bo'yicha moliyaviy baholash mezonlari hisoblab chiqilgan. “Zenit electronics” MCHJ ma'lumotlarini hisoblab quyidagi xulosaga kelamiz: 5 yil ichida pul tushumlari ko'rsatkichlari oshadi, lekin mahsulot tannarxi ko'tarilgani sababli foyda sezilarli darajada pasaydi, 2021-yilda pul tushumlari 110714,99 ming so'mga oshdi, korxonada aktivlari 125271,11 ming so'mga oshganligi kuzatildi, o'zining kapitali 6683,04 ming so'mga kamaydi, sof foyda esa manfiy natijaga ega. Ishlab chiqilgan model bo'yicha iqtisodiy xavfsizlik

ko'effitsiyenti hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkchilari korxonada raqobat razvedkasi vositalari tatbiq etilgandan keyin qariyb 0,25 ko'effitsiyentga oshganligini ko'rishimiz mumkin (8-jadval).

Tadqiqot natijalariga ko'ra moliyaviy ko'effitsiyentlar oshish tendensiyaga ega, ammo sof foydani, taqsimlanmagan foydani, o'zining kapitali pasayishi tufayli hisoblashda moddiy mablag'lar aylanishi ko'effitsiyenti, pul mablag'lari aylanmasi ko'effitsiyenti, mablag'lar aylanmasi ko'effitsiyentlari pasaydi. Natijada 2021-yilda 2017-yilga nisbatan ishbilarmonlik faolligi ko'effitsiyenti birinchi formula bo'yicha 2,82% oshdi ishlab chiqilgan model bo'yicha hisoblangan iqtisodiy xavfsizligi ko'effitsiyenti 2017-yildan to 2019-yilgacha manfiy tendensiyaga ega, faqat oxirgi uch yilda shkala bo'yicha daraja past, ya'ni korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash bo'yicha birorta chora sifatida raqobat razvedkasi vositalari taklif etilgan.

O'zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammosini hal qilish uchun ikkita variant mavjudligini ko'rsatadi.

1. Inersion ssenariy mamlakatning elektrotexnika sanoati kompleksi rivojlanishidagi mavjud tendensiyalarni hech qanday katta o'zgarishsiz mavjud rivojlanish dinamikasini saqlashni ta'minlaydi. Bu ichki bozorda import ulushining yanada oshishiga va keyinchalik ushbu tarmoq eksportini qisman qisqarishiga olib keladi.

2. Maqsadli modernizatsion ssenariysi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ilmiy-tadqiqot sohasida, korxonalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalash olib boriladi, korxonalarda raqobat razvedkasi faoliyati yo'lga qo'yiladi, tashqi va ichki muhitdagi xavf-xatarlarga qarshi strategiya ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Elektrotexnika sanoati sanoatining mahsulot ishlab chiqarish hajmini prognozlashning asosiy maqsadi mahsulot sotishdan tushgan sof tushum, aktivlar rentabelligi, mulk qiymatining oshishi, kimyo sanoati tarmog'ida ishlab chiqarish salohiyatidan maksimal foydalanilishi orqali erishiladigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblashdan iborat. O'zbekiston Respublikasida elektrotexnika sanoati tarmog'ida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning 2001-2021-yillardagi o'zgarishlari va ushbu asosiy vositalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi asosida istiqbolli o'zgarishlarni bir necha ssenariylarda prognozlash mumkin.

Elektrotexnika sanoati korxonalari ishlab chiqarish hajmining inersion ssenariy hamda rivojlanishning minimal kritik nuqtasi holatidagi prognozlash uchun regressiya funksiyalari asosida natijalar olindi. Olingan model (1) bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining ahamiyatliligi $R^2 = 0.88$ da $p \leq 0,05$ bo'lib, prognozni model bo'yicha olingan qiymatlari asosli ekanligini bildiradi.

Olingan regressiya modellari asosida inersion ssenariy elektr uskunalar ishlab chiqarish hajmi 2030 yilda 17237,3 mlrd. so'mni tashkil etishi, maqsadli modernizatsion ssenariy elektrotexnika sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2030 yilda 27715,5 mlrd. so'mni tashkil etishi aniqlandi (9-jadval).

9-jadval

O‘zbekiston Respublikasida elektr uskunalar hamda kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarishning 2030-yilgacha uchun prognoz ko‘rsatkichlari (mlrd.so‘m)

Yillar	O‘zbekiston Respublikasida elektr uskunalar ishlab chiqarishning 2030-yilgacha uchun prognoz ko‘rsatkichlari		O‘zbekiston Respublikasida kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarishning 2030-yilgacha uchun prognoz ko‘rsatkichlari	
	Inersion ssenariy	Maqsadli modernizatsion ssenariy	Inersion ssenariy	Maqsadli modernizatsion ssenariy
2022	9789,3	11942,0	3661,9	6708,5
2023	10720,3	13852,7	4010,2	7781,8
2024	11651,3	15515,0	4358,5	8793,5
2025	12582,3	17997,5	4706,8	10200,4
2026	13513,3	19784,0	5055,1	11242,9
2027	14444,3	21766,8	5403,4	12391,6
2028	15375,3	23749,7	5751,7	13540,3
2029	16306,3	25732,6	6100	14689,1
2030	17237,3	27715,5	6448,3	15837,8

Shuningdek, inersion ssenariy elektr uskunalar ishlab chiqarish hajmi 2030 yilda 6448,3 mlrd. so‘mni tashkil etishi, maqsadli modernizatsion ssenariy elektrotexnika sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2025 yilda 15837,8 mlrd. so‘mni tashkil etishi aniqlandi (9-jadval).

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, respublika bo‘yicha elektrotexnika sanoati tarmog‘ida 2030-yilgacha rejalashtirilayotgan modernizatsiya siyosati natijasida yuzaga keladigan optimistik ssenariy asosida rivojlanishi begilangan bo‘lib, uning quyidagi afzalliklari orqali amalga oshiriladi:

- iqtisodiyotning real sektori ilmiy-tadqiqot ishlari uchun xarajatlarning bir qismini moliyalashtirish orqali ilmiy-tadqiqot sohasida davlat-xususiy sheriklik aloqalarini rivojlantirish;

- litsenziya olish yoki ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadida mashinasozlik kompaniyalari jalb etadigan ssudalar bo‘yicha davlat kafolatlarini berish;

- korxonalarda marketing faoliyatini jadallashtirish, raqobat razvedkasini rivojlantirish.

Modernizatsion ssenariyni amalga oshirish natijasida quyidagi ijobiy natijalarga erishiladi:

- olib borilayotgan izlanishlar va ishlanmalarning muvofiqlashtirilishini kuchaytirish hisobiga yangi mahsulotlarni yaratish va yaratish muddatlarini qisqartirish;

- byudjetdan tashqari manbalardan qo‘shma moliyalashtirishning o‘sishi;

- investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish ehtimolini oshirish, tadqiqotlar va ishlanmalarning ustuvor yoʻnalishlarini tanlashning mantiqiyligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Stephen L. France, Sanjoy Ghose. Marketing analytics: Methods, practice, implementation, and links to other fields. Expert Systems with Applications. Volume 119, 1 April 2019, Pages 456-475. <https://doi.org/10.1016/j.eswa.2018.11.002>

2. <https://lex.uz/docs/5841063>

3. Talaoui Y. and Kohtamäki M. (2020), «35 years of research on business intelligence process: a synthesis of a fragmented literature», Management Research Review, Vol. ahead-of-print No. ahead-ofprint. DOI: <https://doi.org/10.1108/MRR-07-2020-0386>;

4. Nyanga C., Pansiri J. and Chatibura D. (2019), «Enhancing competitiveness in the tourism industry through the use of business intelligence: a literature review» // Journal of Tourism Futures. Vol. 6 No. 2, pp. 139-151. DOI: <https://doi.org/10.1108/JTF-11-2018-0069>;

5. Fahey L. (2007), «Connecting strategy and competitive intelligence: refocusing intelligence to produce critical strategy inputs», Strategic Direction, Vol. 23 No. 4. DOI: <https://doi.org/10.1108/sd.2007.05623dad.003>;

6. Platt W. Strategic Intelligence Production. Basic Principles. – New York: Frederic A. Praeger, 1957.

7. Доронин А. И. Бизнес-разведка. – М.: Ось-89, 2010. – 704 с.;

8. Лемке Г.Э. Коммерческая разведка для конкурентного превосходства. – М.: Московская Финансово-Промышленная Академия, 2011. – 352 с.;

9. Сатлер В.В. Использование конкурентной разведки для повышения конкурентоспособности предприятия [Электронный ресурс] // Актуальные вопросы экономических наук. – 2009. – С. 170-175.;

10. Губернаторов А.М., Корецкая Л.К. Конкурентная разведка как эффективный инструмент конкурентной борьбы // Экономика и управление: проблемы, решения. – 2018. – Т. 2. – № 11. – С. 24-28.;

11. Белова О.А., Сергеева И.А. Конкурентная разведка и промышленный шпионаж как инструмент конкурентной борьбы и обеспечения экономической безопасности // Сборники конференций НИЦ Социосфера. – 2020. – № 24. – С. 164-167.;

12. Степченко Т.С., Довбыш В.Е. Промышленный шпионаж и конкурентная разведка как современные методы изучения ситуации на рынке // Экономика и предпринимательство. – 2015. – № 11-1 (64). – С. 900-903.

TO‘QIMACHILIK KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Qobulov Sardor Sunnatilla o‘g‘li

TDIU, magistranti.

Tel: +998(99) 826 33 96

e-mail: alvon0212@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola raqamli marketingning to‘qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligiga ta‘sirini o‘rganadi. Maqolada onlayn platformalar va maqsadli strategiyalardan qanday foydalanish brend xabardorligini oshirishi, muayyan mijozlar segmentlariga erishishi va mijozlar bilan yanada mustahkam munosabatlarni rivojlantirishi mumkinligini o‘rganib chiqilgan. Ushbu tadqiqot yaxshi ishlab chiqilgan raqamli marketing yondashuvi to‘qimachilik kompaniyalariga zamonaviy bozorda raqobatbardosh ustunlikka ega bo‘lish uchun qanday imkoniyatlar yaratishi mumkinligini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli marketing, to‘qimachilik sanoati, raqobatbardoshlik, brenddan xabardorlik, mijozlarni segmentatsiyalash, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние цифрового маркетинга на конкурентоспособность текстильных предприятий. В статье исследуется, как использование онлайн-платформ и стратегий таргетинга может повысить узнаваемость бренда, охватить определенные сегменты клиентов и укрепить отношения с клиентами. В этом исследовании рассматривается, как хорошо продуманный подход к цифровому маркетингу может позволить текстильным компаниям получить конкурентное преимущество на современном рынке.

Ключевые слова. Цифровой маркетинг, текстильная промышленность, конкурентоспособность, узнаваемость бренда, сегментация клиентов, управление взаимоотношениями с клиентами

Abstract. This article examines the impact of digital marketing on the competitiveness of textile enterprises. The article explores how using online platforms and targeting strategies can increase brand awareness, reach specific customer segments, and develop stronger customer relationships. This study examines how a well-designed digital marketing approach can enable textile companies to gain a competitive advantage in today's market.

Keywords. Digital Marketing, Textile Industry, Competitiveness, Brand Awareness, Customer Segmentation, Customer Relationship Management

KIRISH

O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoati qadimdan rivojlangan tarmoq sifatida jahon mamlakatlari orasida o‘ziga xos qulay resurs imkoniyatlari va bozor muhiti shakllanganligi bilan ajralib turadi. To‘qimachilik sanoati aholining iste‘mol tovarlariga talabini qondirish, turmush darajasi, madaniyatini oshirish bilan birga boshqa sanoatni rivojlantirish uchun qo‘yishma mahsulotlar yetkazib beruvchi, mamlakatga asosiy valyuta tushumini ta‘minlashda ham hal qiluvchi tarmoq sifatida muhim o‘ringa ega.

To‘qimachilik sanoati ko‘p tarmoqli kompleks sifatida ip yigirish, tikuvchilik, trikotaj, ipakchilik sohalarini o‘zida qamrab oladi. O‘zbekiston mustaqilligining birinchi kunidan boshlab, aholining asosiy iste‘mol tovari hisoblangan to‘qimachilik, tikuv trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tubdan takomillashtirish, keyinchalik modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, so‘nggi yillarda esa innovatsion rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar asosida rivojlanmoqda.

To‘qimachilik sanoatining o‘ziga xos jihatlari sifatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga jahon bozorida doimiy talabning mavjudligi, mehnat sig‘imining yuqoriligi, sanoatning ekologik sofliqi, boshqa sanoat tarmoqlarini rivojlantirishdagi o‘rni yuqoriligi bilan ajralib turadi. To‘qimachilik sanoatda boshqa tarmoqlariga qaraganda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining keng faoliyatiga imkoniyatlar mavjud.

O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati iqtisodiyotining real sektorida yuqori ulushga ega bo‘lgan va ishlab chiqarish zanjirini to‘liq qamrab olgan yagona sanoat sohasi hisoblanadi.

Ushbu maqola to‘qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda raqamli marketing samaradorligini o‘rganadi. U raqamli marketing strategiyalari va ularni to‘qimachilik sanoatida qo‘llash bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganadi. Tegishli tadqiqotlarni ko‘rib chiqishdan so‘ng, munozarada raqamli marketing qanday qilib brend xabardorligini oshirishi, aniq mijozlar segmentlarini maqsad qilib qo‘yishi va mijozlar bilan mustahkam munosabatlarni rivojlantirishi tahlil qilinadi - bu raqobatbardosh to‘qimachilik bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun barcha muhim komponentlaridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

To‘qimachilik sanoati global kuchdir, ammo u kuchli raqobatga duch kelmoqda. Iste'molchilar butun dunyo bo‘ylab turli brendlarning keng to‘qimachilik mahsulotlaridan foydalanishlari mumkin. Ushbu dinamik landshaftda an'anaviy marketing usullari endi yetarli bo‘lmasligi mumkin. Raqamli marketing o‘zining maqsadli qamrovi va interaktiv imkoniyatlari bilan brend xabardorligini oshirish va raqobatdosh ustunlikni o‘rnatish uchun jozibali alternativni taqdim etadi.[1]


Bir nechta tadqiqotlar raqamli marketingning turli sohalariga ijobiy ta'sirini o‘rganib chiqdi. [2] raqamli marketing strategiyalarining mijozlar tajribasini

oshirishdagi roli muhim bo'lib, bu esa savdo samaradorligini oshirishga olib keladi. Mijozlarning tajribasiga e'tibor berish, ayniqsa, tovar imiji va iste'molchining idroki muhim rol o'ynaydigan to'qimachilik sanoati uchun dolzarbdir.

Xususan, to'qimachilik sohasida cheklangan tadqiqotlar mavjud, ammo mavjud tadqiqotlar raqamli marketing harakatlari va brend muvaffaqiyati o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni ko'rsatmoqda. [3] Ijtimoiy mediamarketingdan foydalanadigan to'qimachilik kompaniyalari maqsadli auditoriya bilan qanday samarali bog'langanligini va brendga sodiqlikni yaratganligini ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Ilmiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan holatlarni inobatga olgan holda, ushbu maqola quyidagi bosqichlarga ko'ra amalga oshiriladi



1-Rasm. Metodologik asos.¹

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli marketing tushunchasi

Raqamli marketing, asosan, elektron qurilmalar va onlayn kanallar yordamida mahsulot yoki xizmatlaringizni reklama qilish va targ'ib qilishni anglatadi. Ma'lumotlarni maqsadli auditoriya vaqtini o'tkazadigan joyga ya'ni internetga yetkazishdir.[4]

Raqamli marketingning ba'zi asosiy jihatlari quyida keltirilgan:

Kanallar: Ijtimoiy media platformalari (Facebook, Instagram va boshqalar), qidiruv tizimlari (SEO yoki pullik reklama orqali), elektron pochta marketingi, mobil ilovalar.

¹ Muallif ishlanmasi

Maqsadga erishish: an'anaviy marketing usullaridan farqli o'laroq, raqamli marketing lazerli fokus bilan ideal mijozlarni yo'naltirishga imkon beradi. Taklif qilayotgan narsalarga qiziqadigan mijozlarga erishish uchun demografiya, qiziqishlar, onlayn xatti-harakatlar va boshqalarni ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Ishtirok etish: raqamli marketing interaktivdir. Sharhlar, xabarlar va so'rovlar orqali auditoriya bilan bevosita bog'lanish mumkin bo'ladi. Natijada, ushbu ikki tomonlama aloqa kuchliroq munosabatlar va brendga sodiqlikni o'rnatadi.

O'lchash va kuzatish mumkin: Raqamli marketingning go'zalligi shundaki, deyarli hamma narsani kuzatish va o'lchash mumkin. Reklamani qancha odam ko'rganini, veb-saytingizga bosganini yoki savdoga aylantirilganini ko'rishingiz mumkin. Ushbu ma'lumotlar sizning kampaniyalaringizni doimiy ravishda takomillashtirish va investitsiya daromadini (ROI) optimallashtirish imkonini beradi[5].

Shunday qilib, siz kichik biznes yoki yirik korporatsiya bo'lasizmi, raqamli marketing auditoriyangiz bilan bog'lanish va marketing maqsadlaringizga erishishning kuchli usulini taklif qiladi.

Raqamli marketing raqobatdosh ustunlikka erishish uchun to'qimachilik korxonalarini tomonidan ishlatilishi mumkin bo'lgan noyob vositalar va strategiyalarni taklif etadi.

- Brend xabardorligini oshirish: ijtimoiy media va qidiruv tizimlari kabi raqamli marketing platformalari to'qimachilik mahsulotlarini namoyish qilish va brend tan olinishini yaratish uchun kuchli platformani taqdim etadi. Kontentni jalb qilish, ta'sir qiluvchi marketing kampaniyalari va maqsadli onlayn reklama ma'lum bir bozor segmentida brend xabardorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

- Muayyan mijozlar segmentlarini nishonlash: an'anaviy marketing usullaridan farqli o'laroq, raqamli marketing yuqori maqsadli kampaniyalarni amalga oshirish imkonini beradi. To'qimachilik kompaniyalari maqsadli auditoriyaning demografiyasi, afzalliklari va onlayn xatti-harakatlarini tushunish uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalanishlari mumkin. Bu ularga o'z xabarlarini va mahsulot takliflarini muayyan mijozlar segmentlariga moslashtirishga imkon beradi, bu esa ko'proq jalb qilish va konversiyalarga olib keladi.

- Mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirish: raqamli marketing to'qimachilik korxonalarini va ularning mijozlari o'rtasida ikki tomonlama aloqani ta'minlaydi. Ijtimoiy tarmoqlardagi o'zaro ta'sir, elektron pochta marketing kampaniyalari va sodiqlik dasturlari orqali kompaniyalar o'zlarining mijozlar bazasi bilan mustahkam aloqalar o'rnatishlari mumkin. Bu nafaqat brendga sodiqlikni rivojlantiradi, balki mahsulot ishlab chiqish va marketing strategiyalarini yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan qimmatli mijozlar tushunchalarini ham beradi.

Mavjud tadqiqotlar raqamli marketing va to'qimachilik sanoatidagi raqobatbardoshlik o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni ko'rsatsa-da, aniq ta'sirni aniqlash

uchun qo‘shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Kelgusi tadqiqot yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- to‘qimachilik kompaniyalari tomonidan amalga oshirilgan maxsus raqamli marketing kampaniyalarining muvaffaqiyatini tahlil qiluvchi amaliy tadqiqotlar.
- to‘qimachilik sohasida raqamli marketing tashabbuslarining investitsiya daromadini (ROI) o‘lchash uchun asosni ishlab chiqish.
- to‘qimachilik sanoatida sun‘iy intellekt va virtual reallik kabi rivojlanayotgan raqamli marketing yo‘nalishlarining samaradorligini o‘rganish.

Ushbu sohalarda qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish orqali global bozorda raqobatdosh ustunlikka erishish uchun raqamli marketingdan to‘qimachilik korxonalarini tomonidan qanday samarali foydalanish mumkinligi haqida kengroq tushunchaga ega bo‘lish mumkin.

Raqamli marketingning to‘qimachilik korxonalaridagi ahamiyati.

Hozirgi vaqtda yangi mijozlarni jalb qilish inqilobni boshdan kechirmoqda. Veb-saytlar, elektron pochta marketingi va ijtimoiy media marketing xizmatlari to‘qimachilik sanoatida tobora muhim rol o‘ynamoqda.[6]

To‘qimachilik korxonalarini samaradorligini oshirishda raqamli marketingning strategiyalari.

Raqamlashtirish davrida to‘qimachilik sanoatining ulkan marketing imkoniyatlari mavjud. To‘qimachilik sanoati uchun raqamli marketing brend haqida ma‘lumot berish uchun qulay joy sifatida kanallar va veb-saytlar bilan bog‘liqdir.

1- jadval¹

To‘qimachilik korxonalarini samaradorligini oshirishda raqamli marketingning strategiyalari

Veb-saytlar	Raqamli to‘qimachilik sanoati uchun veb-saytni tanlashda eng yaxshi istiqbol va maqsadga muvofiq funktsionallik asosiy elementlardir. Mahsulot va xizmat ko‘rsatish korxonalarini mijozlarni jalb qilish uchun yaxshi kommunikativ veb-saytni yaratishlari kerak bo‘ladi.
Mobil optimallashtirish	To‘qimachilik sanoati uchun raqamli marketing mobil qurilmalarga ko‘proq e‘tibor qaratmoqda. Endi butun dunyoda vazifalar Mobil bilan to‘ldirilgan. Iste‘molchilar mobil ilova orqali barcha xaridlarini bir necha soniya ichida bajarishi mumkin.
Biznes ro‘yxati	To‘qimachilik sanoati onlayn tarzda ishga tushirilgach, har qanday usulni taqdim etish biznes brendini eslab qolish va nomlash uchun yaxshi g‘oyadir. Bu qidiruv kataloglarini anglatadi. Biznes kataloglarining aksariyati bepul ro‘yxat sifatida keladi. Tejamkor biznes ta‘siri To‘qimachilik sanoati uchun asosiy afzallikdir.
Ijtimoiy tarmoqlar marketing	Ijtimoiy media biznes maqsadiga erishish uchun kuchli quroldir. To‘qimachilik sanoati uchun ushbu raqamli marketing xizmatida raqobatbardosh yo‘lda ishlashning ko‘plab usullari mavjud. Ijtimoiy media marketingi yordamida uzoq vaqt omon qolish va bo‘yinbog‘ga kurashda yaxshiroq mavqega ega bo‘lish mumkin.
Elektron pochta marketing	Biznes uchun elektron pochta xabarlari oxirgi foydalanuvchilar bilan bog‘lanishning mas‘uliyatli usulidir. Biroq, elektron pochta xabarlari biznes nomi bilan qabul qilinganda ko‘proq e‘tiborga sazovor bo‘ladi. Textile Marketing Automation-da mijozlarni yo‘qotish xavfini kamaytirish uchun siz elektron pochta marketingiga asosiy taxminlarni o‘zgartirishingiz mumkin.
WhatsApp marketing strategiyalari	Bugungi kunda yosh va keksa iste‘molchilar kiyim-kechak uchun tez va oson xarid qilishni kutishadi. Ko‘plab brendlar sotib olish uchun qo‘lda tanlash imkoniyatiga e‘tibor beradi. Ushbu ajoyib imkoniyatdan hozir foydalanish uchun sotuvchilar WhatsApp-ga to‘qimachilik sanoati uchun raqamli marketingda qo‘llaniladigan kuchli vosita sifatida sinchkovlik bilan ishonishadi.

¹ Muallif ishlanmasi

XULOSA VA TAVSIYALAR

Raqamli davrda, to‘qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rolga ega raqamli marketingning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Yuqorida izohlab o‘tilganidek, raqamli kanallar orqali aniq mijozlar segmentlarini yo‘naltirish, mijozlar bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatish va qimmatli ma'lumotlarga ega bo‘lish qobiliyati to‘qimachilik kompaniyalariga sanoatning dinamik landshaftini boshqarish imkoniyatini beradi. Maqolada maqsadli raqamli marketing strategiyalarini amalga oshiruvchi kompaniyalar brend xabardorligini, mijozlarni jalb qilishni va raqobatbardoshlikni oshirganligi haqida dastlabki dalillarni taqdim etdi. Keyinchalik kengroq miqyosdagi tadqiqotlar kafolatlangan bo‘lsa-da, topilmalar raqamli marketingning raqobatbardosh to‘qimachilik bozorida muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida muhim salohiyatini ta'kidlaydi. Innovatsion raqamli strategiyalarni qo‘llash va ularning onlayn mavjudligini doimiy ravishda takomillashtirib borish orqali to‘qimachilik korxonalarini doimiy ravishda rivojlanayotgan raqamli asrda sezilarli ustunlikka ega bo‘lishi va rivojlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[1] Rachmawati I., Widayani A., Normawati R. A. Indonesia’s MSEs on the Path to Digital Transformation //International Conference on Intellectuals’ Global Responsibility (ICIGR 2022). – Atlantis Press, 2023. – C. 549-556.

[2] Yasmin A. et al. Effectiveness of digital marketing in the challenging age: An empirical study //International journal of management science and business administration. – 2015. – T. 1. – №. 5. – C. 69-80.

[3] Avloqulova S. Improving the Efficiency of Industrial Enterprise Activities in the Age of Digital Technologies. – 2024.

[4] Otto M. et al. Increasing the economic efficiency of textile industry enterprises through digital technologies //qo ‘qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – T. 9. – C. 144-146.

[5] Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyoti jurnali. Tohrjonov Ahmadjon Tohirjon o‘g‘li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djuraevna

[6] A study on effectiveness of digital marketing services at digital marketing companies. Article in European Chemical Bulletin · January 2024. Densingh Joshua

[7] To‘qimachilik sanoati korxonalarini faoliyatini raqamlashtirishning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri. Baxodirov No‘monjon Kamolxonovich, Farg‘ona politexnika instituti mustaqil izlanuvchisi

INNOVATSION XIZMAT TURLARINI YARATISH VA JORIY ETISH SALOHİYATI

Djurayeva Dilnoza Davron qizi

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi, i.f.f.d (Phd)

Annotatsiya. Maqolada yangi xizmat koʻrsatish va innovatsion boshqaruvning zamonaviy holati, bu boradagi rivojlantirish masalalari tadqiq qilingan va tegishli tavsiyalar berilgan.

Kalit soʻzlar: Innovatsii, uslugi, produkt, innovatsii, innovatsii, innovatsionnye uslugi, innovatsionny menedjment, innovatsionnye uslugi

Аннотация. В статье рассмотрено современное состояние предоставления новых услуг и инновационного менеджмента, вопросы развития в этом направлении, даны соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: Инновации, услуги, продукт, инновации, инновации, инновационные услуги, инновационный менеджмент, инновационные услуги

Abstract. The article examines the current state of providing new services and innovative management, issues of development in this direction, and gives appropriate recommendations.

Keywords: Innovation, service, product, innovation, innovation capacity, innovation service, innovation management, innovation service

KIRISH

Xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirish orqali yangi ish oʻrinlari va qoʻshimcha mablagʻlarni jalb qilish imkoniyatlari ortib boradi. Xizmatlar sohasi oʻzida koʻplab oʻzaro bogʻliq sohalarning kompleks tizimini ifoda etuvchi, shu bilan bir paytda faoliyat turi hisoblanuvchi, salomatlik va kayfiyatni tiklash kabi maqsadlarni bajaruvchi, milliy iqtisodiyotning tarmogʻi, murakkab, koʻp qirrali tushunchadir. Xizmatlar industriyasi bir tomondan aholi ehtiyojlarini qondirish, dam olish, hordiq chiqarish, yangi taassurotlar olishni bildirsa, ikkinchi bir tomondan esa bu soha iqtisodiy jihatdan eng yuqori daromad keltiruvchi sohalardan biri boʻlib hisoblanadi.

Tadbirkorlik nuqtayi nazaridan tashkilotning holati, uning faoliyati, raqobatbardoshlik shartlari va xizmat narxlari, ishchilarning bilim darajasi hamda ularni ishlash mahoratlari va kapital mablagʻlarning yetarliligi orqali amalga oshiriladi.

Davlatimiz Rahbari tomonidan xizmatlar sohasini muhim drayverga aylantirish va 2023-yilga qadar xizmatlar hajmini ikki baravarga oshirish belgilandi. Pandemiya davrida umumiy ovqatlanish, savdo, turizm, transport sohalari uchun berilgan imtiyozlar muddati uzaytirildi. Natijada, 2021-yilda jami 18 trillion soʻmlik 29 mingta loyiha amalga oshirilib, xizmatlar sohasi 20 foizga oʻsgan[1]. Lekin shunga qaramasdan joylarda aholiga xizmat koʻrsatish darajasi pastligicha qolmoqda. Yangi

savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarida ish o'rinlari yaratish bo'yicha Toshkent shahri, Samarqand, Farg'ona, Andijon viloyatlari ijobiy natija ko'rsatgan bo'lsa, Jizzax, Navoiy, Xorazm, Qashqadaryodagi ishlar ahvoli esa qoniqarsiz[2].

Viloyat hokimlari oldiga tegishli idora va tashkilotlar bilan birga servis va xizmat ko'rsatish obyektlarida yaratilgan doimiy yangi ish o'rinlarini yarim 2022-yil yakuni bilan 300 mingga, yil yakuniga qadar esa 800 mingga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Misol uchun, Buxoro shahridagi tadbirkorlar eski shahardagi mehmonxona, oshxona, savdo do'konlarining tom qismida restoran va kafeteriyalar tashkil etgan. Shu kabi shaharning 8 ta markaziy ko'chasida joylashgan davlat tashkilotlarining 50 ga yaqin binolarining 1-qavatida 100 dan ziyod restoran va kafeteriyalar, servis joylarini tashkil etish imkoni mavjud. Viloyat hokimlariga Buxoro tajribasini 28 ta shahar, barcha tuman markazlari hamda poytaxt tumanlarida joriy qilish topshirildi. Ilmiy tadqiqotlarda innovatsiyalarni yangi xizmat turlarini yaratishga ta'siri o'rganilgan bo'lsa-da, ammo ilmiy-tadqiqot ishlarining ko'lami va natijadorligini oshirish asosida yangi ilmiy ishlanmalarni yaratish va yangi xizmat turlarini joriy etish muammolari ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish va innovatsion xizmatlar turlarini joriy etish bilan bog'liq bo'lgan muammolar D. Archibudji, P. Druker, A. Rummyanseva, Dj. Forrester, B. Lundval, N. Mazur, R. Nelson, V. Ivanov, Y. Shumpeter, R. Fatxuddinov, N. Rozenberg A. Porshneva, K. Puznya, G. Mensh va boshqa xorijlik iqtisodchi olimlarning[3] ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning umumiy jihatlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari S.S. G'ulomov, Sh.N. Zaynutdinov, A.Sh. Bekmurodov, B.B. Berkinov, N.Q. Yo'ldoshev, M.A. Mahkamova, R.I. Nurimbetov, A.F. Rasulov, A.M. Qodirov, Sh.I. Otajonov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan. ilmiy izlanishlar olib borganlar[4].

Bundan tashqari M. Pardayev, H. Musayev, I. Ochilov, N. Abdusalomova, B. Navruz-Zoda, O. Kim, A. Norchayev, B. Mirbabayev, S. Ro'ziyev, N. Raximova, A. Saidov, B. Safarov, N. Tuxliyev, T. Abdullayeva, B. To'rayev, O. Xamidov kabi o'zbek olimlarining ilmiy ishlari ham e'tiborga loyiq bo'lib, ular O'zbekistonda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, takomillashtirish muammolari nazariyasi va amaliyoti masalalariga keng e'tibor berishgan. Bunda hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish omillari, boshqarish masalalari o'rganilgan[5].

Ushbu ilmiy izlanishlar ilmiy-uslubiy manba bo'lsada, hozirgi kunda xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish samaradorligini oshirish, bunda innovatsion menejmentni joriy etish orqali innovatsion xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar deyarli amalga

oshirilmagan, tizimli yondashuv asosida yaxlit mustaqil tadqiqot ishi obyekt sifatida o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi hamda tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bloomberg 2021-yil yakunlariga ko'ra dunyoning eng innovatsion iqtisodiyotlari reytingini taqdim etdi. Reyting tuzishda Bloomberg ekspertlari yetti mezunga asoslanishdi - tadqiqotlarga ketgan xarajatlar, YAIMning foizlardagi ishlanmasi, YAIMdagi texnologik ishlab chiqarish qiymati, sanoatdagi samaradorlik, mamlakatdagi yuqori texnologiyalar sektoridagi kompaniyalar soni, xizmatlar ko'lamining rivojlanganligi, professional tadqiqotchilar va patentlar soni.

Ushbu reytingda g'oliblikni qo'ldan boy bermagan Janubiy Koreya yana birinchi o'ringa sazovor bo'ldi. Ikkinchi o'rin ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yaxshilangan Shvetsiyaga nasib etdi, mamlakat o'tgan yilgi natijaga nisbatan bir pog'ona yuqoriladi. Uchinchi o'rinni Germaniya egalladi, mamlakat bu yil Shvetsiyadan farqli o'laroq, bir pog'ona pastladi. Shveysariya bir pog'onaga ko'tarilib, to'rtinchi o'ringa munosib ko'rildi. Ikki pog'ona ko'tarilgan Finlyandiya esa bu yilgi reytingda beshinchi o'rinda qayd etildi. Singapur o'z o'rini saqlab qolib, bu yil ham oltinchi o'rinni band etdi. Yaponiya o'tgan yilgi pozitsiyasini yo'qotib, uch pog'ona pastladi va yettinchi o'rinni egalladi. Bir pog'onaga ko'tarilgan Daniya sakkizinchi o'rinda qayd etildi. To'qqizinchi o'rinni bir pozitsiya pastlagan Amerika Qo'shma Shtatlari band etdi. Kuchli o'nlik ro'yxatiga o'tgan yilgi reytingda 11-o'rinni egallagan Isroil davlati yakun yasadi.

Hozirda innovatsion taraqqiyotda an'anaga ko'ra innovatsiyalarning chiziqli modeli yetakchi rol o'ynab kelmoqda. Ushbu modelga ko'ra ishlab chiqilgan fundamental ilmiy g'oya amaliy tadqiqotlarda ro'yobga chiqadi. Amaliy tadqiqotlar innovatsiyalarning asosini tashkil etib, ularni amalga oshirish natijasida ilg'or texnologiyalar paydo bo'ladi. Ushbu model XX asrda ishlab chiqilgan bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda 21 asrda ham avvalgidek munosib o'rin egallab boraveradi. Rivojlangan mamlakatlarda chiziqli modelga qo'shimcha ravishda asta-sekin "innovatsiya manbalari modeli" joriy qilinayotgan bo'lib, unga muvofiq ravishda innovatsiyalar innovatsion tizimning istalgan qismida paydo bo'lishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirishning muhim elementi – yangi xizmat turlarini yaratishga qaratilgan ilmiy ishlanmalarni yaratishdan iboratdir. Tahlillarimizga ko'ra, 2018-2023-yillarda ilm-fan va innovatsion faoliyatga oid jami 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat – 2 ta Qonun, 8 ta Prezident Farmoni va 32 ta Qarori, Vazirlar Mahkamasining 45 ta qarori va 12 ta farmoyishi qabul qilindi. Natijada sohada raqobat, manfaatdorlik va javobgarlik muhiti shakllandi.

Jahon mamlakatlarining innovatsion rivojlanish tendensiyalarini belgilab

beradigan Global innovatsion indeks reytingida (Indeks) 2022-yilda o'tgan yilga nisbatan 4 ta pog'onaga ko'tarilib, 132 ta davlat orasida 82-o'rinni egalladi. 2015-yilga nisbatan O'zbekiston GIIda 40 pog'onaga ko'tarildi. 2023-yilda ham shu o'rin qayd etildi.

Ma'lumki, indeksda mamlakatimiz ilk bor 2015-yilda kiritilib, 141 ta mamlakat ichida 122-o'rinni egallagan. 2021-yilda respublikamiz 132 ta dunyo mamlakatlari ichida 86-o'ringa (+36) ko'tarilgan.

Bu yil Indeksda 4 ta daromad guruhi bo'yicha O'zbekiston quyi o'rta daromadli 36 ta davlat ichida 10-o'rinni egalladi. O'zbekiston ilk bor mintaqalar bo'yicha innovatsion iqtisodiyotlar tasnifida Markaziy va Janubiy osiyo mamlakatlari orasida 3-o'rinni egalladi (Hindiston – 1-o'rin, Eron – 2-o'rin).

2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi doirasida iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan jami 441 ta loyihadan 301 ta loyihani amalga oshirish ishlari boshlangan, 959,1 mlrd. so'mlik 53 ta loyihalar to'liq yakuniga yetkazilgan¹.

2022-2023-yillarda oliy ta'lim muassasalari tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha 58 ta oliy ta'lim muassasalarida 217,8 mlrd so'mlik 377 ta loyihani amalga oshirish bo'yicha nazorat-reja grafiklari tasdiqlandi².

Shuningdek, 2022-yilda 16 ta yangi innovatsion (spin-off) korxonalari to'liq ishga tushirildi. Mazkur korxonalar faoliyati doirasida 260 ga yaqin ishchi o'rinlari yaratilgan, 28 turdagi yangi mahsulot sotilmoqda va 39 turdagi xizmatlar ko'rsatilmoqda³.

Yangi infratuzilma obyektlarini joriy qilish va soha kadrlarni yetishtirish bo'yicha ishlar faol olib borilmoqda. Yurtimiz zo'r g'ayrat bilan jahon ilmiy hamjamiyatiga o'zini namoyon etmoqda, xorijiy hamkorlarimiz, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy rivojlanish institutlari bilan hamkorlik yo'nalishlarini doimiy ravishda kengaytirib, mustahkamlab bormoqdamiz. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi mexanizmi joriy etildi:

Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori qabul qilindi⁴;

2021-yilda ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq umumiy qiymati 116,8 mlrd. so'mlik 218 ta loyihalar moliyalashtirishga tavsiya etildi.

2022-yilda Germaniya, Turkiya, Rossiya va Belarus davlatlari bilan umumiy qiymati 6,9 mlrd. so'mlik 25 ta xalqaro qo'shma ilmiy loyihalar yakunlandi. 2021-yildan boshlab Turkiya, Xitoy va Hindiston davlatlari bilan umumiy qiymati 50,3 mlrd so'mlik 47 ta xalqaro qo'shma ilmiy loyihalarning bajarilishi boshlandi.

¹ Innovatsion rivojlanish vazirligi ma'lumotlari, 2022-yil

Energetika vazirligi, Davlat geologiya va mineral resurslar qoʻmitasi va Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasining jami 15,4 mlrd. soʻm mablagʻlari hisobidan ilmiy loyihalarni teng sheriklikda moliyalashtirish yuzasidan tanlovlar eʼlon qilindi. 2.3-jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, taʼlim sohasida tashkilotlarning soni deyarli uch barobar kam boʻlishiga qaramay, bu tashkilotlar tadqiqot faoliyatini olib borayotgan ikkinchi yirik yoʻnalish boʻlishiga toʻsqinlik qilmaydi. "Sanʼat, koʻngilochar va dam olish" va "ishlab chiqarish sanoati" sohalarida tashkilotlar soni yanada kam: 2021-yilda bu sohalarda tegishli ravishda 24 ta va 19 ta tashkilot faoliyat yuritgan. Biroq, ushbu sohaning texnologik oʻsishi past ekani haqida gapirish juda erta, chunki kelajakda bu ishlamalardan foydalanilishi ehtimoli bor. Odatda yuqori texnologiyalardan farqli ravishda uncha yuqori boʻlmagan texnologiyalarni qoʻllash osonroq kechadi, negaki yuqori texnologiyalar uchun texnologik jihatdan murakkab infratuzilma talab etiladi.

Xizmatlar sohasida innovatsion tadbirkorlik faoliyati katta risklar bilan bogʻliq boʻlsada, biroq yangi xizmat turini bozorda munosib oʻrin egallashi bilan olinadigan daromadni koʻp hollarda besh baravargacha ortiq boʻlishini koʻrishimiz mumkin.

Biroq sohani rivojlantirish davlat tomonidan qoʻshimcha qoʻllab quvvatlovlarisiz juda qiyin kechadi. Chunki katta tavakkalchilikka asoslangan yangi biznesga ham doim ham tadbirkorlar qiziqish bildirishmaydi.

Shuningdek, raqobatbardosh innovatsion xizmat turini kelgusida muvaffaqiyatli bozorda oʻrin egallashi uchun intellektual mulk obyektlarini himoyalash tizimini rivojlantirish talab etiladi. Chunki huquqiy jihatdan himoyalangan texnologiya asosida ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan) xizmat ham egalik huquqi asosidagi manfaatni paydo boʻlishiga hamda ishonchli marketing strategiyasini qoʻllashga imkon beradi. Bizning fikrimizcha, tadbirkorlik subyektlari tomonidan yangi innovatsion xizmat turlarini yaratishda mavjud salohiyatdan toʻliq foydalanilmayotgan holatlar ham mavjud. Tadqiqot ishida turli tarmoqlarda faoliyat koʻrsatayotgan klasterlarda yangi xizmat turlarini yaratish va joriy etish salohiyati tadqiq etildi (1-jadval)

1-jadval


Mavjud infratuzilmaviy, ilmiy-innovatsion salohiyatdan foydalangan holda klasterlar tomonidan innovatsion xizmat turlarini yaratish va joriy etish salohiyati tahlili¹

№	Klasterlar turlari	Soni	Biriktirilgan yer maydoni, ga	Yaratilishi taklif etilayotgan innovatsion xizmat turlari
1	Paxta-toʻqimachilik klasterlari	97	927 068	Yangi navni klasterlar bilan hamkorlikda patentlash va joriy etish mexanizmini tatbiq etish.
2	Gʻallachilik klasterlari	77	148 310	a) Yuqori samarador biologik oʻgʻitlar va preparatlarni klasterlarga ilmiy-servis xizmatlari asosida yetkazib berish (har bir oʻsimlik turi kesimida) va qoʻllash;
3	Meva-sabzavotchilik	147	116 156	

¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

№	Klasterlar turlari	Soni	Biriktirilgan yer maydoni, ga	Yaratilishi taklif etilayotgan innovatsion xizmat turlari
	klasterlari			
4	Sholichilik klasterlari	16	8 060	b) Yangi navlarni navdorlik standartlari talablariga muvofiq hamda hududiy iqlim va tuproq sharoitlariga mos tarzda tanlash v) Kasalliklardan himoya qilish bo'yicha tahlil va sinov xizmatlarini ko'rsatish.
5	Dorivor o'simliklar klasterlari	8	1 406	a) Dorivor o'simliklarni hudud va tuproq sharoitlariga mos agrotexnologiyasini yaratish; b) Yetishtirilgan dorivor o'simliklarni klasterlar buyurtmalari asosida farmatsevtika kompaniyalarining talablari asosida chuqur qayta ishlovchi servis-kompaniyalari tarmog'ini tashkil etish.

Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishda, birinchi navbatda, tashqi va ichki muhit parametrlarini taqiq etish, shu asosda korxonaning innovatsion salohiyatiga baho berish lozim. Eng asosiysi innovatsion xizmatlar yaratishning strategik rejalarini puxta ishlab chiqilishi innovatsion xizmat ko'rsatish jarayonlarini boshqarish tizimining samaradorligini belgilab beradi (1-rasm).



1-rasm. Innovatsion xizmatlar ko'rsatish jarayonlarini boshqarish tizimining

parametrlarini shakllantirishning asosiy shartlari¹

Ilg'or xorijiy texnologiyalarni transfer qilish mexanizmi ham sohada innovatsiyalar yaratishni tezlashtirishda yordam beradi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, misol uchun, Isroilning "Maya International" kompaniyasi bilan hamkorlikda uy-joy kommunal sohasida texnologiyalar transferi amalga oshirilgan. Unga ko'ra sun'iy yo'ldoshdan yuborilgan to'liq yordamida ichimlik suv quvurlaridagi yer osti ko'rinmas nosozliklarning joyini yo'l qoplamasini buzmasdan aniq belgilash bartaraf etish texnologiyasi joriy qilingan

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, hozirgi vaqtda O'zbekistonda mamlakat innovatsion tizimini tashkil etuvchi asosiy institutlar aniqlandi. Shuningdek, olimlarning jamiyatdagi mavqeyi oshirildi, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashda ijobiy natijalarga erishildi, yoshlarning innovatsion faoliyatda faol ishtiroki ta'minlandi, jahon tajribasiga asoslangan samarali va shaffof tarzda ilmiy loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari joriy etildi. Shu bilan birga, hozirgi kunda milliy innovatsion xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatini takomillashtirish hamda xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga katta ehtiyoj mavjud.

Xorijiy mutaxassislar innovatsiyaga yetaklovchi ijtimoiy, ekologik va barqaror, ya'ni zarar yetkazmaydigan tadbirkorlik omillariga e'tibor qaratishadi. Eng muhimi shundaki, bu innovatsiyalar ishlab chiqarish va ta'minot zanjiri orqali boshqa tashkilotlarga va mamlakatlarga tarqalmoqda. Yetakchi tashkilotlar o'z mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tortib, ularni utilizatsiya qilishgacha bo'lgan barcha jarayonlarda ekologiyaga va jamiyatga zarar yetkazmaslikka alohida e'tibor qaratishadi. Masalan, texnika ishlab chiqarilsa, unda energiya va ishlab chiqarishda qo'llaniladigan xom ashyolar tejamkorligini oshirishga e'tibor qaratiladi.

Qolaversa, G'arbdagi tushunchalarga ko'ra biznes nafaqat daromad olish balki jamiyatdagi muammolarni, masalan, qashshoqlik, ijtimoiy adolat, inson huquqlari, iqlim o'zgarishi kabi muammolarni hal etish bilan ham shug'ullanishi lozim. Bu masalalarni hal etishda esa innovatsion g'oyalarning o'rni juda muhimdir. Kelajakda tadbirkorlar muvaffaqiyatga erishish istagida bo'lsalar, aynan mana shu muammolarni yechishga qaratilgan innovatsion g'oyalarni tatbiq etishlari talab etiladi. O'zbekiston ham shu tariqa innovatsion ilg'or davlatlar safiga qo'shilish istagi bo'lsa, mamlakatda innovatsion tamoyillarni keng joriy etishi lozim bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, xizmatlar sohasiga oid innovatsiyalarni bozorda joriy etish ushbu yo'nalishda chuqur yangi bilimlarni yaratishni talab etadi. Tadqiqot ishi shuni ko'rsatadiki, innovatsion xizmatlar ko'rsatish sohasida yangi bilimlar asosida innovatsiyalar yaratish kadrlar tayyorlash jarayonidan tortib yangi bilim, ko'nikma va malakalarni yaratishning o'zaro aloqadarligini ta'minlab berishi zarur. Bunda yangi

¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

bilimlar asosida innovatsion xizmatlar yaratishning asosiy shartlaridan biri sifatida ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasini yaratish, doimiy yangilab borish va takomillashtirish, sohaga oid davlat siyosatini amalga oshirishni axborot bilan ta'minlash bo'yicha asoslangan taklif va tavsiyalarni tayyorlash maqsadga muvofiq.

Innovatsion xizmatlar yaratish sohalarida mavjud muammolarni va kelajakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavflarni hal etish, uzoq istiqboldagi rejalarga erishish, vazirlikning ustuvor faoliyat yo'nalishlarini rivojlantirish yuzasidan mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda, qisqa muddatli prognozlashtirish, tadqiqotlarni hamda "Forsayt" (Foresight - futures studies) tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish o'zining tezkor samarasini beradi.

Shuningdek, ilmmetrik (Scientometrics) tadqiqotlarni amalga oshirish, tadqiqotlar natijasida tahliliy materiallarni tayyorlash, ilmmetrik tadqiqotlarni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajriba asosida takliflarni tayyorlash hamda tadqiqot yo'nalishlarini to'g'ri belgilash asosida yangi xizmat turlarini yaratishga oid ilmiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash ham ekotizimni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, innovatsion xizmat ko'rsatish sohasini boshqarish mexanizmi innovatsion xizmat turlarini yaratish infratuzilmasi, tizimni boshqarish elementlari va funksiyalari, tartib va qoidalarni o'z ichiga olgan vositalar va jarayonlar majmuyidan iborat bo'lishi lozim.

Innovatsion xizmat ko'rsatish sohasini boshqarish mexanizmi asosida mazkur jarayonlarni alohida model asosida tizimli ravishda tashkil etish esa uning samaradorligini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2022 йил 7 июн куни хизматлар соҳасини ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган ишлар натижадорлиги бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги маърузаси. www.prezident.uz

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2022 йил 7 июн куни хизматлар соҳасини ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган ишлар натижадорлиги бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилишидаги маърузаси. www.prezident.uz

3. Archibudgi D., Howells J. and Michie J. (Ed.) Innovation policy in a global economy. –Cambridge, 2019; Bell, D.G. Knowledge markets and communities: two approaches for supporting product development teams. Invited talk at the Fordham Graduate School of Business CEUG Consortium. / D.G. Bell; 2011. –New York, NY.; Drucker P. Innovation and entrepreneurs: Practice and principles / P. Drucker. L.: Pan Books, 1986, p. 55.;

4. Отажонов Ш.И. Инновация фаолияти инфратузилмасини бошқариш самарадорлигини ошириш. -Т.: "Инновацион технологиялар", 2018. — Б.178;

5. Очилов И. Бозор муносабатлари шароитида хизматларнинг турлари ва

уларнинг таснифи. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари (монография) – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2008;

6. Зайнутдинов Ш.Н. Инновационный менеджмент. –Т.: Академия, 2006. – С.267; Зайнутдинов Ш.Н. Теория пять «И» или новая система факторов процветания государства. LAP LAMBERT Academic Publishing RU, 2018. –С. 49

7.Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982

8.Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент. – Спб.: Питер, 2001. – С. 41.
4 Борисов А.Б. Большой экономический словарь. – М.: Книжный мир, 2000. – С. 185. 5 Медынский В.Г. Инновационный менеджмент. – М.: ИНФРА-М, 2002. – С. 28.

9.Роль инновационного потенциала в развитии предприятий оборонно-промышленного комплекса. <http://elibrary.ru>

10.Медынский В.Г. Интернет ресурс. <https://rgsbm.uz/uploads/docs/3244120ca612727a>

11.Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. – Спб.: Питер, 2004. – С. 19.

Попов В.Л. Управление инновационными проектами. Учебное пособие. – С.: ИНФРА-М, 2009. – С.11. (С. 337).

12.Гимуш Р. И., Матмуродов Ф. М. Инновацион менеджмент: Иқтисодий олий ўқув юртлари учун ўқув кўл. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2008. – Б. 10. (144 б.)

13. Innovation Policy A Guide for Developing Countries. The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 1818 H Street, NW, 2010. – P.28. (P. 436.)

14. Показатели мирового развития. Экономика и рост. World Bank. [Электронный ресурс]. URL: <https://data.worldbank.org/indicator>.

15. Шумпетер Й. Теория экономического развития. М.: Изд-во Прогресс, 1982-79 с.

16. Друккер П.Ф. Классические работы по менеджменту. Пер. с англ. - М.: Альпина Бизнес Букс, 2008. – 220 с.

17. Инновацион ривожланиш вазирлиги маълумотлари, 2022 йил

18. Djurayeva D. D. et al. Scientific and methodological aspects of the formation of an innovative set of services //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 227-238.

19. Djuraeva D. D., Berdiyeva Z. M. Cultural heritage as a factor of human development (on the example of Uzbekistan) //Ученый XXI века. – 2016. – №. 5-2 (18). – С. 23-25.

20.Джураева Д. Д., Джураева Л. Р., Ниязов Л. Н. Мотивация как фактор развития потенциала учащихся в высших технических учебных заведениях //Актуальные проблемы социологии молодежи, культуры, образования и

управления. Т. 3.—Екатеринбург, 2014. – 2014.

21.Джураева Д. Д. К., Бердиева З. М. Культурное наследие как фактор развития человеческого потенциала (на примере Узбекистан) //Ученый XXI века. – 2016. – Т. 25.

22. Djurayeva D. D. et al. Scientific and methodological aspects of the formation of an innovative set of services //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 227-238.

23.Джураева Д. Д. Массовая культура и человеческий потенциал //Ученый XXI века. – 2017. – С. 99.

24.Джураева Д. Д. Рол инновационных идей и разработок в развитие услуг //Мировая наука. – 2019. – №. 4. – С. 278-281.

BIZNESNI BOSHQARISHDA STRATEGIK TAHLIL VA UNING AHAMIYATI

Sa'dullayeva Asalxon Muzaffarovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

sadullayevaasal0415@gmail.com

Annotatsiya. Biznes boshqaruvi (Business administration) — biznes faoliyatini boshqarish, menejment sohasining holati ishlab chiqarish samaradorligiga, texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatini oshirishga talab kundan kunga oshmoqdi. Buning uchun avvalo, menejmentning asl mohiyati ya'ni boshqaruv tizimi va boshqaruv obyekti orasidagi o'zaro munosabatni anglash, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rganish zamon talabiga aylandi. Kompaniyalar tomonidan asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun biznes analitika (Business Intelligence, BI) – bu turli manbalardan olingan ma'lumotlarni ko'rsatish usuli, foydalanish bo'yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borishni taqazo etadi. Biznesni kattalashtirish va mashtablashtirishni har doim tahlil natijalari va miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga asoslangan strategik reja bilan bog'lash kerak. Strategiyaning maqsadi ma'lumotlar yig'ish bo'lib, strategik tahlil esa atrof-muhitni tahlil qilish jarayonida olingan ma'lumotlarni tashkilotning strategiya rejasiga aylantirish vositasidir. Biznesni boshqarish va biznes analitikasi, strategik tahlil olib borishda miqdoriy usullar, rasmiy modellar va ma'lum bir tashkilotning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: biznesni boshqarish, tadbirkorlik va biznes, biznes analitika, strategik tahlil.

Аннотация. Бизнес-администрирование (Business Administration) – управление предпринимательской деятельностью, состояние сферы управления, требования к эффективности производства, техническому и технологическому уровню, качеству рабочей силы растут со временем. Понимая взаимосвязь системы управления и объекта управления, его основная задача состоит в изучении современных методов управления, секретов искусства лидерства. Бизнес-аналитика (BI) — метод представления информации из различных источников, который предполагает проведение научных и практических исследований по использованию компаниями для принятия обоснованных управленческих решений. Расширение и масштабирование бизнеса всегда должно быть связано со стратегическим планом, основанным на результатах анализа и количественных и качественных показателях. Целью стратегии является сбор информации, а стратегический анализ — это средство преобразования информации, полученной в процессе экологического анализа, в стратегический план организации. Учитывая эту потребность, одним из

наиболее актуальных вопросов является управление бизнесом и бизнес-аналитика, количественные методы, формальные модели, а также изучение и улучшение специфических характеристик конкретной организации.

Ключевые слова: управление бизнесом, предпринимательство и бизнес, бизнес-аналитика, стратегический анализ.

Abstract. Business Administration - management of business activities, the state of the management sphere, requirements for production efficiency, technical and technological level, and the quality of the workforce are growing over time. First of all, the interaction between the management system and the management object, and its main task is to study the modern methods of management, the secrets of the art of leadership. Business analytics (BI) is a method of presenting information from various sources, which involves conducting scientific and practical research on how companies can use it to make informed management decisions. Business expansion and scaling a business should always be linked to a strategic plan based on analysis results and quantitative and qualitative indicators. The purpose of strategy is to gather information, and strategic analysis is a means of transforming the information obtained through the environmental analysis process into the organization's strategic plan. Business management and business analytics, quantitative methods, formal models and the study and improvement of specific characteristics of a particular organization are among the urgent issues.

Keywords: business management, entrepreneurship and business, business analytics, strategic analysis.

KIRISH

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish, ma'naviy yangilanish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bugungi kunda har bir jamiyat a'zosining, ayniqsa, tadbirkorlar oldida biznes boshqaruvini o'rganish, uning analitikasini va strategik tahlilni amalga oshirish iqtisodiyot rivojiga ulkan ta'sir ko'rsata oladigan omil bo'lib qoldi. Biznesni boshqarish – kompaniya yoki tashkilotni samarali boshqarish va nazorat qilish jarayonidir. Biznes boshqaruvi ma'lumotlar tahlilining kichik to'plami rejalashtirish, boshqarish, operatsiyalar, o'lchash va o'rganish uchun tushunchalarni olish va faktlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini berish uchun texnologiyalar, usullar va raqamli ma'lumotlardan tizimli foydalanishni o'z ichiga oladi. Mijozlarning xulq-atvori, bozor tendensiyalari, ichki operatsiyalar va boshqa muhim biznes omillari haqida chuqur tushunchaga ega bo'lgan kompaniyalar raqobatchilarga qaraganda tezroq yangi imkoniyatlarni aniqlashlari va harakat qilishlari, samaradorlikni oshirishlari, xarajatlarni kamaytirishlari va strategik maqsadlarga erishishlari mumkin. PwC tadqiqotiga asoslanib, Garvard Biznes maktabi ma'lumotlariga ko'ra, biznes boshqaruviga asoslangan tashkilotlar unga kamroq

tayanadiganlarga qaraganda uch baravar ko‘proq muvafaqiyatli qarorlar qabul qilishlari va uning natijasida sezilarli yaxshilanishlarga erishishlari haqida hisobot berishadi. Katta, murakkab ma’lumotlar to‘plamida yashiringan qiymat biznes-tahlil tajribasiga ega bo‘lgan strategik biznes menejerlariga talabni oshiradi. Biznes-tahlil bo‘yicha ilg‘or biznes darajasiga ega bo‘lganlar ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha ko‘nikmalarga bo‘lgan bozor talabini qondirishlari mumkin. 2030 yilga kelib, AQSh Mehnat statistikasi byurosi (BLS) ma’lumotlariga ko‘ra, biznes menejerlariga ehtiyoj boshqa xodimlarning o‘rtacha ko‘rsatkichidan ancha tezroq oshadi. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib Business Management sirlarini bilib olish, Strategik tahlil olib borish va takomillashtirish kabi dolzarb vazifalar ko‘ndalang bo‘lib turibdi

ADABIYOTLAR SHARHI

Biznes va tadbirkorlik sohalari ko‘p hollarda «kichik» iqtisodiyot deb ataladi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, kichik biznes kelgusida yirik tadbirkorlikka, kichik tadbirkorlik esa yirik biznesga aylanishi mumkin. AQSH, Germaniya, Yaponiya va Koreyadagi ko‘plab avtomobil firmalari aynan shu yo‘lni bosib o‘tgan. Rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, AQSHda ishbilarmonlar va tadbirkorlar millatning «oltin fondi» hisoblanishi bejiz emas, bu mamlakatlarda xalq orasida tadbirkorlik ruhining so‘nmasligiga alohida e’tibor qaratiladi [1].

G‘ulomov S.S [2] strategik rejalashtirish bir vaqtda bajariladigan reja bosqichlari, bu bosqichlarni jarayonlar: tashkilot burchini shakllanishi, portfel strategiyasini shakllanishi, (bosh yo‘nalishlarni va umumiy maqsadlarni tanlash, tashkilotning ichki va tashqi muhitlarini tahlil qilish, muqobil o‘rinishni tanlash va bundan tashqari boshqaruv menejmenti, uning vazifalari va strategic rejalashtirishni takomillashtirish borasida izlanishlar olib borgan va chuqur yoritib bergan.

“Strategik rejalashtirish - bu raqobatbardoshlik afzalliklarini moliyalashtirish va rivojlantirish, unga erishish va saqlab qolishga olib keluvchi ichki va tashqi omillarni tatbiq qilish, korxonalar strategik holatini tahlili jarayonidir” [3]

“Tanlanayotgan strategiya qulay tashqi muhitdagi afzaliiklarni o‘l bilishi va tashqi xatarlardan ishonchli himoya qilishi, korxonaning kuchli taraflarini samarali ravishda kapitalizatsiyalashi va uning yordamida zaif jihatlarni bartaraf eta olishi kerak. Ammo tegishli tahlil o‘tkazishda foydalanish mumkin bo‘lgan analitik qurol hali hamon jiddiy rivojlanishga muhtoj” [4]

Maxmudov E.X., Isoqov M.Yu. biznes-reja korxonaning ishlab chiqarish sohasidagi strategiyasi, uning moddiy-texnik va moliyaviy (investitsiya) ta’minoti hamda moliyaviy natijalari aks ettiriluvchi asosiy hujjat sifatida ko‘rib chiqilib, biznes-reja mazmuni jihatidan raqobatbardoshlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan korxonalar faoliyatining turli tomonlarini kompleks tadqiq qilish, shunga ko‘ra biznes-rejalashtirishning dolzarbligini, biznes-rejaning asosiy bo‘limlarini tuzish va ko‘rsatkichlarini hisoblash uslubiyati, korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash,

tavakkalchilikni kamaytirish va biznesda muvaffaqiyatga erishish bo'yicha uslubiy tafsiyalar ishlab chiqishgan.[5]

“Biznes analitikasi tizimlarini tushunishga boshqaruv yondashuvini Ramesh Sharda, Dursun Delen, Efraim Turban[6] kelajakdagi menejerlarga analitikadan foydalanish va tushunishga yordam berish uchun Business Intelligence amaliy amaliyot bilan mustahkamlangan BIning mustahkam poydevorini taqdim etadi.”

Biznes analitikasi biznes tahlili va samaradorlikni boshqarish bilan birgalikda zamonaviy korxonada mavjud bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlarni tartibga solish orqali ma'lumotlarning ortiqcha yuklanishini yo'q qiladi. Ishbilarmonlik analitikasi operatsiyalari muammolarini hal qilish, ushbu resurs biznes qarorlarini yaxshiroq qabul qilish va amalga oshirilmagan imkoniyatlarni aniqlash maqsadini qo'llab-quvvatlash borasida John Boyer, Bill Frank, Brian Green, Tracy Harris, Kay Van De Vanter [7] tadqiqotlar olib borishgan.

Xo'djamuratova G.Yu. tadqiqotlarida strategik boshqarishni rejalashtirish va ijrosini ta'minlash usullarini qo'llay olish; strategik boshqarishda mavjud xavf-xatarlarni prognozlash va tahlil qilish mexanizmlari, korxonaning tashqi muhitidagi mavjud xavf-xatarlarni hisobga olish, raqobat muhitini tahlil qilish, strategik boshqarishni rejalashtirish usullarini tanlash; strategik boshqarishning ijrosini ta'minlash va ularning natijalaridan foydalanishga oid masalalar batafsil yoritilgan.[8]

Business intelligence (biznes-analitika) - aniq strukturaga ega bo'lmagan juda katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash natijasida muqobil biznes yechimlar izlashga aytiladi. Effektiv biznes-analitika ichki va tashqi ma'lumotlarni analiz qiladi - ham bozor axborotlarini, ham mijoz-kompaniyaning hisobotlarini hisobga oladi. Bu biznesni butunlay tushunishga yordam beradi, shu bilan birga, strategik va operatsion qarorlar qabul qilishga zamin yaratadi(mahsulot narxini aniqlashda, kompaniya rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilab olishda) [9]

Maamar Ferkun o'zining IBM bulutli hisoblash va biznes razvedkasi blogida "Biznes razvedkasi biznes haqida o'tmish va joriy tushunchalarni taqdim etadi", deydi. “Bu analitik va hisobotdan tortib ma'lumotlarni qazib olish va bashoratli tahlilgacha bo'lgan bir qator texnologiyalar va amaliyotlar orqali erishiladi. Muayyan vaqtda biznes haqida aniq tasavvurni taqdim etish orqali BI tashkilotga haqiqiy ma'lumotlarga asoslangan biznes strategiyasini ishlab chiqish vositalarini taqdim etadi.[10]

METODOLOGIYA

Biznesni boshqarish deganda biznes faoliyatini boshqarish bo'lib, menejment sohasining holati ishlab chiqarish samaradorligiga, texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi jarayon hisoblanadi. Boshqaruv — tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo'g'inlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat. Menejment nazariyasi va amaliyoti rivojlanishi turli xil qarashlarda o'z ifodasini topdi. Masalan, XX asrning 50—60-

yillarida asosiy e'tibor boshqarishning tashkiliy tuzilishiga qaratilgan bo'lsa, 60—70-yillarda strategik rejalashtirishdan strategik boshqarishga o'tish davri bo'ldi.

Biznes analitikasi (BI) bu korxonalar tomonidan ma'lumotlarni tahlil qilish va biznes ma'lumotlarini boshqarish uchun ishlatiladigan strategiyalar va texnologiyalardan iborat. Biznes analitikasi atamasi birinchi marta 1865 yilda muallif Richard Millar Devens tomonidan o'z raqobatchilaridan oldin bozorda razvedka ma'lumotlarini to'plagan bankirdan iqtibos keltirganida ishlatilgan. 1958 yilda Xans Peter Luhn ismli IBM kompyuter olimi biznes ma'lumotlarini to'plash uchun texnologiyadan foydalanish imkoniyatlarini o'rgandi. Uning tadqiqotlari IBMning dastlabki tahliliy platformalarini yaratish usullarini yaratishga yordam berdi. 1960 va 70-yillarda o'sib borayotgan hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va tartibga solish uchun birinchi ma'lumotlarni boshqarish tizimlari va qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari (DSS) ishlab chiqilgan.

Strategik tahlil (ba'zan strategik bozor tahlili deb ham ataladi) - bu kompaniya rahbarlariga ustuvorliklar va maqsadlar to'g'risida qaror qabul qilishda, biznes uchun uzoq muddatli strategiyani shakllantirishda (yoki o'zgartirishda) yordam beradigan ma'lumotlarni yig'ish jarayonidir. SWOT tahlili ichki strategik tahlilning eng mashhur usullaridan biridir. Loyihangiz zarar ko'rishi mumkin bo'lgan kuchli tomonlar, imkoniyatlar, zaif tomonlar va tahdidlarni aniqlash uchun foydalanishdan ko'ra strategik tahlildan foyda olishning eng yaxshi yo'lidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda har bir kompaniya va tashkilotlar o'zining management va tahlil siyosatini ishlab chiqib, o'z faoliyatini ushbu siyosat orqali yuritadilar. Ammo bundan oldin avval Biznes tushunchasining mohiyatini to'g'ri anglash lozim. Insonni biznesmen bo'lishiga majbur qilib bo'lmaydi, faqatgina uning o'z g'oya va kashfiyotlarini ishga solish uchun sharoit yaratish mumkin xolos. Lekin biznes bilan shug'ullanishdan avval quyidagi uchta muhim prinsiplarga rioya qilish zarur:

1. Biznes qonunlari va qoidalarini yaxshi bilish;
2. Zaruriy boshlang'ich kapitalga ega bo'lish;
3. Majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarish.

Shuni yodda tutish kerakki, biznes har doim muvaffaqiyat va foydali emas, balki ma'lum tavakkalchilik (risk) hamdir. Biznes bu – qattiq raqobat, kurash va o'z o'rniga ega bo'lish ishtiyoqi, o'z qobiliyati va iste'dodini namoyish qilishdir. Ba'zi iqtisodchilar biznes va tadbirkorlikka sinonim tushunchalar sifatida qaraydilar. Boshqalari esa ularni farqlaydilar.

1-jadval

Biznes va tadbirkorlik orasidagi farqlar

Biznes	Tadbirkorlik
1. Erishilgan yutuqni mustahkamlashga intilish, faoliyatning repproduktiv (qaytariluvchi) xarakteri	1. Tashabbuskorlik, faoliyatining izlanuvchanlik xarakteri, ijodkorlik va g'ayratlilik
2. Foydali (daromadli) ishga ega bo'lgan inson	2. G'oya va intilishga ega bo'lgan inson
3. Kapitalga ega shaxs	3. Boshlang'ich kapitalga ega bo'lmasligi mumkin
4. Menejer qobiliyatiga, doimiylikka intilishga ega hamda fikrlash va ishlarida konservator bo'lgan shaxs	4. Tavakkalchilikka moyil novator (yangilikka intiluvchan), tug'ma qobiliyatga ega bo'lgan shaxs
5. Kapitaldan daromad olish	5. Tadbirkorlik foydasini olish
6. Amaliyotda ko'p uchraydi	6. Amaliyotda nisbatan kamroq uchraydi

Ko'pgina kompaniyalar oydan oyga va yildan-yilga daromadni qanday oshirish haqida o'ylashdan to'xtamaydilar. Mahsulotlaringiz va xizmatlaringizni qanday yaxshilash, konversiyalarni oshirish, eng muhimi, bularning barchasini qanday tahlil (analitika) qilish kerak degan savol tug'iladi. Yechim Biznes analitika (Business Intelligence, BI) bo'lib, bu tushunchaning o'zi uzoq vaqtdan beri mavjud. Bozor munosabatlari paydo bo'lishi bilan odamlar ertaga, bir hafta yoki bir oy ichida qancha pul topishlari mumkinligi bilan qiziqqa boshladilar. Albatta, o'tmish va hozirgi tahlillar tubdan farq qiladi. Endi bu deyarli to'liq raqamlashtirilgan ma'lumot bo'lib, uni yig'ish va qayta ishlash ko'p hollarda avtomatik jarayondir. Ushbu kontsepsiyaning zamonaviy talqini shunday ko'rinadi. Biznes analitikani joriy etishning afzalliklarini sanab o'tamiz.

- Xodimlarning samaradorligini oshiradi. Biznes analitika bilan ishlashning eng muhim afzalliklaridan biri bu kompaniya xodimlarining faoliyatiga ta'sir qilish qobiliyatidir.

- Mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilaydi. Oldingi bandeda aytib o'tilgan «muvaqqiyatsizlik darajasi» ham mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Xodimlar bilan ishlash va nosozliklar foizini kamaytirish orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati oshadi. Va undan keyin muhim ko'rsatkich iste'molchining brendga sodiqligi hisoblanadi.

- Kutilayotgan foydani prognoz qiladi. O'tkazilgan biznes tahlilidan olingan ma'lumotlardan pul tushumlarini prognozlashda foydalanish mumkin. Bu sizga marketing byudjetini taqsimlash va biznesni kengaytirish xarajatlarini rejalashtirish imkonini beradi. Masalan, o'tgan yilning yozi uchun savdo ma'lumotlarini bilib, siz

mavsumiylik va iste'molchi qobiliyatini hisobga olgan holda taxminiy foydani taxmin qilishingiz mumkin. Ushbu ma'lumot reklama va xaridlar uchun to'g'ri miqdorni ajratishga yordam beradi va savdo bo'limi kerakli foyda uchun aniq rejalarni taqdim etadi. Taxminan ishlashdan ko'ra analitika ma'lumotlarni bilish ancha xotirjamroq va kompaniya bir oy yoki olti oy ichida qanday raqamlarni keltirishi mumkinligini tahlil qiling. Har qanday biznesning eng muhim elementlaridan biri bu tahlildir. Muayyan ko'rsatkichlarning ma'nosini tushunish uchun barcha o'zgarishlarni doimiy ravishda kuzatib borish muhimdir. Kompaniyaning kelajakdagi muvaffaqiyati to'g'ri o'tkazilgan analitika va undan keyingi strategik jihatdan to'g'ri qadamlarga bog'liq.

Strategik tahlilning asosiy vazifalaridan biri kompaniyaning raqobatbardoshlik darajasini aniqlashdir. Ushbu vazifani bajarishda kompaniyaning hozirgi paytda mavjud bo'lgan raqobatdosh afzalliklari haqida har tomonlama tushunchani shakllantirish juda muhimdir. Shuningdek, strategik tahlil kompaniya duch keladigan muammolarni aniqlashi, ularning paydo bo'lish sabablarini aniqlashi kerak. Bundan tashqari, muammolar iyerarxiyasini yaratish, ya'ni eng dolzarblarini aniqlash kerak. Shunday qilib, ularni hal qilish algoritmini oldindan belgilash zarur. Strategik tahlilning vazifasi - kompaniyaning ichki resurslarini har tomonlama tekshirish, kompaniyaning inson salohiyati to'g'risida aniq tasavvurni shakllantirish, kompaniyaning tuzilishi va uni o'zgartirish yo'llarini tavsiflash. Prognozlash strategik tahlilning o'ziga xos vazifasidir. Aslida, bu kompaniya joylashgan muhitning hozirgi tendensiyalari va shartlaridan foydalangan holda kompaniyaning kelajagini modellashtirishdir. Bu vazifani bajarish qisman kompaniyaning joriy strategik platformasi haqida tushuncha hosil qilishga yordam beradi.

Ma'lumotlar tahlilining strategik ahamiyatini tushunadigan korxonalar tendensiyalar va naqshlarni sharhlash, shart-sharoitlar o'zgarishi bilan rejalarni moslashtirish va raqobatdosh ustunliklarga ega bo'lish uchun ilg'or tahlil platformalariga sarmoya kiritadilar. Masalan, Grand View Research, bozor tadqiqoti va konsalting kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, AQSh sog'liqni saqlash sanoati 2023 va 2030 yillar oralig'ida 19,2% yillik o'sish sur'ati bilan tahlilga investitsiyalarni oshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biznesni boshqarish kuchli yetakchilik, tashkiliy va muammolarni hal qila olish qobiliyatini, shuningdek, moliyaviy, iqtisodiy va bozor tendensiyalarini tushunishni talab qiladi. Soha doimiy ravishda rivojlanib boradi va biznesni boshqarishda muvaffaqiyat ko'pincha tajriba, ta'lim, doimiy o'rganish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga tayyorlikni talab qiladi. Biznesingizni kengaytirganda siz tahlillardan foydalanishingiz kerak. Sotuv dinamikasini, reklama natijalarini va sotish konvertatsiyasini muntazam ravishda kuzatib borish muhimdir. Bu kuchli raqobatbardosh bozorda o'z o'rnini saqlab qolishning yagona yo'li. Kompaniya strategik tanlovni amalga oshirishi uchun u hozirgi paytda qanday holatda

ekanligini tushunishi kerak. Boshqacha aytganda, biz o‘z pozitsiyamizni aniqlab olishimiz, o‘zimiz uchun hozirgi strategik platformamizni rasmiylashtirishimiz kerak. Bu kompaniyaga o‘zini xuddi tashqaridan, “birovning ko‘zi bilan” ko‘rish imkonini beradi va shu bilan birga, ularning afzalliklari va kamchiliklarini eng aniq tushunadi. Albatta, biz biznes ko‘rsatkichlarini chuqur tahlil qilmasdan ishlashimiz mumkin, ammo bu yondashuv bilan biz kompaniyani masshtablashtirishingiz dargumon. Ishonchli va dolzarb ma’lumotlarsiz biznes deyarli «ko‘r-ko‘rona» oldinga siljiydi. Strategik sharoitlarning auditi har taraflama tahlil javoblariga tayangan holda korxonaning holati uning bozori, faoliyat tarmog‘i, shu bilan birga biznesning makromuhitini belgilab beruvchi tashqi sharoitlardan kelib chiqib o‘rganiladi. Bunda tahlil obyekti kelgan axborotning haqiqiyli vaqtincha va jismoniy imkoniyatlardan kelib chiqib, turli xil usullar va modellar qo‘llanilishi mumkin va zarur hisoblanadi. O‘ylaymizki, Biznesni kattalashtirish va masshtablashtirishni har doim tahlil natijalari va miqdoriy hamda sifat ko‘rsatkichlariga asoslangan strategik reja bilan bog‘lash orqali hamda biznes-tahlil bo‘yicha ilg‘or biznes darajasiga ega bo‘lganlar ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lgan bozor talabini qondiroladigan professionallarni strategik menejerlarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish biznes faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Isakov M.Yu. «Biznes-rejalashtirish» fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasi / «Iqtisodiy ta’limda o‘qitish texnologiyasi» seriyasidan. -T.: TDIU, 2007
2. G‘ulomov S.S. Menejment asoslari. - T., Sharq, 2002-y
3. Tursunov R.T, Hakimov N.X, Pulatov N.T. Biznes strategiyasi.
4. Стратегический менеджмент. / Под ред. А.Н. Петрова. — СПб.: Питер, 2008.
5. Maxmudov E.X., Isoqov M.Yu. Biznes - rejalashtirish. O‘quv qo‘llanma.
6. Business Intelligence: A Managerial Perspective on Analytics by Ramesh Sharda, Dursun Delen, Efraim Turban
7. Business Intelligence Strategy: A Practical Guide for Achieving BI Excellence by John Boyer, Bill Frank, Brian Green, Tracy Harris, Kay Van De Vanter
8. Xo‘djamuratova G.Yu. Strategik boshqarish. Darslik. –T.:«IQTISODIYOT», 2019. – 177 b.
9. D.T.Muhamediyeva. «BIGDATA muammolari va ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish masalalarini yechish algoritmlari». Monografiya
10. <https://www.ibm.com/topics/business-intelligence>

ASSESSMENT OF MARKET-SIGNIFICANT INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE MANAGEMENT OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE

Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi
Tashkent State University of Economics
avloqulova07@gmail.com

Abstract. The study aims to identify ICT groups that support management functions of industrial enterprises and to assess their significance based on how they contribute to achieving management efficiency. The importance of ICT in enterprise management is defined as its ability to enhance management efficiency through influencing the quality of information, the decision-making process, and management functions. Supply Chain Management (SCM) systems are highlighted as a significant ICT category for industrial enterprises, designed to optimize the distribution network by delivering the right products at the right time and cost. SCM systems aim to improve logistics, demand forecasting, purchasing plans, and overall service for suppliers and consumers. The article assesses SCM's impact on management efficiency through criteria such as quality of information, decision-making processes, and control functions across different management levels.

Key words: ICT, management, industrial enterprise, efficiency, CRM, SCM

Annotatsiya. Tadqiqot sanoat korxonalarining boshqaruv funksiyalarini qo‘llab-quvvatlovchi AKT guruhlarini aniqlash va boshqaruv samaradorligiga erishishga hissa qo‘shishi asosida ularning ahamiyatini baholashga qaratilgan. Korxonani boshqarishda AKTning ahamiyati uning axborot sifatiga, qarorlar qabul qilish jarayoniga va boshqaruv funksiyalariga ta’sir ko‘rsatish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish qobiliyati asoslangan. Ta'minot zanjiri boshqaruvi (SCM) tizimlari sanoat korxonolari uchun muhim AKT kategoriyasi sifatida ta'kidlangan bo'lib, ular mahsulotlarni to'g'ri vaqt va narxda yetkazib berish orqali tarqatish tarmog'ini optimallashtirishga mo'ljallangan. SCM tizimlari logistikan, talabni prognozlash, xarid rejalari va yetkazib beruvchilar va iste'molchilar uchun umumiy xizmatni yaxshilashga qaratilgan. Maqolada SCM ning boshqaruv samaradorligiga ta'siri axborot sifati, qaror qabul qilish jarayonlari va turli boshqaruv darajalaridagi nazorat funksiyalari kabi mezonlar orqali baholanadi.

Kalit so‘zlar: AKT, menejment, sanoat korxonasi, samaradorlik, CRM, SCM

Аннотация. Целью исследования является выявление групп ИКТ, поддерживающих управленческие функции промышленных предприятий, и оценка их значимости исходя из того, как они способствуют достижению эффективности управления. Важность ИКТ в управлении предприятием определяется как их способность повышать эффективность управления за счет

влияния на качество информации, процесс принятия решений и функции управления. Системы управления цепочками поставок (SCM) выделяются как важная категория ИКТ для промышленных предприятий, предназначенная для оптимизации распределительной сети путем доставки нужных продуктов в нужное время и по нужной цене. Системы SCM направлены на улучшение логистики, прогнозирования спроса, планов закупок и общего обслуживания поставщиков и потребителей. В статье оценивается влияние SCM на эффективность управления по таким критериям, как качество информации, процессы принятия решений и функции контроля на разных уровнях управления.

Mahalliy iqtisodchi olim D. Tadjibayevaning ilmiy ishlarida mikromoliyalashning nazariy va metodologik asoslari tadqiq qilingan va bir qator ilmiy xulosalar shakllantirilgan, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. (shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish joizki, mikromoliyalash, asosan, jismoniy shaxslar uchun qaratilgan bo'lib, u kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishdagi eng asosiy moliyaviy vositalardan biri hisoblanadi.). D. Tadjibayeva haqli ravishda e'tirof etadiki, mikromoliyalash tashkilotlarining tijorat banklari bilan hamkorligi nafaqat tijorat banklariga, balki ushbu tashkilotlarning o'zlari uchun ham foydalidir. Bu, birinchi navbatda, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Ayrim mamlakatlarda qonun yo'li bilan depozitlar jalb qilish, qimmatli qog'ozlarni chiqarish va fond birjalarida joylashtirishni taqiqlab qo'yilganligi, fond bozorining yetarli rivojlanmaganligi kabi iqtisodiy cheklovlar mavjud bo'lgan sharoitda, mikromoliyalash tashkilotlariga moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini bermaydi [6].

Mahalliy iqtisodchi olim J. Isakovning xulosasiga ko'ra, oxirgi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga xizmatlar sohasini rivojlantirish maqsadlariga berilgan kreditlar hajmining yuqori darajada oshganligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi: so'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlashga katta e'tibor qaratilayotganligi; respublikaning qator tumanlarida xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotining takomillashmaganligi natijasida mazkur sohaga tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar hajmining kichik bo'lganligi. Ta'kidlash joizki, tahlil qilingan davr mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi tijorat banklari tomonidan xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik biznes subyektlariga xizmatlar sohasini rivojlantirish maqsadlariga berilgan kreditlar miqdorining o'sish tendensiyasi saqlanib qoldi. Biroq xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun berilgan kreditlar miqdori va darajasining tuman va shaharlar o'rtasida keskin farqlanishi kuzatilmoqda [7]. Shu o'rinda aytib o'tmoqchimizki, kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishda, xizmatlar sohasi nihoyat darajada muhim rol o'ynaydi.

Yana bir mahalliy iqtisodchi olim I. Raxmonov o'zining ilmiy-tadqiqot ishida mamlakat tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish amaliyotini tahlil qilgan va ushbu amaliyotni takomillashtirish maqsadida respublika Markaziy bankining tijorat banklarining bir yilgacha muddatga jalb qilingan muddatli depozitlariga nisbatan belgilangan majburiy zaxira stavkalarini 50 foizga pasaytirish va mikromoliyalash tashkilotlarining tijorat banklaridagi muddatli depozitlarini Markaziy bankning majburiy zaxira talabnomasidan ozod qilish yo'li bilan tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va shu orqali banklar tomonidan kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan mikrolizing va mikro kredit xizmatlari hajmini oshirishni taklif qilgan [8]. Chunki, yuqorida aytib o'tganimizdek, mikromoliyaviy xizmatlar, asosan, jismoniy shaxslarga qaratilgan bo'lib, ularning orasida kam ta'minlangan aholi qatlami katta qismni tashkil qiladi.

E'tirof etish joizki, mahalliy iqtisodchi olimlardan N.Urmanova tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish yo'li bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini hamda aholini moliyalashtirishning tijoriy manbalaridan foydalanishni oshirish muammosini hal qilish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning xulosasiga ko'ra, mazkur muammoni hal qilish uchun tijorat banklari va nobank kredit tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish lozim: kafolatlashning turli instrumentlaridan (to'lovlarni deponentlash hisobraqami, mikro kreditlar "pul"i va boshqalar) foydalangan holda kredit munosabatlarini rivojlantirish; nobank kredit tashkilotlariga tijorat banklarining agenti funksiyasini bajarishga ruxsat berish; tijorat banklarining filiallar tarmog'idan mikro kredit tashkilotlarining faoliyatini amalga oshirish uchun foydalanish; tijorat banklari tomonidan mikro kredit tashkilotlarining mijozlariga qo'shimcha xizmatlar (depozit va lizing xizmatlari, pul o'tkazmalari) ko'rsatish [9]. Darvoqe, nobank kredit tashkilotlari, shu jumladan, mikromoliyaviy tashkilotlarning rivojlanishi kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish maqsadida kreditlashda ijobiy siljishni yuzaga keltiradi.

Boshqa bir mahalliy iqtisodchi olim I. Alimardonovning fikriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-fevraldagi "Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish Kafolat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2768-sonli Qaroriga muvofiq tashkil etilgan Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish Kafolat jamg'armasining resurs bazasini O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining 500 mln AQSH dollaridagi mablag'lari hisobidan ko'paytirib, ushbu mablag'lardan kichik biznes subyektlarining eksport va import operatsiyalari uchun banklar tomonidan beriladigan kreditlarning kafolati sifatida foydalanish lozim [10]. Fikrimizcha, I.Alimardonovning ushbu taklifi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, 2017-yilning sentyabr oyida valyuta siyosatining liberallashtirilishi munosabati bilan milliy valyutamiz - so'mning AQSH dollariga nisbatan qadri qariyb ikki barobar pasaydi. Bu esa, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish Kafolat jamg'armasining so'mda shakllantirilgan resurslarining keskin qadrsizlanishiga sabab bo'ldi. Kafolat jamg'armasi kabi tashkilotlar kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur ahamiyatga ega bo'lib, bu tabiiy ravishda, asosan, kichik tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan kam ta'minlangan aholi qatlamini yanada qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhidan ko'rinib turganidek, ham xorijlik, ham mahalliy iqtisodchi olimlar kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga keng miqyosda jalb etishga kreditlash tizimining muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tishgan.


METODOLOGIYA

Tadqiqotning maqsadi kam ta'minlangan aholi qatlamini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish holati, bunda kreditlash tizimidan foydalanishning amaldagi tahlili asosida ilmiy-nazariy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Tadqiqotda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va rasmiy internet ma'lumotlari undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlili, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish natijalari bilan belgilandi.

Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikni kreditlash kam ta'minlangan aholi qatlamida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Quyidagi rasm ma'lumotlari orqali respublikamizda kichik tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning miqdoriga e'tibor qaratamiz.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga 2019-2021-yillarda berilgan kreditlarning miqdori, mlrd so'm [11]

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamiz tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlar miqdori 2020-yilda 2019-yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan, ammo 2021-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Kichik tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar 2020-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarini, shu jumladan, aholining bandligini

ta'minlash va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun 281 mingdan ortiq loyihaga jami 48,4 trln so'm kredit mablag'lari ajratildi. Shu bilan birga, 2020-yilda xorijiy kredit liniyalari mablag'lari hisobidan tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining qariyb 17 mingta loyihagini moliyalashtirish uchun 2,9 mlrd AQSH dollari Mazkur kredit mablag'larining 1 925 mln. AQSH dollari (65 foiz) sanoat sohasiga, 479 mln. AQSH dollari (16 foiz) qishloq xo'jaligi sohasiga, 291 mln. AQSH dollari (10 foiz) savdo va umumiy ovqatlanish sohasiga hamda 255 mln. AQSH dollari (9 foiz) xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirildi. 2019-yilda: 2,1 mlrd AQSH dollari, 12 mingta loyiha miqdorida, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri (davlat kafolatisiz) jalb qilingan mablag'lar hisobidan 14 mingtadan ortiq loyihaga 2,5 mlrd AQSH dollari (84 foiz) miqdorida (2019-yilda: 1,57 mlrd AQSH dollari, 74 foiz) kreditlar ajratildi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida so'nggi 3 yil davomida jami 15,7 trln so'mdan ko'p imtiyozli kreditlar ajratildi va bu orqali 633 mingdan ziyod oilalar tadbirkorlikni yo'lga qo'yib, daromad topishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanishiga zamin yaratildi. Boshqacha qilib aytganda, respublika bo'yicha o'rta hisobda har ming xonadonning 94 tasi ushbu dasturlar doirasida o'z tadbirkorlik faoliyatlarini yo'lga qo'ydi. 2020-yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 215 mingta loyihaga jami 6,1 trln so'mdan ortiq imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi. Jumladan:

- "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida 184 mingga yaqin aholi va tadbirkorlik subyektlariga jami 4,8 trln so'm;

- hunarmandchilikni rivojlantirish, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini kengaytirish, mahalliy hokimliklar hamda aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturlar doirasida 25 mingga yaqin loyihalarga 785,7 mlrd so'm;

- yoshlarning biznes tashabbuslari va loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi mablag'lari hisobidan 1 818 ta loyihaga 427,8 mlrd so'm;

- xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish maqsadlariga Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hisobidan 4 615 ta loyihaga 95,7 mlrd so'm miqdorida kreditlar berildi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida ajratilgan kreditlarning 2,5 trln so'mi (41 foizi) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, 3,6 trln so'mi (59 foizi) o'zini o'zi band qiluvchi jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi.

Koronavirus pandemiyasi sababli moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularning dasturlar doirasidagi 1,1 trln so'mlik kreditlarining to'lov muddati 6 oyga (2020-yil 1-oktyabrga qadar) uzaytirildi.

2021-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarini, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash maqsadlari uchun 436 mingdan ortiq loyihaga jami 59,6 trln soʻm kredit mablagʻlari ajratilgan.

2021-yilda xorijiy kredit liniyalari mablagʻlari hisobidan tadbirkorlik subyektlarining qariyb 13,6 mingta loyahasini moliyalashtirish uchun 2,2 mlrd AQSH dollari miqdorida, jumladan, toʻgʻridan-toʻgʻri (davlat kafolatisiz) jalb qilingan mablagʻlar hisobidan 14 mingtadan ortiq loyihalarga 1,9 mlrd AQSH dollari (86 foiz) miqdorida kreditlar yoʻnaltirilgan. Mazkur kredit mablagʻlarining 1 420 mln. AQSH dollari (65 foiz) sanoat sohasi, 258 mln. AQSH dollari (12 foiz) qishloq xoʻjaligi sohasi, 253 mln. AQSH dollari (12 foiz) xizmat koʻrsatish sohasi hamda 250 mln. AQSH dollari (11 foiz) savdo va umumiy ovqatlanish sohasi subyektlariga berilgan.

2021-yilda Markaziy bank tomonidan “Yoshlarni qoʻllab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarida tijorat banklari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning oʻz vaqtida va sifatli ijrosi tizimli ravishda monitoring qilib borilmoqda. Bu borada asosiy eʼtibor mahalliy hokimliklar bilan birgalikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida yangi ish oʻrni yaratadigan, mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar koʻrsatish hajmini oshiradigan kichik loyihalar hamda aholini, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning bandligini taʼminlash va doimiy daromad manbalarini shakllanishiga xizmat qiladigan yoʻnalishlarga kreditlar ajratishga qaratilgan. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida soʻnggi 4 yilda jami 24,3 trln soʻmdan koʻp imtiyozli kreditlar ajratilgan va bu orqali 983 mingdan ziyod oilalarni tadbirkorlikni yoʻlga qoʻyib, daromad topishga qaratilgan faoliyat bilan shugʻullanishiga zamin yaratildi. Respublika boʻyicha oʻrta hisobda har ming xonadonning 110 tasi ushbu dasturlar doirasida oʻz tadbirkorlik faoliyatlarini yoʻlga qoʻydi.

2021-yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida 352 mingta loyihaga jami 8,6 trln soʻmdan ortiq imtiyozli kredit mablagʻlari ajratildi. Xususan, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida 150 mingtadan ortiq loyihaga 3,5 trln soʻm va xotin-qizlarning tadbirkorlik loyihalarini imtiyozli moliyalashtirish maqsadida 206 mingta loyihaga 3,8 trln soʻm kreditlar yoʻnaltirildi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida ajratilgan kreditlarning 1,8 trln soʻmi (20 foizi) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, 6,8 trln soʻmi (80 foizi) oʻzini-oʻzi band qilgan jismoniy shaxslar hissasiga toʻgʻri keladi. 2021-yilda dasturlar doirasidagi kreditlarning 37,8 foizi Agrobank, 37,1 foizi Xalq banki, 23,9 foizi Mikrokreditbank va 1,2 foizi Turonbank tomonidan ajratilgan.

Dasturlar doirasida kredit ajratish yuzasidan banklarning tegishli qaror qabul qilish jarayonini soddalashtirish va kredit ajratishda inson omilini kamaytirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrda PQ-55-son “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbayini

kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, mahalla fuqarolar yig‘ini bo‘yicha tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchisining o‘ziga birlashtirilgan mahallada istiqomat qilayotgan qarz oluvchiga beradigan xulosasi asosida kreditlar:

- to‘liq raqamlashgan holda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarining yagona elektron platformasi orqali ajratish;

- ajratilgan kreditlar hisobiga tovar va xizmatlarni bozor tamoyillari asosida erkin sotib olish yoki sotish yagona elektron platformada yaratilgan “marketpleys” tizimi yordamida amalga oshirish;

- hokim yordamchilari o‘z mahallalarida Dasturlar doirasida ajratilgan kreditlardan maqsadli foydalanilishini va ularning samaradorligini monitoring qilib borishi hamda kreditlarning o‘z vaqtida qaytarilishi bo‘yicha sektor rahbarlari va tijorat banklari bilan birgalikda tegishli choralarni ko‘rishi belgilab berildi.

Dasturlar doirasida 2021-yilda ajratilgan kreditlarning 1,7 trln so‘mi chorvachilik, 2,0 trln so‘mi xizmat ko‘rsatish, 2,5 trln so‘mi ishlab chiqarish sohasiga, 1,2 trln so‘mi issiqxona tashkil etish va rivojlantirishga hamda 1,2 trln so‘mi bog‘dorchilik, parrandachilik, quyonchilik, hunarmandchilik kabi maqsadlar uchun yo‘naltirildi.

Umuman olganda, kam ta‘minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishda kreditlash borasida yuqorida keltirilgan ijobiy siljishlar bilan birga bir qator muammolar ham mavjud bo‘lib, quyida ular xususida o‘z fikr-mulohazalarimizni bildirib o‘tamiz.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kreditlash amaliyotida berilgan kreditlarning imtiyozli davrida faqat kreditning foizi to‘lanadi, kreditning asosiy qarz summasi to‘lanmaydi.

Markaziy bankning 2003-yil oktyabrdagi “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to‘g‘risida”gi nizomida, tijorat banklarining ichki Kredit siyosatida ushbu tartib o‘z aksini topgan. Ammo bironta hujjatda kreditning imtiyozli davrida to‘lovlarni amalga oshirmaslik to‘g‘risida talab yoki ruxsat mavjud emas.

Tijorat banklari kredit oluvchi tadbirkorlik subyektiga ssuda schyoti ochgan kundan boshlab kreditga foiz hisoblashni boshlaydi. Bunda tijorat bankini kredit hisobiga tovar olindimi, olinmadimi, xorijiy valyutadagi mablag‘ kelib tushdimi, tushmadimi qiziqirmaydi. Bu borada kreditlash amaliyotida yuz bergan bir misolni keltirib o‘tmoqchimiz: Agrobankni mijozi bo‘lgan fermerlarga so‘mda berilgan kreditlar Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki orqali AQSH dollariga aylantirib xorijdan qoramol olish uchun xorijlik mol yetkazib beruvchiga to‘lab berilgan. Lekin qoramol kelmagan. Fermerlar esa haqiqatda ishlatmagan, foyda ko‘rmagan kreditiga 18 oy mobaynida foiz to‘lagan.

Berilgan kreditni muddatidan oldin qaytarish mumkinligi kredit shartnomasida ko‘rsatilishi kerak. Lekin ko‘pchilik tadbirkorlik subyektlarini huquqiy savodxonligi

yetishmaydi. Mana shu imkoniyatni kredit shartnomasiga kiritmaydi. Bu esa, kredit muddatidan oldin qaytarilganda, ularga nisbatan jarima qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

Tijorat banklari xorijdan jalb qilingan arzon kreditlarni qimmatlashtirib yubormoqda. Masalan, tijorat banki xorijdan AQSH dollarida 3% stavkada kredit oldi. Uni ustiga, 5-6 foiz qo‘yadi. Natijada, xorijiy valyutadagi kreditlar qimmatlashib ketadi. O‘zbekiston tijorat banklari xorijiy valyutada xorijiy banklardan jalb qiladigan kreditlarning foizini ustiga qo‘yadigan foiz stavkalarini cheklash kerak. Masalan, dollardagi 1,5 — 2 foizli marja tijorat banklari uchun normal daromad darajasi hisoblanadi. Agar shu darajada cheklov o‘rnatilsa, xorijiy valyutalardagi kreditlar respublikamizda qimmatlashib ketmaydi.

Respublikamizda inflyatsiya darajasini va milliy valyutaning qadrsizlanish sur‘atini yuqori ekanligi hamda tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning foiz stavkalarini yuqori ekanligi kam ta‘minlangan aholi qatlamida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga va tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan salbiy ta‘sirni yuzaga keltirmoqda.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida inflyatsiyaning yillik darajasi, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining va tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining o‘rtacha yillik foiz stavkalari [12]

(foizda)

Ko‘rsatkichlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Inflyatsiya darajasi	15,2	11,1	10,0
Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi	16,0	14,0	14,0
Tijorat banklarining milliy valyutadagi kreditlarining foiz stavkasi	24,2	22,3	20,8

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamizda 2019-2021-yillarda inflyatsiya darajasini nisbatan yuqori bo‘lganligi Markaziy bankka qayta moliyalash stavkasini sezilarli darajada pasaytirish imkonini bermagan. Ushbu ikkala omil mazkur davrda tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kreditlarining foiz stavkalarini nisbatan yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Kam ta‘minlangan aholi qatlamlarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishni takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolardan biri – bu aholini moliya bozori va moliya bozori instrumentlari to‘g‘risida yetarli bilimlarga ega emasligidir.

Kam ta‘minlangan aholi qatlamlarining kredit turlari va shakllari to‘g‘risidagi bilimlari juda sayoz. Ularning kreditning har bir turi va shakliga xos bo‘lgan xususiyatlarni bilishmaydi.

Hozirgi davrda tijorat banklari faoliyatida kreditlashning quyidagi shakllari mavjud: mijozni alohida ssuda hisobraqamidan bir marotabalik kreditlash; kredit

liniyasi ochish yo‘li bilan kreditlash; overdraft usulida kreditlash; kontokorrent usulida kreditlash; kreditlashning faktoring shakli.

Shuningdek, kam ta‘minlangan aholi qatlamida valyuta bozori va sug‘urta bozorining moliyaviy instrumentlari to‘g‘risida ham yetarli nazariy bilimlar mavjud emas.

Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan Kliring hisob-kitoblar asnosida QR-kodlar tizimi ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, xalqaro tajribadan kelib chiqib, Markaziy bankning tezkor to‘lovlar tizimini joriy etishning mahalliy modeli ishlab chiqildi. Bu tizimni joriy etishdan maqsad – jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan banklararo to‘lovlarni uzluksiz real vaqt rejimida amalga oshiradigan innovatsion to‘lov xizmatini yaratishdir. Moliya bozorining infratuzilmasiga to‘xtalganda, bankning risk-menejmenti (risklarni boshqarish) sifati masalasini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Kredit tashkilotlarida potensial qarz oluvchilar to‘g‘risidagi axborotning yetishmasligiga barham berish, shuningdek, kredit bozorida raqobatni rivojlantirish maqsadida Kredit byurosi va kredit axboroti almashinuvi tizimi modernizatsiya qilindi. Ko‘plab tashkilotlarning ma‘lumotini qamrab olib, tahlil etuvchi kredit skoringi yo‘lga qo‘yildi. Yaratilgan shart-sharoitlar va moliya bozori mahsulotlaridan samarali foydalanish aholining moliyaviy savodxonligi darajasi va iste‘molchilar huquqlarining qanchalik himoya qilingani bilan bevosita bog‘liq. Ushbu omillar moliya muassasalari va mijozlarning istiqboldagi o‘zaro hamkorligiga asos bo‘ladi.

Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida ham katta ishlar amalga oshirildi, birinchi navbatda, biz O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunini yangi tahrirda qabul qildik. Hujjatda moliya xizmatlari iste‘molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasiga bag‘ishlangan alohida bob kiritildi. Endilikda qonunning bank talablariga muvofiq, xizmatlarni taqdim etish shartlari, jumladan, komission haqlar, tariflar va foiz stavkalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bankning rasmiy veb-saytida majburiy tartibda joylashtiriladigan bo‘ldi. Shuningdek, banklarda koll-markazlarning bo‘lishi, veb-saytlarda iste‘molchilardan shikoyatlar qabul qilish vositalari bo‘lishi to‘g‘risidagi talablar belgilangan. Kreditlarning shartlarini taqqoslash uchun shart-sharoit yaratish hamda iste‘molchi uchun ma‘qul kreditni tanlash maqsadida kreditlarning asosiy ma‘lumotlari to‘g‘risidagi axborot varaqalari joriy etildi. Shu bilan birga, iste‘mol krediti va mikroqarzni to‘liq qiymatini hisoblash metodologiyasi ishlab chiqildi va yo‘lga qo‘yildi.

Iste‘molchilarga ortiqcha qarz yukini yuklamaslik maqsadida kredit tashkilotlariga mikroqarz kelishuvlari, shuningdek, lombardlar tomonidan yiliga qarz hajmining yarmidan ko‘proq summasida kelishilgan kredit kelishuvlari bo‘yicha foizlarni hisoblash, komissiya olish va neustoyka (shtraf, penya) qonunchilik asosida taqiqlangan. Shuningdek, banklar tomonidan kredit arizalarini ko‘rib chiqish uchun olinadigan turli komission to‘lovlar, ssuda hisob raqamlariga xizmat ko‘rsatish,

kreditlar ajratish hamda jismoniy shaxslar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan kreditlarni (mikroqarzlarni) muddatidan oldin to'laganlik uchun neustoyka olish ta'qiqlandi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasidagi barcha ko'riladigan choralar aholining xabardorlik darajasini oshirish maqsadida ta'lim tadbirlari bilan birga olib boriladi. Bundan tashqari, biz kichik yoshdan boshlab, keksa yoshgacha uzluksiz ta'lim bilan ta'minlovchi hamda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish imkonini beruvchi tizimni yo'lga qo'yish uchun asos yaratish ustida ish olib borilmoqda. Shunday qilib, qisqa vaqt mobaynida moliyaviy ommaboplik sohasida ancha katta ishlar amalga oshirildi, ammo istiqbolda yana qilinadigan ishlar ko'p. Shu bois yaqin kelajakda bizning ustuvor yo'nalishlarimizni belgilab beruvchi strategiya ishlab chiqilmoqda.

Umuman olganda, mamlakatimizda kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etishda kreditlash amaliyotini rivojlantirish borasida ijobiy siljishlar bilan bir qatorda muammo va kamchiliklar ham mavjud bo'lib, mamlakatimiz hukumati tomonidan bularni bartaraf etish yo'lida ko'plab chora-tadbirlar qo'llanib kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishda kreditlash amaliyotidan foydalanish borasida bir qator dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- aholini kreditlash amaliyotidagi umumiy muammolar (kreditlarning imtiyozli davrida foiz to'lovlarini to'lanayotganligi, tijorat banklari kredit oluvchi tadbirkorlik subyektiga ssuda schyoti ochgan kundan boshlab kreditga foiz hisoblashni boshlashi va boshqalar);

- respublikamizda inflyatsiya darajasini va milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori ekanligi hamda tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning foiz stavkalarini yuqori ekanligi natijasida kam ta'minlangan aholi qatlamining tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga va tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga kelayotganligi;

- kam ta'minlangan aholi qatlamining moliya bozori va moliya bozori instrumentlari to'g'risida yetarli bilimlarga ega emasligi.

Kam ta'minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishda kreditlash tizimini takomillashtirish borasida quyidagi takliflarni keltirib o'tmoqchimiz:

1. Kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun kreditlashning alohida tizimini shakllantirish lozim va ushbu kreditlash tizimini an'anaviy kreditlash tizimidan quyidagi jihatlari bilan farq qilishi lozim:

- kam ta'minlangan aholi qatlamiga mansub bo'lgan fuqarolarga berilgan imtiyozli kreditlarning imtiyozli davrida foiz to'lovi ham to'lanmasligi kerak;

- kreditlarni davlat mablagʻlari hisobidan bonifikatsiya qilish usuli keng qoʻllaniladigan usul boʻlishi kerak;

- kam taʼminlangan aholi qatlamiga beriladigan kreditlarning taʼminoti sifatida faqat uchinchi shaxsning kafilligidan va yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan korxonalarining kafolatlaridan foydalanish lozim.

2. Kam taʼminlangan aholi qatlamlarida tadbirkorlik koʻnikmalarini shakllantirish maqsadida tashkil qilinadigan nazariy va amaliy mashgʻulotlarni yuqori darajada sifatli, qiziqarli va motivatsion ruhda tashkil qilishga eʼtiborni qaratish lozim.

3. Kam taʼminlangan aholi qatlamlarining moliya bozori va moliya instrumentlari toʻgʻrisidagi bilimlarini oshirish maqsadida yuqori bilim va malakaga ega boʻlgan mutaxassislarni jalb etish orqali maxsus moliyaviy savodxonlik kurslarini tashkil qilish lozim.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, kam taʼminlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish maqsadida kreditlash amaliyotini yanada takomillashtirish mamlakatimizda biznes muhiti sifatining oshishiga va aholi daromadining yanada koʻpayishiga muhim turtki boʻla oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 13 октябрдаги ПҚ-4862-сонли қарори. Аҳолини тadbirkorликка жалб қилиш тизимини такомиллаштириш ва тadbirkorликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида//www.lex.uz.

2. Шумпетер Й. Основы предпринимательства. Перс. с нем. – М.: Дело, 1974. – С.132

3. Мухаммад Юнус, Алан Жоли. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Перс. с англ. – М.: Альпина Паблишерз, 2010. – С. 307

4. Chanel-Reynaud G., Bloy E. La Banque et le risqué PME. – Presses Universitaires de Lyon, 2001. – P. 39-40.

5. Фигуровская Н. Современное состояние сельского хозяйства требует результативных действий государства//Экономист. – Москва, 2009. – №8. – С. 43.

6. Таджибаева. Д.А, Муминов. И.О. Микрофинансирование: руководство для микрофинансовых организаций//Тошкент: Молия, 2009. – С. 203.

7. Исаков Ж.Я. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда кредит самарадорлигини ошириш. И.ф.д автореф. – Тошкент, 2016. – Б. 19-20.

8. Рахмонов И.Х. Ўзбекистон Республикасида микромолиявий хизматларни такомиллаштириш йўллари. И.ф.н. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б. 16.

9. Урманова Н.Р. Перспективы развития микрофинансирования в Узбекистане. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – Тошкент, 2012. – С.20.

10. Алимардонов И.М. Кичик бизнес субъектларини кредитлашнинг услубий ва амалий асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. илм. дар. ол. уч. тақд.эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – Б.29.

11. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг статистик маълумотлари//www.cbu.uz

12. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг статистик маълумотлари//www.cbu.uz

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN BIZNES FAOLIYATINI KREDITLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Sultanov Baxram Begdullayevich
Qoraqalpaq davlat universiteti
bakhram9009@mail.ru

Annotatsiya. Tijorat banklarining investitsion kreditlari korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish xarajatlarini moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi. Lekin sanoat korxonalarining tijorat banklarining investitsion kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish uchun banklar yetarli darajada resurslarga ega bo‘lishi, sanoat korxonalarini esa investitsion kreditlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolar aniqlangan va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: tijorat banki, kredit, investitsion kredit, zaxira, foiz stavkasi, inflyatsiya, resurs, sanoat korxonasi, likvidlilik, to‘lovga qobillik.

Аннотация. Инвестиционные кредиты коммерческих банков являются важным источником финансирования затрат на модернизацию предприятий, техническое и технологическое перевооружение. Но для того, чтобы повысить уровень использования инвестиционных кредитов коммерческих банков промышленными предприятиями, банки должны обладать достаточными ресурсами, а промышленные предприятия должны иметь возможность возвращать инвестиционные кредиты вовремя и в полном объеме. В статье выявлены актуальные проблемы, связанные с совершенствованием практики кредитования предприятий коммерческими банками Республики Узбекистан, и разработаны научные предложения, направленные на их решение.

Ключевые слова: коммерческий банк, кредит, инвестиционный кредит, резерв, процентная ставка, инфляция, ресурс, промышленное предприятие, ликвидность, платежеспособность.

Abstract. Investment loans from commercial banks are an important source of financing the costs of modernization of enterprises, technical and technological re - equipment. But in order to increase the level of use of investment loans from commercial banks by industrial enterprises, banks must have sufficient resources, and industrial enterprises must be able to repay investment loans on time and in full.

The article identifies current problems related to improving the practice of crediting enterprises by commercial banks of the Republic of Uzbekistan, and develops scientific proposals aimed at solving them.

Keywords: commercial bank, loan, investment loan, reserve, interest rate, inflation, resource, industrial enterprise, liquidity, solvency.

KIRISH

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida istiqbolli investitsiya loyihalarini hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni kengaytirish makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlab qolishning zaruriy shartlaridan biri sifatida e‘tirof etilgan (PQ-4947).

Shuningdek, 2020 - 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida tijorat banklari kreditlari hajmining mo‘tadil o‘shishiga erishish mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan (PF-5992).

Yuqorida qayd etilgan holatlar tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish masalasini ilmiy asosda tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Uerta de Soto (Soto, 2008) tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijasi ko‘rsatdiki, tijorat banklari investitsion kreditlarining foiz stavkalarini pasayishi bunga qadar foyda keltirmayotgan investitsiya loyihalarini foyda keltiradigan investitsiya loyihalariga aylantiradi va banklar tomonidan ixtiyoriy jamg‘armalar bilan ta‘minlanmagan kreditlar hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirilishi natijasida investitsiya loyihalarining barbod bo‘lishi va berilgan kreditlarning qaytmasligi holatlari yuzaga keladi.

G.Panovanning (Panova, 1997) fikriga ko‘ra, banklarning kreditlar berish imkoniyatini oshirish uchun, birinchi navbatda, ularning depozit bazasini yetarliligini ta‘minlash lozim.

J.Sinkingning (Sinki, 2017) xulosasiga ko‘ra, kredit oluvchi kompaniyaning faoliyati va menejmentining samaradorligini to‘g‘ri baholash banklarning kredit bo‘limi xizmatchilarining muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi.

J.Sinkingning ushbu xulosasi O‘zbekiston bank amaliyoti uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki respublikamiz tijorat banklari korxonalariga kredit berishda ularning menejmenti samaradorligini baholashmaydi.

V.Kayukov va A.Kayukovlar (V.Kayukov va A.Kayukov, 2007)ning fikriga ko‘ra, sanoat korxonalarini banklarning kreditlari bilan ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish uchun tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash, banklarning aktiv va passivlarining hajmi va muddatiga ko‘ra mutanosibligini ta‘minlash lozim.

O.Lavrushinning (Lavrushin, 2016) xulosasiga ko‘ra, kredit liniyasi doirasida yiriklashtirilgan obyekt bo‘yicha qisqa muddatli kreditlashning yirik korxonalar uchun quyidagi afzalliklari mavjud:

- faqat yuridik shaxslarga beriladi;
- bankning mijozlari bo‘lib faqat yirik korxonalar hisoblanadi;
- kredit oluvchilar bo‘lib doimiy ravishda qisqa muddatli resurslarga ehtiyoji bo‘lgan korxonalar hisoblanadi;
- ushbu kreditni oluvchilarning asosiy hisobraqami kredit berayotgan bankda bo‘ladi;
- kredit faqat moliyaviy jihatdan ishonchli bo‘lgan mijozlarga beriladi.

J. Majidovning (Majidov, 2020) xulosasiga ko‘ra, milliy valyutaning qadrsizlanish sur‘atining yuqori ekanligi importning qimmatlashishiga va inflyatsiyaning kuchayishiga olib keldi. Buning natijasida korxonalarining xorijiy valyutalarda olgan kreditlarini to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlari va mahsulotlar tannarxining oshib ketishi yuz berdi. Natijada, ularning to‘lovga qobillik darajasi pasaydi.

METODOLOGIYA

Ilmiy maqolani yozishda ilmiy tadqiqotni amalga oshirishning induksiya va deduksiya hamda ekspert baholash usullaridan, moliyaviy tahlilning guruhlash, qiyosiy, tarkibiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat korxonalarini kreditlash Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki kreditlash faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2020-yilning 31-dekabr holatiga ko‘ra, TIF Milliy banki kreditlarining hajmi 65,6 trln. so‘mni tashkil etgani holda, uning 31,8 foizini iqtisodiyotning sanoat tarmog‘iga mansub bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga berilgan kreditlar tashkil etdi (www.nbu.uz).

O‘z navbatida, TIF Milliy bankining sanoat korxonalarini kreditlash imkoniyatini kengaytirish bankning resurs bazasiga va sanoat korxonalarining likvidligi va to‘lovga qobilligiga bog‘liq.

Quyidagi jadval ma‘lumotlari orqali TIF Milliy bankining resurs bazasi dinamikasiga baho beramiz.

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, TIF Milliy bankining muddatli depozitlari miqdori 2020-yilda 2018-yilga nisbatan 66,9 foizga kamaygan. Bu esa Milliy bankning sanoat korxonalarini kreditlash imkoniyatini kengaytirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, TIF Milliy bankining boshqa banklardan olgan kreditlari 2020-yilda 2018-yilga nisbatan 12,2 foizga o‘sgan. Bu esa mazkur davrda xorijiy banklardan olingan kreditlar miqdorining oshganligi bilan izohlanadi.

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, TIF Milliy bankining regulyativ kapitali miqdori 2020-yilda 2018-yilga nisbatan 22,6 foizga oshgan. Bu esa bank kreditlarining resurs ta‘minotini yaxshilash nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Chunki regulyativ kapital barqaror moliyalashtirish manbayi hisoblanadi.

1-jadval

TIF Milliy banki resurs bazasining tarkibi va dinamikasi¹

Ko'rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2020-yilda 2018-yilga nisbatan o'zgarishi, %
Muddatli depozitlar, mlrd. so'm	3 287	6 515	1 089	33,1
Boshqa banklardan olingan mablag'lar, mlrd. so'm	37 792	35 307	42 420	112,2
Regulyativ kapital, mlrd. so'm	5 722	13 141	13 873	242,5
Resurslar - jami	46 801	54 963	57 382	122,6

2018-2020-yillarda TIF Milliy bankida talab qilib olinadigan depozitlar va muddatli depozitlarning miqdorining o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Ammo ushbu bankda depozit bazaning yetarliligi ta'minlanmagan, ya'ni talab qilib olinadigan depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 30 foizdan yuqori.

2018-2020-yillarda TIF Milliy bank depozitlarining umumiy hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog'i pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa bankning resurs bazasini mustahkamlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Tijorat banklarining sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolardan biri bo'lib, banklarda balanslashmagan likvidlilik muammosining mavjudligi hisoblanadi.

O'z navbatida, tijorat banklarida balanslashmagan likvidlilik muammosining yuzaga kelishida banklarning aktivlarini muddati bilan majburiyatlarini muddati o'rtasidagi nomutanosiblik muhim rol o'ynadi (1-jadval).

1-jadval

AT «O'zsanoatqurilishbank»da aktivlar va majburiyatlarning muddatiga ko'ra tarkibi [14]


Ko'rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Bir yildan ortiq muddatga ega bo'lgan aktivlar, trln. so'm	13,2	23,7	29,0
Bir yildan ortiq muddatga ega bo'lgan majburiyatlar, trln. so'm	16,9	19,0	23,9

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2018-2020-yillarda Sanoatqurilishbank aktivlari muddati bilan majburiyatlari o'rtasida jiddiy mutanosiblik mavjud bo'lgan.

Banklarning sanoat korxonalarini kreditlash imkoniyatini kengaytirish bevosita ularga berilgan kreditlarning sifatiga bog'liq.

¹ Jadval muallif tomonidan www.nbu.uz sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2018-2020-yillarda TIF Milliy bankida sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo'yicha yaratilgan ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasining sanoat korxonalariga berilgan kreditlarga nisbatan darajasi yuqori bo'lgan. Buning ustiga ushbu ko'rsatkich 2020-yilda 2018-yilga nisbatan 0,1 foizli punktga oshgan. Mazkur holatlar TIF Milliy banking sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.



1-rasm. TIF Milliy banki tomonidan sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasining darajasi, foizda¹

Ta'kidlash joizki, respublikamiz tijorat banklarida uzoq muddatli kreditlarning resurs ta'minoti masalasi hal qilinmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev e'tirof etganlaridek, «Banklarga qo'yilgan depozitlarning 70 foizi qisqa muddatli bo'lgani holda kreditlarning 90 foizi uzoq muddatga berilgan».

Ta'kidlash joizki, koronavirus pandemiyasi O'zbekiston tijorat banklarining sanoat korxonalarining kreditlash amaliyotiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi (PF-5978) «Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq, yuridik shaxslarning kreditlari bo'yicha 7,9 trln so'm miqdorida qarzdorlik, jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlar bo'yicha 4,7 trln so'm miqdoridagi qarzdorlik 2020-yilning 1-aprelidan 1-oktyabriga qadar kechiktirildi, koronavirusga qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan choralar va iqtisodiy faollikning keskin pasayishi sababli moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan tashkilotlarning kreditlari bo'yicha qo'shimcha restrukturizatsiya qilinadigan to'lovlar hajmi qo'shimcha ravishda 7 trln so'mni tashkil etdi.

¹ Rasm muallif tomonidan www.nbu.uz sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat korxonalarining tijorat banklarining investitsion kreditlaridan foydalanish darajasini oshirish uchun banklar yetarli darajada resurslarga ega bo'lishi, sanoat korxonalarini esa investitsion kreditlarni o'z vaqtida va to'liq qaytarish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Istiqbolli investitsiya loyihalarini hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni kengaytirish mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi.

TIF Milliy bankining muddatli depozitlari miqdorini 2020-yilda 2018-yilga nisbatan 66,9 foizga kamayganligi uning sanoat korxonalarini kreditlash imkoniyatini kengaytirish nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

TIF Milliy bankining boshqa banklardan olgan kreditlari miqdorini 2020-yilda 2018-yilga nisbatan 12,2 foizga o'sganligi mazkur davrda xorijiy banklardan olingan kreditlar miqdorining oshganligi bilan izohlanadi.

2018-2020-yillarda TIF Milliy bankida depozit bazaning yetarliligi ta'minlanmagan, ya'ni talab qilib olinadigan depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 30 foizdan yuqori.

2018-2020-yillarda Sanoatqurilishbank aktivlari muddati bilan majburiyatlari o'rtasida jiddiy mutanosiblik mavjud bo'lgan.

2018-2020-yillarda TIF Milliy bankida sanoat korxonalariga berilgan kreditlar bo'yicha yaratilgan ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasining sanoat korxonalariga berilgan kreditlarga nisbatan darajasi yuqori bo'lgan.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklarining sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak:

1. Sanoat korxonalariga beriladigan kreditlarning resurs ta'minotini yaxshilash maqsadida, birinchidan, banklarning qimmatli qog'ozlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash orqali ushbu qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan pul mablag'larining resurslar takribidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash lozim; ikkinchidan, sof foizli spread ko'rsatkichining barqaror darajasini ta'minlash orqali muddatli depozitlarga to'lanadigan foizlarning darajasini oshirish imkoniyatini saqlab qolish kerak; uchinchidan, banklararo kreditlarning resurslar hajmidagi salmog'ini pasaytirish lozim (ular qimmat resurs bo'lganligi uchun).

2. Tijorat banklari tomonidan sanoat korxonalariga berilgan kreditlarning sifatini oshirish yo'li bilan kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasini pasaytirish maqsadida, birinchidan, tasniflangan kreditlar tarkibini standart va substandart kreditlarning salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash hisobiga yaxshilash kerak; ikkinchidan, sanoat korxonalarining kredit to'loviga layoqatliligini baholash tizimini, taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida keng qo'llanilayotgan moliyaviy koeffitsiyentlarni va pul oqimini baholash usullarini joriy qilish yo'li bilan takomillashtirish lozim; uchinchidan, sanoat

korxonalariga berilgan kreditlarning ta'minoti tarkibida to'lovga qobilligi yuqori bo'lgan sug'urta kompaniyalarining sug'urta polislarining salmog'ini oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 сон Фармони//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – № 6 (766). – Б. 32.

2. ПФ-5992. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги “Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси”тўғрисидаги Фармони//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.05.2020 й., 06/20/5992/0581-сон.

3. Уэрто де Сото Хесус (2008). Деньги, банковский кредит и экономические циклы. Пер. с англ. – Челябинск: Социум, – 666 с.

Панова Г.С. (1997). Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС». – С. 194.

4. Синки Дж. (2017) Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер. – С.547.

5. Каюков В.В., Каюков А.В. (2007). Совершенствование механизма обеспечения промышленных предприятий кредитными ресурсами//Труды Вольного экономического общества России. – Москва. – Том №86. – С. 135-145.

6. Лаврушин О.И. (2016). Краткосрочное кредитование по укрупненному объекту в пределах кредитной линии. Банковское дело. Под ред. Проф. О. Лаврушина. – М.:КНОРУС, 2016. – С. 430.

7. Мажидов Ж.К. (2020). Ўзбекистон Республикаси тижорат банклари активлар портфелларининг сифатини ошириш йўллари. И.ф.б. ф.д. дисс. автореф. – Тошкент. – Б. 22.

8. Мирзиёев Ш.М. (2019). Банklar энди «ўз аравасини ўзи тортиши керак». <https://sputniknews-uz.com/economy/20191026/2694075>.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 апрелдаги “Коронавирус пандемияси даврида аҳоли, иқтисодиёт тармоқлари ва тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чоратадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5978 сон Фармони//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.04.2020 й., 06/20/5978/0393-сон, 15.07.2020 й., 06/20/6027/1071-сон.

KAPITAL BOZORIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Ibragimov Gafurjan Axmetovich

Qoraqalpaq davlat universiteti

mustaqil doktoranti

gibragimovga@gmail.com

